

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

ERKIN JABBOROV

KOMPOZITSIYA

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim
vazirligi tomonidan o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan*

TOSHKENT – 2019

UO‘K: 73/76.012(075.8)

KBK 85.14

J 13

J 13

E. Jabborov. Kompozitsiya. –T.: «Fan va texnologiya», 2019, 128 bet, +32 bet rasm.

ISBN 978–9943–5675–9–7

Mazkur o‘quv qo‘llanma Oliy ta’lim muassasi “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” yo‘nalishi uchun yozilgan bo‘lib, tasviriy san’atning yetakchi bo‘g‘ini hisoblangan kompozitsiya, fan dasturi bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni yoritib berishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Unda dastgohli rangtasvir kompozitsiyasi, uning turlari, elementlari, kompozitsiya ishlash bosqichlari va qoidalari bayon etilgan.

Kompozitsiya o‘quv qo‘llanmasi yosh pedagog-rassomlarni tayyorlash, mahoratini oshirishga, ijodkorlikni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, u rangli rasmlar va illyustratsiyalar bilan to‘ldirilgan.

Ushbu o‘quv qo‘llanmadan oliy ta’lim muassasalarining bakalavr talabalari, shuningdek, yosh rassomlar, soha pedagoglari va tasviriy san’atga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

UO‘K: 73/76.012(075.8)

KBK 85.14

O‘zbekiston xalq rassomi, professor R.Xudoyberganovning umumiy tahriri ostida.

Taqrizchilar:

M.Toshmurodov – O‘zbekiston san’at arbobi, O‘zbekiston xalq rassomi, professor;

I.Kamolov – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori.

ISBN 978–9943–5675–9–7

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2019.

I BOB. KIRISH

Inson tabiatan rassomdir. U o‘z hayotida ko‘rgan, bilgan narsalarini, voqealarni boshqalar bilan baham ko‘rishga, o‘zi ko‘rgan go‘zal tabiatni, inson go‘zalligini ta’riflashga, tavsiflashga intiladi. Kompozitsiya fanini o‘zlashtirishda zaruriy bilimlar va amaliy malakalarga ega bo‘lishi haqida yo‘l - yo‘riq ko‘rsatiladi. Kompozitsiya fani murakkab bo‘lib, bo‘lajak rassom uchun juda muhim hisoblanib, doimiy izlanishga, mashq qilishga undaydi.

Kompozitsiya fani bilan faqat rassomlarga shug‘ullanmay, balki yozuvchilar, bastakorlar, dramaturglar, arxitektorlar umuman barcha san’atkorlar shug‘ullanib keladilar.

Kompozitsiya fani atrof borliqni tasvirda umumlashtirishga, ma’nosini tushunishga o‘rgatadi va havas uyg‘otadi. Har kuni u kuzatayotgan va his qilgan narsalarni badiiy obrazlarda aks ettirishga o‘rgatadi.

“Kompozitsiya” fani malakali badiiy asar kompozitsion qurilishini o‘rgatuvchi fan sifatida zaruriyati katta.

Kompozitsiyani o‘rganishda bosqichma - bosqich maqsadli metodologik asosda plastik shakl yechimini murakkablashtirib amalga oshiriladi. Kompozitsiyani o‘rganish jarayonida o‘quv kursi vazifalarining mavzusi bo‘yicha asar eskizi va shuningdek o‘quv jarayonidagi etud, chizmatasvir, rangtasvir ustida ish olib borishni nazarda tutadi.

Kompozitsiya mavzusi ustida ishlash jarayonida mavzu g‘oyasini ochib berish uchun chizmatasvir, qoralamalar, natura etudlari kabi to‘plangan ashyolardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Kompozitsiyadan fikrlash qobiliyatini o‘stirishda mustaqil ishlash katta rol o‘ynaydi. U nafaqat

o‘qish jarayonining davomi bo‘lib qolmay, balki bo‘lajak rassomning shaxsiy qobiliyatini o‘stiradi va borliqni kuzatishda ijodiy qobiliyatini oshiradi.

“Kompozitsiya” fanini o‘qitishdan maqsad – talabalarda rangtasvir kompozitsiyasini yaratishda turli usul, qoidalaridan foydalanish yo‘llarini o‘rgatishdan iboratdir. Bo‘lg‘usi ijodkor mutaxassislar tasviriy san‘atning realistik maktab an‘analarini o‘rganish, hamda rivojlantirishda hozirgi zamon tasviriy san‘ati yangi pog‘onalarini egallash, yaratilgan asarlarni badiiy ta’sirchanligini anglash, his etish va uning badiiy g‘oyasini oshirish, rivojlantirish yo‘nalishlarini belgilab olish bo‘yicha nazariy - amaliy bilimlarni shakllantirishdan iboratdir. Mavzuli kartina yaratishda kompozitsiya muhim ahamiyatga ega.

Rassom ijod etayotgandagina, bevosita san‘at asarlari yaratayotgandagina san‘atkor bo‘lib qolmay, u san‘at asarlarini idrok etayotganida ham ijodkor ekanligini tushunish zaruriyati tug‘iladi. Buning uchun esa fikr, g‘oyani qandaydir tartibda ifodalash, tasvirlash tartib qoidalariga kompozitsiya fani katta yordam beradi. Shuning uchun qo‘llanmada kompozitsiya asosi, uning vositalari, kompozitsiya elementlari va boshqalar haqida bayon qilishga harakat qilindi.

Kompozitsiya fanining asosiy maqsadi obrazli va ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish, hayotdagi go‘zallikni, yangilikni, ilg‘orlikni ko‘ra bilishni tarbiyalash jarayonidan iborat.

Kompozitsiya vositalarini o‘rganishga katta e’tibor qaratib, uning plastik formasini badiiy obrazlarda ochib berishdagi ahamiyatini talabaga tushuntirish, dunyodagi yetuk badiiy asarlarni tahlil qilish asosida olib boriladi. Badiiy asar g‘oyasini ochib berishda qo‘llangan kompozitsiya vositalarini tushunishga ko‘nikma hosil qilinadi.

Kompozitsiyani o‘rganish badiiy asar yaratish ustida

ishlashning ayrim bosqichlari ahamiyatini tushunishni, biron bir fikr orqali mazmunli badiiy asar yaratish ko‘nikmasi hosil qilishning muhim bosqichi bo‘lib qolishi kerak. Plastik badiiy obraz yaratishda g‘oya va tuyg‘u birligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Kompozitsiyani o‘rganishda dastlabki o‘quv mashg‘ulotlardan boshlab kompozitsiya qonun-qoidalari, bajarish bosqichlari, borliqni shartli obrazlarda yechish, tasvirlash usuli va uslublarini izchillik bilan o‘rganish muhim hisoblanadi.

1.1. Fan haqida

Kompozitsiya vositalarini o‘rganishga katta e‘tibor qaratib, uning plastik formasini badiiy obrazlarda ochib berishdagi ahamiyatini talabaga tushuntiriladi. O‘qish jarayoni dunyodagi yetuk badiiy asarlar va xalq san’ati asarlarini tahlil qilish asosida olib boriladi. Badiiy asar g‘oyasini ochib berishda qo‘llangan kompozitsiya vositalarini tushunishga ko‘nikma hosil qilinadi.

Rangtasvir san’ati asarining kompozitsiyasida asosiy g‘oyalarini ochib berish o‘quv - mashq eskizida shakllar, odam qiyofalari, planlar orqali ko‘rsatish lozim bo‘ladi.

Kompozitsiya dasturining keyingi bosqichlarida o‘quvchi asta - sekin plastik va zamonaviy uslublar bilan tanishtirilib boriladi. Shuningdek, kompozitsiya vazifalari murakkablashib, malakaviy bitiruv ishi kompleks eskizi darajasiga olib chiqiladi.

Kompozitsiya fani o‘quv jarayonida rangtasvir, chizma-tasvir, kompozitsiya asoslari, ashyoda ishlash, rangtasvir texnika va texnologiyasi, adabiyot, tarix, ximiya kabi fanlar bilan uzviy bog‘langan holda davom ettiriladi.

Talabalar dastgohli rangtasvir san'ati kompozitsiyasi ustida ishlash davomida kompozitsiya vositalaridan foydalanib, uning asosiy g'oyasini va asar mazmunini ochib beradilar. Rassomlar o'z ustida mustaqil ishlashni tarbiyalash katta ahamiyatga ega. Chunki, bo'lajak asar kompozitsiyasini hamma vaqt uning tuzilishi asosini o'rganishdan boshlanadi. Kompozitsiya mazmunini ochib berish davomida bir qancha kompleks vazifalar bajariladi va amalga oshiriladi. Ishchi eskiz ko'rigi ustaxonalarda o'qituvchi yordamida tahlil qilib boriladi.

1.2. Tasviriy san'at

Rangtasvir san'ati – tasviriy san'atning bir turidir. Unda real hayotdagi narsa va hodisalar mato, qog'oz, fanera, karton qog'ozi, bino devori va boshqa narsalarda bo'yoqlar bilan tasvirlanadi. Rangtasvir san'ati juda qadimdan mavjud. Bu san'at ibtidoiy odamlar yashash uchun kurashda tosh qurollar ishlatib boshlagan paytlarda paydo bo'lgan.

Ibtidoiy odam toshda rang-barang bo'yoqlar bilan hayvonlarning, o'simliklarning xarakterli belgilarini aks ettirishga intilgan.

Rassom bo'yoqlar va maxsus usullar yordamida jismning qavariqligini, makonli hajmini yaratadi. (1 - rasm).

Rangtasvir san'ati asosan beshta asosiy elementdan iboratdir. Bu elementlar buyum shaklini, rangini, yoritilishini, yasalgan materialini, tasvirlanayotgan narsaning qanday sharoit va muhitda ekanini tasvirlashda namoyon bo'ladi.

Rangtasvir san'atning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda rassom mavjud vositalar yordamida narsa shaklini va perspektivasini, rangi va materialini, psixologik holati va anatomik tuzilishini va hokazolarni tasvirlaydi.

Rassom o‘zi yaratayotgan badiiy obrazida hayot qonunlarini, unga o‘z munosabatini ifodalashga intiladi. Tasviriy san‘at asari adabiy asardan shunisi bilan farq qiladiki, u faqat tomosha qilish orqali idrok qilinadi, chunki surat matoning bir tomoniga ishlanadi, u bir qarashda, bir yo‘la idrok etiladi.

Bir qarashda idrok etiladigan asarni yaratishda rassomga katta yordam beradigan narsa asar kompozitsiyasidir, ya’ni asar kompozitsiyasi shunday quriladiki, unda alohida inson qomati va narsalar bir - biriga bog‘lanib ketadi. Natijada muallif fikri tomoshabinga yaxshi yetib boradi. Tasviriy san‘at asarlarida kolorit – nafis ranglarning o‘ziga xos uyg‘unlashuvi – ritm, proporsiya, rang – havo perspektivasi va hokazolar ham katta ahamiyatga ega.

Rang – tasviriy san‘atning jonidir. Badiiy asarning xissiy, ma’naviy, emotsional tasvirini oshirishda rangning roli nihoyatda kattadir.

Tasviriy san‘at asarlari o‘z xususiyatiga ko‘ra dastgohli rangtasvir, mahobatli (monumental) rangtasvir, dekorativ va miniatyuraga bo‘linadi.

Mahobatli (monumental) san‘at arxitektura va haykaltaroshlik bilan bog‘liq holda yaratiladi. Uning mavzusi va mazmunini badiiy fikrning ulug‘vorligi belgilaydi, unda o‘tkinchi mavzu emas, balki xalq hayotidagi muhim voqealar tasvirlanadi. Mahobatli rangtasvir san‘ati kompozitsiyaning aniqligi, puxtaligi, koloritining umumlashmaligi, kompozitsiyasining har tomondan ko‘rishga qulayligi bilan farqlanadi. Bunga Rafaelning «Afina maktabi» (Vatikan) devoriy rasmi, Ch.Axmarovning Alisher Navoiy nomidagi Opera va balet teatri foyesiga «Xamsa» mavzusidagi devoriy rasmlari misol bo‘la oladi¹. Mahobatli rangtasvir san‘atining asosiy vazifasi xonalarni bezashdir (2-rasm).

¹ Ч.Ахмаров. Ғ.Ғулом нашр. Т.; 1979.

Ularni alohida pannolarda ishlab, keyin bino interyerlariga oʻrnatish ham mumkin. Devorga ishlanadigan nafis tasviriy naqshning mavzusi va syujet xarakteri rassomning dunyoqarashi va binoning qanday maqsadda foydalanishiga bogʻliq.

Miniatyura nafis tasviriy sanʼat bizningcha, nafis ishlanganligi, oʻlchami kichikligi bilan farq qiladi. Ammo uning nomi kichikligi va nafisligidan emas, balki qadim zamonda – qoʻl yozma kitoblardagi bosh harflar boʻyaladigan qizil boʻyoqdan olingan. Miniaturada rassomlarning tasvirlaydigan asosiy obyekti portret hisoblangan.

Rassomlar ishlatadigan vositalar va ashyolar jihatidan rangtasvir sanʼati texnik jihatdan moy boʻyoqli nafis tasviriy sanʼatga (bunda boʻyoqlarni qovushtiradigan narsa turli moylardir) va quruq (suv) boʻyoq bilan devorga ishlanadigan suratlar – freskalarga, shuningdek, akvarel, tempera, akril boʻyogʻidagi nafis sanʼat, mozaika, vitraj va hokazolar ham mavjud.

Tayanch iboralar: Sanʼat, realizm, rassom, manzara, tasvir, realizm, kompozitsiya, miniatyura, sanʼat, mozaika, vitraj.

Savollar

- 1. Kompozitsiya fani nimani oʻrgatadi?*
- 2. Kompozitsiya qanday fanlar bilan bogʻliq?*
- 3. Kompozitsiyada gʻoyalarni ochib berish nima orqali amalga oshiriladi?*
- 4. Ibtidoiy odamlar nimalarni aks ettirganlar?*
- 5. Rangtasvir sanʼatning oʻziga xos xususiyati nimadan iborat?*
- 6. Asar yaratishda rassomga yordam beradigan narsa nima?*

7. Tasviriyy san'at asarlari o'z xususiyatiga ko'ra qanday?

8. Rassomlar ishlatadigan ashyolar nimalardan iborat?

1.3. San'atda realizm

San'at - ijtimoiy ong shakllaridan biri, borliqni, atrof - muhitni bilishning alohida vositasidir.

Inson san'at bilan juda qadim zamonlardan shug'ullana boshlagan. San'at kishilarning mehnat jarayonining ajralmas qismi edi. Inson o'z badiiy asarlarida hayotda muhim, zarur deb bilgan narsalarini aks ettirishga uringan.

Mehnat jarayonini, ov paytlarini idrok etgan dastlabki sodda obrazlari, insonning turli vaziyatlari, yovvoyi hayvonlar obrazi gavdalanib tasvirlangan.

San'at inson ijtimoiy hayotining ajralmas bir qismi va ehtiyojiga aylangach, u o'z asarlarida jamoa, jamiyat intilishlarini ifodalaydigan, aks ettiradigan bo'ldi. San'at hayotni bilish, uni alohida vositalar yordamida aks ettirish va jamoaga muayyan ta'sir ko'rsatish orqali ijtimoiy ong shakllaridan biriga aylandi, unga faqat borliqni o'zlashtiruvchigina emas, balki insonni yangi bilim va obrazli tasavvurlar bilan boyituvchi qudratli bir kuch deb qaraldi.

San'atning, shu jumladan, tasviriyy san'atning (rangtavsir, haykaltaroshlik, miniatyura, grafika) eng muhim xususiyatlaridan biri shundaki, u hayotni aks ettiradi, dunyoni bilishda insonga yordam beradi, uni g'oyaviy va estetik jihatdan tarbiyalaydi.

Tasviriyy san'at asarlari inson uchun bitmas - tuganmas ma'naviy boylikdir.

Qadimiy jamoa hayotini arxeologik qazilmalardan topilgan narsalar va o'sha davr odamlarining qo'li bilan

yaratilgan tasvirlarni ko'rib, ular hayoti to'g'risida to'la tasavvur hosil qilishimiz mumkin.

Bu jihatdan o'n ming yillar burun yashagan, noma'lum rassomlar tomonidan ishlangan ov manzaralari alohida ahamiyatga ega. Ibtidoiy odamning qanday ov qilganini, ovchilarning o'zlarini qanday pana qilganliklarini, o'sha vaqtlardagi yovvoyi hayvonlarning turlarini biz O'zbekistonning Termiz shahri yaqinidagi Zaravutsoy darasida topilgan bir toshga o'yib ishlangan rasmlar yordamida tasavvur etishimiz mumkin.

Bu tasvirlar uzoq o'tmishdagi tasvirning ahvoli haqidagina emas, shuningdek ovchilarning ov usullari, hayvonlarning qiliqlari va hokazolar haqida ham hikoya qiladi. Rassomning tabiat farzandi ekanligi va bu farzand tabiatning rang - barang qirralarini aks ettirishga bo'lgan intilishi ana shu qadimgi davrlardan boshlandi va turli rassomlar ijodida davom etdi. Masalan, Sibir yoki Rossiyaning o'rta mintaqasi tabiatini, go'zalligini I.Shishkin, I.Levitan kabi rassomlar asaridan bilib olishimiz mumkin.

O'zbek rassomlaridan O'.Tansiqboyev, N.Qo'ziboyevning manzara asarlari yurtimizning go'zalligi haqida kuylagan polotnolari tomoshabinni tabiat quchog'iga chorlaydi.

Rus rassomi V.Perovning «Uchovlon» suratidagi uchta bolaga qaraylik. Ularning juldur kiyimlari, holatlari, boshlarining mayus egilganligi, horg'in ko'zlari, kuchanishdan yarim ochilgan lo'ppi lablari butun bir hayot haqida hikoya qiladi. Xo'rlangan bolalar hayoti haqida hikoya qiluvchi bu asar bizning tuyg'u va ongimizga ta'sir etadi (*3-rasm*).

Dunyoni badiiy idrok etishning o'ziga xos belgilari bor, lekin u dunyoni ilmiy bilishdan keskin farq qilmaydi. Voqealikni bilish his etishdan boshlanadi. His etish borliqni badiiy idrok etishning manbaidir. O'zimizni manzarachi

rassom deb faraz qilaylik. Siz polotnoda bahorning uygʻoni-shini tasvirlamoqchisiz, deylik. Sizda turli hislar taʼsirida bahor tushunchasi paydo boʻladi. Bu gulu - lolalarga burkan-gan bahor koʻrinishi uzoqda togʻning qorli choʻqqilari, ariqlarning sharqirab oqishi, oʻrmonlarning shovullashi, qush-larning sayrashi, endi sabza urib kelayotgan maysalarning yam - yashil rangi koʻzingizni oldiga keladi, uni ichki rux bilan his qilasiz..

Manzara chizmoqchi boʻlgan rassom uchun faqat his etishning oʻzigina kifoya qilmaydi, albatta. Tabiatdagi muhim hodisa va detallarni oqilona ravishda tanlash lozim, chunki bu hodisa va detallar tabiat voqeligini toʻla - toʻkis taʼriflab beradi.

Rassom oʻz asariga maʼlum bir gʻoyani singdiradi va uning haqqoniyligini tomoshabin bilan birga tekshirib koʻradi. Tomoshabin uning his-hayajoni va fikr - oʻyini qabul qiladi yoki inkor etadi, qahramonlarini sevib qoladi yoki inkor etadi.

Agar rassom tajribasi, oʻyi-hayollari, his-tuygʻulari tomoshabin oʻyi-hayollariga toʻgʻri kelmasa, rassom tomoshabin his etayotgan narsalarni aks ettirmasa, hayotning tomoshabin bilmagan, lekin bilgisi kelgan jihatlarini ochib bermasa, bunday asar rassomning tor subyektiv qarashlari-nigina aks ettirgan boʻladi. Binobarin, bunday asar keng tomoshabinlarga hech qanday foyda keltirmaydi, unga tushunarli boʻlmaydi.

Biz suratlarni shunchaki tomosha qilgimiz kelgani uchun tomosha qilmasligimizni bilamiz. Axir kitob oʻqishdan maqsad oʻqishni mashq qilish emasku. Tomoshabin biror surat yoki tasviriyy sanʼat asari orqali biror yangilikni bilib olish, biror narsani oʻrganish, hayotiy tajribasini orttirish uchun tomosha qiladi.

Haqiqatan ham, badiiy koʻrgazmalarda koʻpdan - koʻp asarlarni tomosha qilar ekanmiz, unda rassomning

uslubinigina o'rganmay, ularning kompozitsion talqiniga ham e'tibor beramiz. Binobarin bundan estetik zavq olamiz, qo'shimcha bilim, tasavvurlar hosil qilamiz.

Biz rassomning tasviriy san'at asarlariga qarab, ko'pchilik bormagan va ko'rmagan shimolning shafqatsiz tabiati, uzoq mamlakat kishilarining tashqi qiyofasi va xarakterlari haqida tasavvurga ega bo'lamiz.

Ko'rgazmaga qo'yilgan ko'pgina badiiy asarlar tomoshabinlarni ma'naviy, estetik jihatdan boyitadi, turli xalqlarning madaniyati va turmushi bilan tanishtiradi, shuningdek, mehnat va qahramonlikka ilhomlantiradi. Shuni ham aytib o'tmoq lozimki, tomoshabin odatda tashqi ko'rinishi bilan emas, balki chuqur mazmuni bilan jalb etuvchi, fikr - mulohaza qo'zg'atuvchi, bilmagan narsasini o'rgatuvchi go'zal mahorat bilan ishlangan asarlar oldida to'xtaydi.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, ilg'or dunyoqarash pozitsiyasida turuvchi rassomlar yaratgan asar inson hayotiga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shu ma'noda, san'at borliqni, inson mehnati va turmushini aks ettiribgina qolmay, ularning tarkib topishiga ham ta'sir etadi, qahramonlikka undaydi, kishilarni to'g'ri yo'lga boshlaydi. Madaniy, ma'naviy va estetik jihatdan insonni tarbiyalaydi.

Rassom asar yaratar ekan, u bo'yoq va maxsus usullar, syujetlar izlaydi. Kompozitsiya, kolorit, yorug'lik masalalarini hal qiladi, ya'ni o'ziga xos vositalar bilan voqealikni umumlashtiradi va tipiklashtiradi, tasvirlagan obrazlari orqali hayotda sodir bo'lgan voqeani faqat tushunishgagina emas, his etishga ham yordam beradi. Bunday emotsional shaklda ifodalangan g'oyaning insonlarga ta'siri kuchli bo'ladi.

Shunday qilib, san'at, jumladan, tasviriy san'at hayotni ko'rish orqali obrazli idrok etishdir. Demak, hayotni bilish va umumlashtirishning san'atdagi asosiy shakli badiiy obrazdir.

Rassom biror voqelikni aks ettirar ekan, unga o'z munosabatini bildiradi, baho beradi va u haqda fikr yuritib o'z hukmini chiqaradi.

Realizm deganda san'at asaridan muhim hayotiy voqealarni g'oya va mazmun jihatdan haqqoniy va halqchil, badiiy yuksak va ravon shaklda ko'rsatishni talab qiluvchi ijod tushuniladi.

Realizm - detallarning haqqoniyligidan tashqari, tipik xarakterlarni, tipik sharoitda tasvirlashni ham ko'zda tutadi.

San'atdagi realizm tarixiy tushunchadir. U jamiyat taraqqiyotining ma'lum tarixiy shart - sharoitlariga qarab shaklan o'zgarib turadi.

Tarixiy shart-sharoitlar antik san'at realizmini, Uyg'onish davri realizmini, XIX asr va boshqa davr realizmlarining o'ziga xosligini belgilab berdi. San'at taraqqiyoti davrida bir realizm shaklining boshqasi bilan almashinib turganini ko'rish mumkin.

Uyg'onish davri realizmi ma'lum tarixiy shart-sharoitga mos ravishda gumanistik xarakterda edi. Rassomlar o'z davrining gumanistik g'oyalarini ifodaladilar. Shu bilan bir qatorda, bu davrdagi realizm shakli o'ziga xos xususiyatlarga ega edi. San'at asarlarida ma'lum hayotiy muammolar ko'pincha shartli poetik va diniy niqobda berilar edi.

Jumladan, Leonardo da Vinchi, Rafael madonnalarida birinchi galda onalik ulug'vorligi ifodalangan. Lekin onalik ideali rassom tomonidan Tavrotdagi Momo Havo obrazi orqali beriladi. (Rafaelning «Sikistin madonnasi», Leonardo da Vinchining «Madonna Benua» asarlarida). (4 – *rasmga qarang*).

Tayanch iboralar: San'at, realizm, rassom, manzara, tasvir, realizm, kompozitsiya.

Savollar

1. *San'at nima?*
2. *San'atda realizm nima degani?*
3. *San'atning muhim xususiyatlari nima?*
4. *Tasviriy san'at asarlari inson uchun nima?*
5. *Rassom o'z asariga nimani singdiradi?*
6. *Tasviriy san'at nima?*
7. *Realizm deganda nimani tushunasiz?*
8. *Uyg'onish davri san'atida realizm qanday bo'lgan?*

1.4. Tasviriy san'atda mazmun va shakl

Yuqorida eslatib o'tgan asarlarda voqealikdagi hodisalarning rassom idealiga mos tasviri badiiy asar mazmunini tashkil etadi. L.Abdullayevning «Cho'lni o'zlashtiruvchilar» asarining mazmuni - Mirzacho'lni o'zlashtirishga bel bog'lagan yoshlar mehnatiga bag'ishlangandir. Bunda mazmuni ifodalash usuli badiiy asarning shaklini yaratadi.

Shuningdek, rassomlarimiz tomonidan yaratilgan asarlar ham o'z qimmatiga egadir. Z.Inog'omovning «Choyxonachi», «Choyga» kabi kartinalari; P.Benkovning «Dutorchi qiz», «Dugonalar», «Registonda erta bahor», «Uzum terayotgan qizlar» kabi asarlari orqali o'tmishda onalarimiz va bobolarimizning hayot turmushi, mehnat faoliyati, ularning chehralari haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lamiz, ulardan zavqlanamiz. Ularni bugungi rivojlangan kun bilan taqqoslab o'zimizga xulosa chiqaramiz va erishgan yutuqlarimizga baho beramiz².

Tasviriy san'atda shaklning muhim elementlaridan biri kompozitsiyadir. Ya'ni badiiy asar g'oyasiga uyg'un ravishda ayrim qismlarining joylanishi, asarning umumiy tizulishi

2. Ўзбекистон тасвирий санъати антологияси. «Санъат» нашр. 2009.

kompozitsiyani tashkil etadi. Bir mazmunning o'zi turli syujet va shakllarda ifodalanishi mumkin. Mavzuni ifodalaydigan asosiy voqea-syujet ham badiiy shakl elementlaridan biri hisoblanadi. Tasvir koloriti, uning keng jihatdan hal qilinishi asar mag'zini tashkil etuvchi rasmlarning aniq ishlanishi kabilar shaklga, rassomning o'ziga xos uslubiga aloqadordir.

Shakl ham, g'oya ham bir - birisiz mavjud bo'la olmaydi, ular har doim o'zaro bir - biri bilan bog'liqdir. Bu ikki element bir - biri bilan chambarchas bog'liq bo'lganligi sababli ikkalasi bir - biriga mos tushgandagina rassom g'oyasi to'g'ri tushuniladi va tomoshabinga yetib boradi. Masalan, rassom quvnoq bir surat yaratmoqchi bo'ldi deylik. Ammo unda ma'lum bir g'oyani ifodalashi lozim bo'lgan, lekin rassom kompozitsiyani ifodasiz, tushunarsiz tarzda hal qildi. Undan tashqari, ayrim personajlar rasmini shunchalik noaniq, pala - partish chizdiki, natijada surat qahramonlari bedavo, xunuk bo'lib chiqdi. Rassom quyosh nuri, bo'yoqlarning yoqimli gammasi o'rniga o'rinsiz, qoramtir koloritni tanladi. Tabiiyki, bu nomunosiblikda asar rassom o'ylaganining aksi bo'lib chiqadi. Demak, asar shakli qanchalik pishiq, mukammal bo'lsa, badiiy asar tomoshabinlarga shunchalik kuchliroq ta'sir etadi. Ammo aksincha ham bo'lishi mumkin: rassom o'z asari uchun mutlaqo tasodifiy, ahamiyatsiz temani tanlab oladiyu, lekin personajlarni bo'rttirib, yorqin tasvirlaydi, suratdagi har bir rasm detalini erinmay puxta ishlaydi. Shunga qaramay, asar tomoshabinni hayajonlantirmaydi, uni maftun etmaydi. Bunda ham shakl bilan mazmun o'rtasida uzilish mavjud, hatto shakl mazmundan yuqori qo'yiladi, aslida esa san'atda mazmun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lmog'i lozim.

Badiiy asardagi asosiy narsa mazmun bo'lib, shaklni yaratadi. Badiiy tasviriy san'at rassomi uchun inson chehrasi, qalbi, hayotiy drama, tabiat taassuroti uning hayoti va g'oyasi,

tarix ruhi mavzusiga aylanishi lozim. I.Repinning fikricha: bo‘yoqlar - rassom uchun o‘z fikrini ifodalovchi quroldir. I.Repin quruq san’atning san’at uchun xizmat qilishiga qarshi chiqib, san’atda birinchi o‘rinda mazmun turishi kerakligini alohida ta’kidlaydi. Repinning bu aytganlari shunchalik quruq gap emas. Uning butun ijodi bunga **jonli** guvohdir.

Xulosa qilib aytganda realizm metodi san’atda shaklni kamsitmaydi, aksincha mahoratini o‘stirishga, san’at asarining g‘oyaviy va badiiy darajasini tinmay oshirishga chaqiradi.

Katta-katta ko‘rgazmalarda turli rassomlar asarlari namoyishi realizm metodi, stili, individual (dastxat) uslubi ko‘pligini, ularning turli-tumanligini yorqin ko‘rsatib turadi.

Tayanch iboralar: L.Abdullayev, I.Repin, san’at, realizm, rassom, tasvir, realizm, kompozitsiya, ko‘rgazma.

Savollar

- 1. Badiiy asar mazmunini nima tashkil qiladi?*
- 2. L.Abdullayevning asari kimlarga bag‘ishlangan?*
- 3. Tasviriyl shaklning muhim elementi nima?*
- 4. Shakl nima bilan bog‘liq?*
- 5. Badiiy asar tomoshabinlarga qachon kuchliroq ta’sir etadi?*
- 6. I.Repinning badiiy asar haqidagi fikri qanday?*
- 7. Realizm metodi san’atda qanday?*
- 8. Ko‘rgazmalarda turli rassomlar asarlarida nimani ko‘rasiz?*

1.5. Kompozitsiya

«Kompozitsiya» soʻzi italyancha compositio («kompozito») soʻzidan olingan boʻlib, tuzish, birlashtirish, bogʻlash, turli xil ramziy qism ifodalarni bir butun yaxlitlikka birlashtirish va biron bir gʻoyani madh etish maʼnosini bildiradi.

Rangtasvirda kompozitsiya - bu kartina tekisligida tasvir elementlarini joylashtirishda fikr(gʻoya)ni ravshan, aniq va toʻlaqonli joylashtirish imkonini berishdir.

Tasviriy sanʼatda - rassom (haykaltarosh va boshqalar) gʻoyasini aniq ifoda etish vositasi boʻlib, unda ijodkorning mahorati yorqin namoyon boʻladi. Kompozitsiya orqali muallif chiziq, shakl, rang va obrazlarni tartibga keltiradi, fazoviy kenglikni oʻzlashtiradi va badiiy ***muhit*** yaratadi. Kompozitsiya asosini mantiqiylik, shakl aniqligi va ularning oʻzaro uygʻunligi tashkil qiladi. Ijodkor yaratgan har bir asarning asosida kompozitsiya yotadi, unda borliqni idrok etish jarayonida hosil boʻladigan fikr, his - tuygʻular oʻz aksini topadi. Kompozitsiyaning «*turgʻun*» va «*harakatli*», «*ochiq*» va «*yopiq*» xillari mavjud. Kompozitsiya tuzish maʼlum «qonun»lar bilan belgilangan va chegaralangan. Bu esa kompozitsiya ifoda vositalarining torayishiga olib kelgan. Uygʻonish davrida «*turgʻun*» va «*yopiq*» kompozitsiya, barokko sanʼatida «*harakatli*» va «*ochiq*» kompozitsiya ustuvorlik qilgan. Sanʼat tarixida qonunlarga boʻysunib yaratilgan kompozitsiyalar va erkin kompozitsion usullarga asoslanib kompozitsiya yaratish harakatlari birday muhim rol oʻynagan. Uygʻonish davrida kompozitsiyani ilmiy asoslashga intilish kuzatiladi.

“Rangtasvir asarining kuchi har qanday sanʼatdagidek – shakl mohiyati teranligi va mukammalligidadir. Faqat muhim, ilgʻor gʻoyaning va ilgʻor kasbiy mahoratning birlashuvigina

asl san'at asarini yuzaga keltiradi. Agar rassomning ijodiy fikrlashi uning ruhiy kuchi bo'lsa, rangtasvir texnikasi unga zarur texnik qurol bo'lib xizmat qiladi va uning rassomchilik yutuqlarining amaliy negizini tashkil qiladi"³.

Tasviriyy san'atning har bir turi o'ziga xos kompozitsion uslublarga ega. Masalan, kitob bezagi, mahobatli rangtasvir devoriy kompozitsiyasidan farq qiladi. Shuningdek, kompozitsiyani idrok qilish ham turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, haykaltaroshlik asarlaridan *relyefni* faqat old tomondan ko'rish mumkin. Aksincha, monumental haykaltaroshlik yodgorliklarni esa aylanib tomosha qilish lozim. Haykaltarosh asar yaratayotganda kompozitsiya qonunlarini e'tiborga olishi kerak. Tasviriyy san'atda ko'p shakl (figura)li kartina va haykallar ham kompozitsiya asosida quriladi.

Me'morlikda - kompozitsiya bino (inshoot va majmualari)ning tuzilishi, vazifasi va g'oyaviy badiiy jihatlari birligi va shaharsozlikdagi o'rnini ta'minlashdan iborat; kompozitsiya butun bir shahar yoki me'moriy ansambl, alohida bino yoki inshootning tashqi qiyofasi bilan ichki xonalari, tuzilishi bilan bezaklari, ranggi, loyihasi va qurilishini aniqlaydi, atrof-muhit bilan uyg'unlashishi me'moriy kompozitsiyaga kiradi. Bu esa me'mordan katta mahoratni talab etadi. (6 - *rasm*).

Adabiyotda kompozitsiya — asarni badiiy shakllantirishga xizmat qiladigan turli qismlarning holati, o'zaro bog'liqligi, voqea, xarakter-obrazlar, lirik chekinishlar, tafsilotlar bayoni va shu kabi ma'lum maqsadga bo'ysundiriladi. Asar kompozitsiyasining yaxlitligi uning asosiy shartidir. Ortiqcha personaj, epizod va detallar asar qimmatini pasaytiradi. Shuning uchun ham badiiy asarda hech qanday yetishmovchilik ham, ortiqchalik ham bo'lmasligi kerak. Kompozitsiyaning o'ziga xosligi syujet qiyofalarining qanday tartib bilan joylashtirilishiga, syujetdan tashqari shakllar

³ Б.В.Иогансон. Живопись.

(lirik, falsafiy - publitsistik chekinishlar, qo'shimcha epizodlar)ning bor - yo'qligiga, peyzaj, portret, psixologik tasvir, muallif tavsifi kabi vositalarning meyorlari va tartibiga bog'liq. Kompozitsiya yaratish usuli va uslublari turli - tuman. Qadimdan kompozitsiyani asar g'oyasi bilan uzviy bog'liq holda tushunib kelingan. Kompozitsiya asarning shunchaki tuzilishi emas, balki shu tuzilishning maqsadi, uning nima asosida tuzilganligidir. Kompozitsiya asar g'oyasi va mazmuniga bog'liq. Tanlangan obraz yoki voqea asarga kiritish uchun muvofiqmi yoki yo'qmi - buni faqat yozuvchi aytmoqchi bo'lgan gapga nisbatan aniqlash mumkin. Bu ham kompozitsiyaning muhim bir tomoni. Kompozitsiya shu jihatidan bilan asarda mazmunning qay darajada mazmundorligini ko'rsatuvchi muhim omillardan hisoblanadi.

Musiqada - 1) musiqa asarining tuzilishi (*Musiqa shakli*); 2) *kompozitor* ijodining mahsuli, tugal musiqa asari; 3) ko'p obrazli musiqa asarlarini yaratish jarayoni, badiiy ijod turi; 4) konservatoriya va boshqa musiqa o'quv yurtlarida o'qitiladigan tarixiy - nazariy va amaliy fan. Musiqiy mavzularni yaratish tamoyillari, ularni rivojlantirishda ko'p ovozli musiqa vositalaridan unumli foydalanish yo'llari, muayyan musiqa janri, tur va uslublarning xususiyatlari, asarlar tuzilishi va tugal shaklga keltirilishi qonun - qoidalari kabi ma'lumotlardan iborat.

Mahobatli rangtasvir asari esa jamoa binolarining omma ko'zi tushadigan, arxitektura obrazini ochib bera oladigan devorga mavzu asosida mahobatli rangtasvir kompozitsiyasining texnika va texnologiyasiga amal qilgan holda bajariladi.

Rangtasvirda tomoshabinni to'lqinlantiradigan va diqqat e'tiborini qaratish uchun rassom kuchli va ifodali tasvir vositalaridan foydalanadi. Har qanday asar kompozitsiyasi tuzilishida tasvirni va shaklni ifodali ko'rsatishga harakat

qiladi. Keraksiz narsalar olib tashlanadi, faqat eng keraklilari qoldirilib, ikkinchi darajalilari birinchi darajali qismlariga bo'ysundiriladi. Kompozitsiya obrazli shakl va rang tuzilishida tasvirlanayotgan narsaning ichki mazmuni quvonch va hayajon uyg'otishi kerak. Shuning uchun kompozitsiyaning hamma elementlari, har xil vositalari: o'lchami, tekislik, yoritilish xarakteri, kompozitsiya markazining o'rni va boshqalardan foydalanib bajariladi va asarning zavqli chiqishiga ta'sir qiladi. (7,8 – *rasmga qarang*).

Kompozitsiya tuzilishi badiiy asar oldiga qo'yilgan g'oyaga, vazifaga bog'liq bo'lib o'zgarib turadi. Asarning kompozitsiya tuzilish xarakteri mazmun va g'oyadan kelib chiqadi.

Rassom o'z ijodiy kompozitsiya tuzilishida tabiat qonunlari va tomoshabinning idrok qilish xususiyatlarini ham hisobga oladi. Tasvirda simmetriya, assimetriya, tenglik va ritm, kolorit, kompozitsiya markazi tuzilishining maqsadga muvofiqligi, shaklning xilma - xilligi, ranglar yaxlitligi, ko'rish nuqtasi, nisbat, o'lcham va hajmi kabi kompozitsiya elementlarini rassom o'z kompozitsiyasida g'oya va fikrga birlashtiradi. Bularni Rafaelning "Afina maktabi" va Surikovning "Boyar ayol" kartinasida ko'rishimiz mumkin. (7,8 - *rasmlar*).

Tayanch iboralar: san'at, realizm, rassom, tasvir, realizm, kompozitsiya, ko'rgazma, tasvir, realizm, fan.

Savollar

1. «Kompozitsiya» so'zi nima?
2. *Kompozitsiya fani nimani o'rgatadi?*
3. *Binolarni kompleks obrazini yaratishda nima yordam beradi?*
4. *Kompozitsiya fanining vazifasi nima?*

5. *Ibtidoiy davrda san'atga qanday qarashgan?*
6. *Kompozitsiya fani kimga yordam beradi?*
7. *Kompozitsiya fanining asosiy maqsadi nima?*

1.6. Kompozitsiya fanining maqsad va vazifalari

Kompozitsiya fanining asosiy maqsadi tekislikda rangtasvir asari orqali kompleks obrazni yaratishda turli shakl va qiyofalar yordamida tasvirlashda badiiy obrazli va ijodiy fikrlashni shakllantirish, hayotdagi go'zallikni, yangilikni, ilg'orlikni ko'ra bilishni tarbiyalashdan iborat.

Tasviriy san'atda "Kompozitsiya" fani malakali mutaxassis rangtasvirchi rassom tayyorlash, uning kasbiy xususiyatlarni rivojlantirib iqtidorli, ijodkor rassom ko'nikmalarini o'zida namoyon qiluvchi va o'z yo'nalishini topishda, badiiy asar kompozitsion qurilishini o'rgatuvchi fan sifatida katta o'ringa ega.

Kompozitsiyani o'rganishdan maqsad – dastgohli rangtasvir kompozitsiyasini yaratishda turli usul, qoidalaridan foydalanish yo'llarini o'rganishdan iboratdir.

Kompozitsiya orqali badiiy dastgohli rangtasvir asari yoki devoriy rasm turlarida binolarni bezash uchun mukammal kompozitsiya yaratish qonun qoidalarini, vositalarini o'rganishni o'z ichiga oladi.

Bo'lg'usi ijodkor mutaxassislar tasviriy san'atning realistik maktab an'analarini o'rganish, saqlash hamda rivojlantirishda hozirgi zamon tasviriy san'atining yangi turlarini o'rganish, yaratilgan asarlarni badiiy ta'sirchanligini anglash, his etish va uning badiiy g'oyasini oshirish, rivojlantirish yo'nalishlarini belgilab olish bo'yicha nazariy-amaliy bilimlarini shakllantirishdan iboratdir.

Fanning vazifasi - obrazga mos rangtasvir yaratishda mavzu va g'oya uyg'unligida qiyofa, shakllarni, elementlarni

hisobga olgan holda kompozitsiya ishlash ko'nikmasini shakllantirishdan iboratdir.

Rassom ijod etayotgandagina, bevosita san'at asarlari yaratayotgandagina san'atkor bo'lib qolmay, balki san'at asarlarini idrok etayotganida ham ijodkor ekanligini unutmasligi lozim. Buning uchun esa fikr, g'oyani qandaydir tartibda ifodalash, tasvirlash qoidalariga kompozitsiya fani katta yordam beradi. Shuning uchun qo'llanmada kompozitsiya asosi, vositalari, kompozitsiya elementlaridan simmetriya, assimetriya, kontrastlar, format, kompozitsiyada shakllar masshtabi va boshqalar haqida bayon qilishga, shuningdek, dastgohli rangtasvir kompozitsiyasining vazifasi, kompozitsiyaning ahamiyati haqida tushuncha berish asosiy vazifa hisoblanadi.

Kompozitsiya fanining asosiy maqsadi yosh rassomni obrazli va ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish, hayotdagi go'zallikni, yangilikni, ilg'orlikni ko'ra bilishni tarbiyalash va o'z asarlari ustida ishlash jarayonida keng foydalanishdan iboratdir.

II BOB. DASTGOHLI RANGTASVIR JANRLARI

Janr deganda, odatda, badiiy asarning ma'lum turi tushuniladi. Rangtasvir san'atida turli - tuman janrlar mavjud bo'lib, ularning bir-biridan farqi mazmun yoki tasvirlash uslubida ko'rinadi. Tasviriy san'atning asosiy janrlari quyidagilardan iborat: tarixiy, jang manzaralarini tasvirlaydigan, maishiy, manzara, portret va hokazolar⁴.

2.1. Tarixiy janr

Rangtasvir san'ati, haykaltaroshlik va grafikada tarixiy janr predmeti tarixiy voqealardir. U mustaqil janr sifatida Uyg'onish davrida vujudga kelib, XIX asr rus san'atida keng rivojlangan.

Rus san'atida bu janrning ko'zga ko'ringan namoyandalaridan biri V. Surikov edi. U vatanparvarlik ruhi bilan sug'orilgan qator ajoyib asarlar yaratdi. «O'qchilar qatl etilgan tong» surati shular jumlasidandir. Bu asarda rassom xalq ommasini, kuchga, jasoratga to'la, jo'shqin, isyonkor qalbli kishilarni tasvirlagan. Rassom asarda tarixiy shaxs Pyotr I obrazini ham ko'rsatdi. Surikovning boshqa asarlarida ham rus xalqining o'tmishi va Yermak, Razin, Suvorov kabi tarixiy shaxslar o'z badiiy ifodasini topgan. Uning «Boyarina Morozova», «Yermakning Sibirni zabt etishi» asarlarida xalq bilan davlat o'rtasidagi fojiali qarama-qarshiliklar aks ettirilgan. Rassomning tarixiy janrda ilgari surgan asosiy maqsadi xalqning tarixiy shaxslar bilan bog'liqligini ko'rsatish edi. Bu haqda u shunday degan edi: «Men tarixiy

⁴ Энциклопедический словарь художника. Москва, «Педагогика» 1983.

shaxslarni xalqsiz, ommasiz tasavvur etolmayman, men ularni albatta ko‘chaga olib chiqishim lozim». (9 – *rasmga qarang*).

2.2. Jang manzaralarini aks ettiruvchi janr

Jang manzaralarini aks ettiruvchi janr o‘z tematikasi jihatidan tarixiy janrga yaqin turadi. Buning sababi shundaki, jang manzaralarini ko‘rsatuvchi bu janr faqat urush voqealarini aks ettiribgina qolmay, jang bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan tarixiy voqealarni ham ko‘rsatadi. Shuning uchun ham urush manzaralarini aks ettiruvchi janr tarixiy janrning bir qismi deb qaralishi mumkin.

Rus soldatlarining vatanparvarligi, fidokorligi, mardligini V.Surikov o‘zining «Suvorovning Alpdan oshib o‘tishi» suratida aks ettirgan. Bu suratda rassom Suvorovning harbiy san’atini katta mahorat bilan tasvirlagan.

Tarixiy - harbiy janr (jang manzaralarini ko‘rsatuvchi janr) ning rivojlanishiga V.Vereshchagin katta hissa qo‘shdi. U urush va uning oqibatlarini haqqoniy ravishda ko‘rsatib berdi. Bosqinchilik urushlariga qarshi chiqdi. U urushlarda bevosita qatnashgan, rus soldatining jasorati va insonparvarligini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan. Rassom urushga bo‘lgan munosabatini «Turkiston urushi», «Hindiston urushi», «Bolg‘on urushi», «1812 yil» nomli kartinalar seriyasida ifodalagan. Shuningdek, A.Aliqulovning ijodida ham ko‘rishimiz mumkin. (10 - *rasm*).

Jang manzaralarini ko‘rsatuvchi janrga sobiq sovet davrida B.Grekov asos soldi. Uning «Birinchi Otliqlar Armiyasining trubachilari», «Tachanka» kabi suratlari ana shular jumlasidandir. Tachankalarning mohirona tasvirlangan shiddatli atakasida g‘alabaga bo‘lgan ishonch va iroda, Qizil Armiya hujumining revolyutsion pafosi ifodalangan. Rassom o‘zining

boshqa asarlarida Janubiy frontda harakat qilgan Birinchi O'tliqlar Armiyasining tarixiy janglarini aks ettirgan.

2.3. Maishiy janr

Maishiy janr haqida gapirilar ekan, rassom yashayotgan davr voqealarini ifodalovchi tasviriyl san'atning bu janri qadim zamonlarda paydo bo'lgani va u sayyor rassomlar ijodidagina kamol topganini alohida ta'kidlab o'tish lozim. O'tgan asrning demokrat rassomlari o'z asarlarida xalq hayotini astoydil, haqqoniy tasvirladilar.

Bunga I.Repinning «Yangi kuyovni kuzatish», V.Makovskiyning «Bulvarda», V.Perovning «Uchovlon» va boshqa suratlari xarakterli misol bo'la oladi.

O'zbek rassomlarida R.Axmedov, M.Saidov, N.Shin kabilar ham maishiy janrda asarlar yaratganlar. (11, b, v – rasmlarga qarang).

Yoshlarning kundalik hayoti, mehnati, o'qishi tasviriyl san'at maishiy janrining bir qator asarlarida o'z aksini topdi. Maishiy janrga B.Iogansonning «Rabfak kelmoqda», F.Reshetnikovning «Kanikulga keldi» suratlari va boshqa asarlar ham mansubdir.

2.4. Manzara janri

Janrlar ichida eng qadimiysi peyzajdir, u tabiatni aks ettiruvchi tasviriyl san'at asaridir. Qadimiy Xitoy san'atida rassomlar tabiatni aks ettiruvchi asarlar yaratganlar. Yevropada peyzaj XVI—XVII asrlarda taraqqiy etdi.

XIX asrning ikkinchi yarmidagi rus realistik san'atida peyzaj janri beqiyos o'sdi. Peyzaj janridagi novatorlardan biri A.Savrasovdir («Qora qarg'alar uchib kelishdi»).

F.Vasilyev («Iliq havo»), I.Levitan («Oltin kuz»), Savrasov boshlab bergan ishni mustahkamladilar va yangi bosqichga ko'tardilar.

XX asrda o'zbek rassomlaridan O'.Tansiqboyev, N.Qo'ziboyev, A.Mirsoatovlar, R.Xudayberganov manzara janrida ijod qildilar. (12a,b – rasmga qarang).

2.5. Natyurmort janri

Natyurmort (lug'aviy ma'nosi: jonsiz tabiat) haqida gapirganda, odatda, mevalar, gullar, otilgan ilvasinlar, uy-ro'zg'or buyumlarining tasvirini ko'zda tutadilar. Lekin natyurmortda «jonsiz tabiat» tasvirlanganiga qaramay, matoda jonli) hayot pafosini sezamiz.

Biz yuqorida ko'rib chiqqan rangtasvir san'ati asarlari rassomning ulkan va murakkab ijodining samarasidir.

Bu asarlarda hech qanday tasodif yo'q. Aynan asarlarda hamma narsa ham muhim rol o'ynaydi: asardagi ayrim elementlarning matoda joylashuvi ham, kichik rasmlar ham, ranglar, ritmlar ham - rangtasvir san'atining hamma ifoda vositalari orqali rassom o'z o'y - fikrlarini aniq va ta'sirli qilib yetkazishga qaratgan. (13a,b – rasmga qarang).

Rassom yaratgan asarni chinakamiga anglab, tushunib olishni istar ekanmiz, yuqorida aytilgan barcha vositalarni esdan chiqarmasligimiz, ularni bir - biridan farqlay bilishimiz lozim.

Asarga tikilib, u haqda fikr yuritib, butun badiiy vositalarni o'qib olganimizdan keyingina biz surat ma'nosini chuqur tushunishimiz va uni his etishimiz mumkin.

Masalan, A.Ikromjonovning natyurmort janridagi asarlari bunga misoldir.

2.6. Portret janri

Oldimizda A.Venetsianovning «Zaxarka» surati. Boshiga katta telpak kiyib olgan, kattakon qo‘lqopli bir bola yelkasida bolta ko‘tarib turibdi. Bu mittivoyning chinakam mehnatkashligi butun qiyofasidan ko‘rinib turibdi. Yuzi soddagina, lo‘ppigina, ammo ko‘z boqishlari kattalarday jiddiy, tashvishli. Bularning hammasi mehnatkash bolaning ichki dunyosini ochib beradi.

Portret — inson obrazini yaratish — tasviriy san’atda eng murakkab janr hisoblanadi.

Rangtasvir san’atida, haykaltaroshlik va grafika janrlarida inson chehrasi - portret tasviri asosiy o‘rin egallaydi. (*14a,b – rasmga qarang*).

Tasviriy san’at tarixiga nazar tashlasak shu narsa ma’lum bo‘ladiki, rangtasvir san’at turlaridan bo‘lgan miniatyuralarda ham rassomlar inson qiyofasini - portretini yaratishga ham katta e’tibor berganlar.

XIV asrda yaratilgan «Ugedey Kaan va xotini Turkon - Xotun» va «Xulachuxon va xotini portreti»ni olaylik. Yassi fonda mo‘g‘ullar odaticha to‘shalgan to‘shaklarda personajlar qator o‘rnashgan, ular miniatyuraning bir fazosini egallagan va go‘yo «ideal» hukmdor va malikaning oliy darajali ekanligidan guvohlik beradi. Kishilar gavdasining harakatchanligi kiyimlaridagi nozik gullar ochib turibdi.

Bu tasvirlarda katta o‘xshatishga va psixologik holatini berishga unchalik intilish bo‘lmagan bo‘lsa ham, ranglar orqali ochib berishga harakat qilingan.

Tasviriy san’atning barcha turlari va janrlari qaysidir ma’noda inson hayoti haqida hikoya qiladi. San’atda har doim inson asosiy o‘rinda bo‘lib, uning tashqi ko‘rinishi, murakkab ichki dunyosi, xarakteri, ruhiyati, hissiyoti va shuningdek har xil xarakterdagi tomonlari haqida hikoya qilinadi.

O'zbek rassomlaridan Chingiz Axmarov, Abdulxaq Abdullayev, Rahim Axmedov portret asarlarida ranglar uyg'unligini, ranglarni yorqinligini va rang-barangligini ko'ramiz. Ranglarni inson xarakteriga va ruhiyatiga mosligini sezish qiyin emas. (15-rasm).

Portretchi – rassom oldida inson xarakterini va murakkab ruhiy holatini ochib berish vazifasi turadi. Shuning uchun rassomdan juda kuzatuvchanlikni talab qiladi. Har bir insonni boshqalarga o'xshamagan tomonlarini, uning yuzida o'ziga xos tuzilishlarini ilg'ab olishi va aks ettirilayotgan shaxsning jinsi, yoshi, kasbi va millati kabi jihatlariga ham asosiy e'tibor qaratiladi.

Leonardo da Vinchining «Jakonda» («Monna Liza») portretini olaylik. Biz bu asarda ayolning sirli bir holatini mayin ranglarda ochib berganini ko'ramiz. Portretdagi tasvirlanuvchining o'xshashligini amalga oshirishga va ichki holatini badiiy obrazda ochib berishga harakat qilingan.

Yevropalik rassomlardan O.Kiprenskiy, Rembrand, Dyurer, Kranax, Van Gog kabi rassomlar yaratgan portretlarda kompozitsiya, xarakter va ranglar uyg'unligini ko'rish mumkin. Inson obrazini, xarakterini ochib berishda rassomlar har xil uslublardan foydalanganligini ko'ramiz. (16 - rasm).

XIX asr rus rassomlari o'z zamondoshlarining chuqur psixologizm bilan sug'orilgan portretlarini yaratdilar. I.Kramskoy ishlagan «L.Tolstoy», I. Repin ishlagan «Mussorgskiy» portretlari shular jumlasidandir. Portretchi – rassomlardan A.Gerasimov, V.Oreshnikov va boshqalar kishilarning gumanizm g'oyalari bilan sug'orilgan ajoyib portretlarini yaratdilar.

Rossiyalik rassom V.Serov biron bir insonning portretini yaxshilab o'rganmasdan, uning o'ziga xos o'tirishi va harakatini topmasdan ish boshlamagan. U portretini

ishlamoqchi bo'lgan kishini u yoq – bu yoqqa yurishini kuzatgan, uzoq suhbatlashgan. V.Serovning bu odatlaridan portretini ishlatmoqchi bo'lgan ba'zi kishilar xafa bo'lib, jahli chiqqan paytlari ham bo'lgan.

Portret ishlashda insonning individual xarakterli tomonlaridan tashqari, uning kasbi va tevarak - muhit ta'siri ham katta ahamiyatga egadir.

Ko'p rassomlar portret yaratish ustida ishlashadi. Ammo ba'zilar inson xarakterining bir tomonini ko'rsatishsa, ba'zilari zamondoshlarining umumlashtirilgan obrazini yaratadilar.

Haqiqiy portretchi – rassom esa, bir inson qiyofasi orqali bir necha kishining ayrim xususiyatlarini aks ettirib, hayotni atroflicha o'rganib, o'z tasavvuri bilan boyitib portret yaratadi.

V.Serov “Vera Mamontova portreti”da faqat uning betakror yuz bichimidan tashqari, boshqa yosh qizlarga xos umumiy tomonlarini ham ko'rsatgan. Rassom yoshlikning go'zalligini va shoirona, lirik ehtiroslik xususiyatlarini o'z tasavvuri bo'yicha ko'rsata olgan. Shuning uchun ham bu portret har bir tomoshabin qalbida iz qoldiradi.

Rassom portret ishlashda insonning xarakter – xususiyatlarini aniq va tushunarli qilib ochib bera oladigan kompozitsiya topishi kerak:

1. Tomoshabinni insonning yuziga va bosh qismiga diqqatini tortishi kerak. Portretida asosiy qism - bu yuz va chehrasidir. Yuz orqali insonning ichki dunyosini aks ettirish mumkin bo'ladi. Chehrasi orqali uning xarakterini to'la va yorqin aks ettirishni izlash kerak. Shuning uchun ham yuz bichimi diqqatni tortishi va qolgan ikkinchi darajali qismlari asosiy qismini ochib berishga yordam berishi kerak.

Tasvirlanayotgan kishining xarakterini ochib berishda uning ko'zi va labi katta ahamiyatga ega. Bular uning ichki dunyosini aks ettirishda asosiy kalitdir. Ko'zni tasvirlashda

rus rassomlaridan Rokotov, Levitskiy, Bryullov, Repin, Serov kabilar katta muvaffaqiyatga erishganlar.

Portretida insonning qo‘l panjasi tasviri ham katta ahamiyatga egadir. Qo‘l orqali uning kasbini, sog‘lig‘ini, xarakter xususiyatlarini anglab olish mumkin. Rassomlik kasbiga xos qo‘l xarakteri Bryullovning «Avtoportretida» ajoyib ishlangan.

2. Bosh harakati, burilishi yoki egilishi, yuz mimikasi, gavdaning holati inson xarakterini ochib berishi kerak. Odam o‘ziga xos tabiiy holatida, harakatda tasvirlanishi kerak. Bular hammasi kompozitsiya tuzilishining asosi hisoblanadi. Portretchi – rassom uchun odamning xarakterli holatini, kayfiyatini, unga xos tomonlarini ta’kidlash muhim vazifadir. Gavda holati, imo - ishora va qo‘l harakati ham inson xarakterini ochib berishda muhim rol o‘ynaydi. V.Serovning «Yermolova portreti»da gavda holati bunga yorqin misoldir⁵.

Portret ishlashda libos tanlash ham katta e’tiborga ega. Kishining kasbi, mavqeini libos orqali ko‘rsatish shakl haqidagi tasavvurni yanada boyitadi.

3. Portretni ifodali aks ettirishda uni o‘rab turgan muhit, ya’ni fon ham muhimdir. Yuqorida aytgan Yermolova portretidagi fonda teatr foyesining devori va ko‘zgusi aks ettirilgan. Bu bilan tasvirlanayotgan odamni teatrga aloqadorligini bilamiz. Fondan foydalanishda imkon darajada kam detallardan foydalanish lozim. Fon tomoshabin diqqatini bo‘lmasligi va chalkashtirmasligi kerak. (17 - rasm).

4. Portretning o‘lchami va hajmi, format ham tasvirlanuvchining badiiy xarakteristikasiga mos keltirilishi kerak. Portret hajmi tasvirlanuvchining gavda holatiga bog‘liq.

Portret hajmi (formati) ko‘p hollarda vertikal to‘g‘ri burchaklidir, ayrim paytlarda kvadrat yoki gorizontal bo‘lishi mumkin.

⁵ Серов. Москва “Искусство” 1974.

Portretda tasvirlanuvchini haqiqiy o'lchamidan katta qilib tasvirlash yaxshi emas. Har qanday tasviriy kartina ma'lum masofadan turib qaraladi.

Agar portret to'g'ri o'lchamda tasvirlangan bo'lsa, tabiiyki kartina masofadan qaralganda portret o'z haqiqiy o'lchamida ko'rinadi.

Shuning uchun odam boshi haqiqiy o'lchamda yoki kichikroq o'lchamda bo'lishi ma'quldir.

Portret san'atida tasvirlanuvchiga o'xshashlik bo'lmasa portret ro'yobga chiqmagan deb hisoblanadi. Portret – avvalo bu hujjatdir. Portretidagi hujjatlilik fotografiyadagi tasodifiy hujjatlilikdan katta farq qiladi.

Portret san'atida esa odam xarakter xususiyatlari aks ettiriladi. Bu inson fe'l-atvorini, yuz bichimini umumlashtirish natijasida hosil bo'ladi.

Formalistik oqimdagi nafis tasviriy san'atchilar portretida real shaxs emas, balki odam haqidagi rassomning shaxsiy tasavvuri muhim deb hisoblaydilar. Buning bilan san'atda inson ichki dunyosi pala - partish tasvirini oqlashga urinadilar. Ular portretida yorqin, dekorativ sovuq ranglar ko'zga tashlanadi. Ko'z tasvirida qalb ko'zgusi aksi emas, balki boshning elementi kabi tasvirleydilar. Portretida inson ruhiyati, hissiyoti va fikri aks ettirilmaydi.

Portretning asosiy talablaridan biri, tasvirlanayotgan shaxsning o'xshashligidir.

Inson chehrasi ya'ni tashqi ko'rinishi aniq tasvirga ega bo'lishi kerak. Ammo yaxshi portret uchun tashqi o'xshashlik kamlik qilishi mumkin. Haqiqiy portret insonning ichki ruhiy holatini, ichki dunyosini ham ochib berishi kerak. Mahoratli portretchi - rassom ko'zi inson chehrasidagi lab holatini, ko'z nigohi, holatini, harakatini, yurish harakatini, o'tirish, kiyinish va umuman har bir shaxsga xos bo'lgan tomonlarini ziyraklik bilan ilg'ab, uni ustalik bilan tasvirley oladi.

Portret o'zida har xil ma'noga ega bo'lgan tomonlarni qamrab olishi mumkin. Rassom inson chehrasini uning yaxshi tomonlarini va o'zi yaxshi ko'rgan xususiyatlarini ochib berib tasvirlashi mumkin.

Portretda insonning ruhiy holatidan tashqari uni qaysi tabaqaga xosligini ham ko'rsatadi, ya'ni badavlatligi, kambag'alligi, uning kasbi - kori, jamiyatda tutgan o'rni ham rassom nazaridan qochmasligi muhimdir.

Tasvirlanayotgan shaxsning individualligi kompozitsiya tizimiga, portret o'lchami va tekislikning formatiga ta'sir qiladi. Portret ko'krakkacha, beligacha, tizzagacha, bir qiyofali, ko'p qiyofali va avtoportret ko'rinishida bo'lishi mumkin.

Inson xarakteri o'tirishida, harakatida va bosh holati, shuningdek qo'l harakatlari orqali ko'rsatilishi mumkin. Portret ishlayotgan rassom har doim tasvirlanayotgan shaxsning o'ziga xos tomonlariga e'tibor berishi kerak. Inson chehrasi va harakati individual bo'lib, har bir shaxsga xosdir. Portretda aniq bir shaxsning chehrasi orqali unga xos bo'lgan xarakter, shu davr, uning ruhiy kechinmalari, izlanishlari, inson orzusi va boshqalar bilan rassomning fikri, uning shu insonga bo'lgan munosabati ham aks ettiriladi.

Tayanch iboralar: janr, tarixiy, jang, manzara, maishiy, peyzaj, portret, san'at, tasvir, realizm, kompozitsiya.

Savollar

- 1. Nima uchun dastgohli rangtasvir deyiladi?*
- 2. Janr qaysilar?*
- 3. Nima uchun tarixiy janr deyiladi?*
- 4. Nima uchun maishiy janr deyiladi?*
- 5. Nima uchun portret janri deyiladi?*

6. *Nima uchun manzara janri deyiladi?*
7. *Nima uchun jang janri deyiladi?*
8. *Natyurmort janrida nimalar aks ettiriladi?*
9. *San'atda portret nima?*

III BOB. KOMPOZITSIYA QOIDALARI, USULLARI VA VOSITALARI

3.1. Kompozitsiyada ritm (vazn)

Hayotda **ritm** har xil ko‘rinishda ko‘p uchraydi. Fasllar almashuvi ham ritm. Odamlar harakati, hulqi, yurish - turishi, bir-biri bilan gaplashishi orqali bo‘layotgan voqeaning ma‘nosini aniqlash mumkin. Vokzalda kelayotgan, ketayotgan, o‘tirgan kishilar harakatida har xil ritmni kuzatish mumkin. Tabiatda daraxtlar shakli ham ma‘lum darajada ritmik ko‘rinishdadir. Rangtasvirda ritm tasvirning ayrim elementlari takrorlanishi ko‘rinishida bo‘ladi. Shuningdek masshtablari nisbatida, yorug‘lik va ranglar joylashuvida, qo‘l harakatlarida kuzatish mumkin.

Ritm tuzilishi kartina tekisligida ham, bo‘shliqda shakllarning joylashuvida ham amalga oshiriladi. Ritm kartina mazmuni bilan bog‘liq va g‘oyaga bo‘ysundiriladi. Ritm tomoshabinning diqqatini muhim elementlarga qaratib, tasvir ravshanligini, ifodaliligini kuchaytiradi. (18–rasmga qarang). Tasviriyy san’atda va hayotda ritm zaruriy jihat hisoblanadi. U takrorlanib turuvchi katta yoki kichik elementlar ma‘lum masofada va davriy takrorlanishi bilan xarakterlidir. Agar simmetriyada elementlar muvozanati tinch, turg‘un holat ko‘rinishida bo‘lsa, ritmda esa harakat cheksiz davom etishi mumkin.

Ritm tabiatda, har xil hayotiy voqealarda kompozitsion tuzilishda o‘z aksini topgan. Masalan, kristall qirralari, dengiz to‘lqinlari, yil fasllarining takrorlanishi, o‘simlik dunyosi, nafas olish, yurak urishi va va boshqa ko‘rinishlar ritmiy

takrorni anglatadi. Ammo ritm hayotda va san'atda bir xilda emas. San'atdagi ritm kompozitsiyaning asosiy vositalaridan biri bo'lib, u badiiy ijodning asoslaridan biri hisoblanadi.

Ritm - kompozitsiyada faqat tashkil etuvchi, mujassamlashtiruvchi bo'libgina qolmay, balki badiiy didning ham boshlanishidir. U orqali badiiy asar shoirona, musiqiy qilib yaratilishi mumkin. Shuningdek, ritm kompozitsiyada estetik va tashkiliy rol vazifasini bajaradi. Kompozitsiya qonunlari tus va ranglar kontrastiga asoslanadi. Tus va ranglar kontrasti tasvirni masofadan idrok etishni ta'minlaydi. Tus va ranglar kontrasti sezilarli darajada bo'lmasa bo'shliqdagi shakllar (uzoqda yoki yaqinda) hajmi yoki joylashuvini deyarli idrok qilib bo'lmaydi. Ana shuning uchun ham kompozitsiya eskizida asosiy kontrastlarni aniqlab olish lozim. Aniq topilgan ritm orqali asarni yaxshi shakllantirish mumkin.

Ritm har doim san'atning hamma turlarida mavjud. Qadimgi Sharq mamlakatlari kompozitsiyasida ritm tasvir shakllarining takrorlanishi ko'rinishida bajarilib kelingan. Masalan, miniatyura kompozitsiyasi tuzilishi ritm asosida bajarilgan. Shuningdek, o'simlik shaklidan tuzilgan naqshlar ham ritm orqali ishlanganligini ko'ramiz.

Kartinada ritm obrazli geometriyaning bo'limi sifatida ko'rib chiqiladi. Rangtasvirda ritm tushunchasi ikki o'lchamli kartinada ishlatilishi uchraydi. Chiziqli ritm bir yo'nalishdagi katta - kichik shakllarning terilib joylashtiruvidir. Dinamik ritm prujina kabi bir qismida energiya hosil qilsa, ikkinchi qismida biroz tinch holatni namoyon qiladi. (Djotto "Konchina cv. Fransiska" v kapelle Berdi").

Leonardoning "Sirli oqshom" freskasida qiyofalar tuzilishida metrik joylashgan. Bir qator qo'yilgan uchlik qomatlar to'rt gruppani tashkil qiladi. Ikki chetdagi guruhlar o'rtasida Xristos qo'lini yoygan, hayron holatda tasvirlangan. Ikki chetdagi guruhlar oralari biroz ochiq, o'zlaricha

o‘ylangan guruhlar kompozitsiyasidir. Qiyofalar ritm asosida to‘lqinlangandir. Kartinada ritm murakkabligi shundaki, u bir chiziq bo‘lib qolmay, balki guruhlik tuzilishida hamdir. Chiziqli ritm kiyimlar burmalarida ham mavjud. Ularning yo‘nalishi va to‘lqinlanishi ko‘rinishida hosil bo‘ladi.

Burmalar inson holati harakatini ko‘rsatadi. Botichelli-ning “Bahor” kartinasida vertikal yo‘nalishdagi kiyim burmalari ham ritmik holatdir. Uch ayol qomatidagi kiyimlar qat - qat taxlari butun kartinani yengil egallab olgan. Bularga kontrast qilib mayda gul va yaproq bezaklar aks ettirilgan. Chiziqlar ritmi qatorida kartina tekisligini qamrab olgan rang ritmi ham mavjud. Rassom mo‘yqalami harakati, ranglar tusi ritmni hosil qiladi. Misol uchun Sezan asaridagi shtrixlar yorqin namunadir.

XIX asr rus san’atida kartina yuzasida ritmdan foydalanib asar yaratganlarini ko‘rish mumkin.

K.Bryullovning «Pompeyning so‘nggi kuni» kartinasida yorug‘ va qora dog‘larning takrorlanishida, ritm hosil qilib, asarni yaxlit ko‘rishga imkon yaratadi. A.Kuinjining manzaralari klassik ritmga misoldir. V.Surikovning «Boyar ayol Morozova». Rafaelning «Afina maktabi» asarida birinchi plandan qomatlar ritm asosida uzoqlashgan sari kichrayib borishi kuchli dinamik harakat hosil qiladi. Bunga oq va qora dog‘lar chap va o‘ng tomondan takrorlanib borishi orqali erishilgan.

Tayanch iboralar: ritm, san’at, tasvir, realizm, kompozitsiya, kontrast, tus, qonun, K.Bryullov.

Savollar

- 1. Ritm nima?*
- 2. Ritmni nimada ko‘rish mumkin?*
- 3. Simmetriya nima?*

4. *Muvozanat nima?*
5. *Kompozitsiya qonunlari nima?*
6. *Ritm qayerlarda uchraydi?*

3.2. Syujetli kompozitsiya markazi

Kartinada hamma narsa asosiy fikrga va g'oyaga qaratilishi kerak. Kompozitsiya yaxlitligi uchun ikkinchi darajali narsalar birinchi darajali narsalarga bog'liq bo'lib, butun tasvirni yagona maqsadga birlashtirishi zarur. Ikkinchi darajali narsalar ortiqcha diqqatni tortib ko'zga tashlanmasligi lozim. Muhim deb hisoblangan asosiy qism ajratilib tasvirlanadi. Agar kartinada shakllar bir xil ahamiyatli bo'lib pala-partish tartibda joylashtirilsa, kompozitsiya o'z ifodaliligini, ahamiyatini yo'qotadi.

Asosiy natura tasvirini, qiyofani kartinada yaxshiroq joyda diqqat bilan tasvirlash muhim. Asosiy harakat, voqea kartina tekisligining markaziga yaqinroq joyda joylashtiriladi. Bu tomoshabinga kartinani ko'rishda uning ma'nosini uzoqdan to'la qamrab olishga imkon beradi. Kompozitsiyada bir necha bir xil ahamiyatga ega markaz kompozitsiya yaxlitligini va birligini biroz buzadi. U tomoshabinni idrok qilishiga imkon bermaydi. (8 – *rasmga qarang*).

Mahobatli rangtasvir rassomi kartinada bir necha markaz qilishi mumkin, ammo u g'oya va fikrni yechimida o'zini oqlay olsa.

Dastgohli rangtasvir kompozitsiyasida muhim qahramonni ajratib tasvirlashda uni markazda joylashtirishdan tashqari bo'yoq qo'yish, rang berish usuli bilan ham amalga oshirish mumkin. Ikkinchi darajali qiyofalar yoki ikkinchi plan shakllarini ishlashda umumlashtiriladi.

Kompozitsiya markazini ajratib ko'rsatishda kartinani tabiiy idrok qilishda nur-soya, qiyofalar kattaligi, ranglar

nisbati va qiyofalar oralig‘i masofasi orqali amalga oshiriladi. Rassom kartinaning muhim qismini rang bilan, tus bilan va detallarga ishlov berish yo‘li bilan amalga oshirishi mumkin.

3.3. Simmetriya

Simmetriya tasviriyl san’atda shakllarning o‘ng va chap tomonlarini bir xillik tuzilishi haqidagi tenglik tushunchasidir. Shuningdek, uni tabiatda ham, har xil san’at turlarida ham kuzatish mumkin. Kompozitsiyada simmetriya hosil qilish uchun uning og‘irlik qismlari, tusi, rangi va shakllarining tengligi xarakterlidir. Bu holatda bir tomoni ikkinchi tomoniga ko‘zgudagi aksidek o‘xshashdir. Simmetrik kompozitsiya aniq markazga ega bo‘ladi. Odatda u kartina tekisligining geometrik markaziga to‘g‘ri keladi. Agar uchrashuv nuqtasi markazdan chetda bo‘lib yoki tasvir diagonal bo‘ylab joylashtirilsa, kompozitsiya dinamik (harakatchan) bo‘ladi va ideal tenglik buziladi. Simmetriya ornamentlar tuzilishida eng ko‘p uchraydi va o‘zgacha go‘zallik kasb etadi. Kompozitsiyada simmetriya, ayniqsa o‘q chizig‘idan o‘tuvchi simmetriya birlashtiruvchi roldir. Kartinani ikki qismga bo‘luvchi o‘q chizig‘ini o‘tkazsak simmetriya chizig‘ini o‘tkazgan bo‘lamiz. Bu chiziq kartinani ikki qismga bo‘lsada, bu holat ko‘zgu simmetriyasi bo‘lmasligi mumkin. Aksincha shakllar, qiyofalar nazarimizda ikki tomonda takrorlanishi mumkin. Bunda ikki tomon shakllar, ranglar, tus holatlari bilan tenglik saqlangan bo‘lishi, geometrik simmetriyani hosil qiladi. Simmetriya kompozitsiyasida ko‘p hollarda markazga intilib umumlashtirilganini ko‘ramiz.

A.Rublyovning “Troitsa” ikonasi simmetriya kuzgudagidek takrorlanmasa-da, qo‘l va o‘tirish, ichki holatlari, ma’no mazmunan markazga qaratilgan. O‘rtadagi va ikki

chetdagi qomatlar markaziy simmetriyadan biroz chetlatilgan. Erkin simmetriya orqasida shakl va mazmun simmetriya bo'lsa-da, asimmetriya kabi qarash mumkin. Ikki tomonni muvozanatini umumlashtirib turuvchi qiyofalar birlashtiruvchi kuchga ega. (19 - *rasm*).

Qadimiy grek rassomlari ham simmetriya qoidalaridan keng foydalanganlar. Eramizdan avvalgi V asr rasmlari, shuningdek antik ko'zadagi rasmlar va Pompey freskalari bunga misol bo'la oladi.

Simmetriya qoidalaridan rassomlar foydalanib, ko'p qomatli kompozitsiyalar yaratganlar.

Italiyada yuqori Uyg'onish davri rassomlari kompozitsiyada katta muvaffaqiyatlarga erishgan. Masalan, Leonardo da Vinchi «Anna bilan Mariya va chaqaloq Xristos» asarida uch qomatni joylashtirishda uchburchakdan foydalangan.

Leonardo da Vinchi «Sirli oqshom» asaridagi kompozitsiya tuzilishini ham simmetriya deyish mumkin.

3.4. Asimmetriya

Rangtasvirda, chizmatasvirda, bezakli pannoda, freskada, buyumlar tasvirida, arxitektura binolarida shakllarni asimmetrik joylashtirishda kartina tekisligini vertikal o'q chizig'i bilan ikki qismga bo'lsak, kompozitsiya buzilmagan holda uning og'irligi, shakllari, tus holati tengligi buzilganday holatni ko'rish mumkin. Asimmetrik kompozitsiyada tenglik harakatini hosil qilishda shakllar oralig'ida bo'shliq pauzalari yordamida amalga oshiriladi. Bunda shakllar bir - biriga yaqinlashadi yoki bir - biridan uzoqlashadi. Tenglik esa katta va kichik shakllarni oq va qoramtir tus, yorqin va bo'g'iq ranglarni qarama - qarshi qo'yish orqali amalga oshiriladi.

Asimmetrik ya'ni markazlashtirilmagan kompozitsiyada tenglik ongli ravishda susaytiriladi yoki umuman bo'lmaydi.

Masalan, fikr - g'oya syujet markazi kompozitsiyaning bir tomoniga yaqin bo'lib, ikkinchi tomon qismida kam shakllar tasvirlanadi. Agar syujet kontrast holatda ochib berilgan bo'lsa, bunda psixologik kontrast, bosh qahramon va bir guruh qiyofalar bir - biridan qandaydir masofada joylashtirilib, tashqaridan qaralganda kompozitsiya bo'linganday asimmetriya holatini hosil qiladi. Umuman ikki qismini bir - biriga qarama - qarshi qo'yilib tenglik hosil qilinib kompozitsiyada mutanosiblik ta'minlanadi.

Kompozitsiyada mutanosiblikni saqlab asimmetriya tuzilishiga rassom K.Bryullovning «Pompeyning oxirgi kuni»ni ko'rsatish mumkin. (18 – rasmga qarang).

Tayanch iboralar: markaz, simmetriya, asimmetriya, ritm, san'at, kompozitsiya, kontrast, tus, Uyg'onish davri, qonun.

Savollar

1. *Simmetriya nima?*
2. *Asimmetriya nima?*
3. *Simmetriyani nimalarda kuzatish mumkin?*
4. *Kompozitsiya markazi nima?*
5. *Asosiy harakat, voqea kartinaning qayeriga joylashtiriladi?*
6. *Simmetriya qayerda ko'p uchraydi?*
7. *Asimmetrik holat nimadan iborat?*
8. *Asimmetriyaning simmetriyadan farqi nimadan iborat?*

3.5. Kontrastlar

Kontrast kompozitsiyaning asosiy qonunlaridan biridir. Gorizontal va vertikal chiziqlar majmuasi kartina tekisligida qiyofa bor ekan, uni hosil qilish uchun fon kerak bo'ladi. Katta

masshtabdagi qiyofaga mayda qiyofa, yassi tekislikka chuqurlik kontrasti, statika va dinamika, bular hammasi kontrast holatlar ko‘rinishidir.

Kontrastlar (zidliklar) tushunchasi hayotimizning deyarli har qadamida uchraydigan hodisa. Bu tushuncha ikki holatning qarama - qarshiligidan ya’ni tun va kunduz, yoz va qish, yaxshi - yomon, katta - kichik, issiq - sovuq, o‘tkir - o‘tmas, yumshoq - qattiq, achchiq - chuchuk, kalta - uzun, kulgi - qayg‘u, oq - qora, qizil va yashil rang va boshqalar har doim yonma - yon bo‘lib kartinada bir butun kontrastlikni hosil qiladi. Ana shu ziddiyatlar asosida tuzilgan naqsh, tasviriy asarda shakllar jozibali, ta’sirchan, esda qolarli bo‘lishi mumkin. Masalan, katta va kichik shakllar, qizil va yashil ranglardan tashkil topgan naqshli kompozitsiyasini tuzib ko‘raylik.

Agar bir xil shaklni turna qator qilib joylashtirib chiqsak ancha zerikarli kompozitsiya hosil bo‘ladi, aksincha bir shaklni yoniga boshqa ikkinchi qarama qarshi turdagi shaklni qo‘yib joylashtirsak albatta qiziqarli kompozitsiya hosil qilishimiz mumkin.

Naqshlarga nazar solsak har xil: kalta va uzun, katta va kichik shakllardan tuzilganligini ko‘rish mumkin. Rang berishda ham och va to‘q, issiq va sovuq ranglar yonma - yonligi naqshning chiroyli chiqishiga yordam berganini ko‘ramiz. (20 – *rasmga qarang*).

Naqsh kompozitsiyasini ishlashda alohida uning elementlariga e’tibor berish muhimdir. Kompozitsiyaning qayerga mo‘ljallanayotgani va uning o‘rni, yaqin yoki uzoqdan ko‘rinishini esdan chiqarmaslik kerak. Ko‘p asrlik tasviriy san’at tarixida kontrast mavzuli asarning turiga qarab har xil ko‘rinishlarda mualliflar tomonidan ishlatilib kelindi. Bu muallifning bilimiga va xarakteriga ham bog‘liqdir.

Rangtasvirda yorug‘ (yorqin) ranglar va quyuq to‘q-qoramtir ranglar kontrastida, shuningdek, obrazlar kontrastida ko‘rish mumkin. Kontrastdan foydalanish – bu kompozitsiyada ichki kurashni hosil qilish, jonlashtirish va qarama – qarshiliklar garmoniyasini hosil qilishdan iborat.

Kontrast har qanday shaklni jonlantiradi, ammo kontrast garmoniya uchun to‘la kafolat bermaydi. Shuning uchun maqsadga erishishda shakl va qiyofalarni kompozitsiyaga bog‘lash, mutanosiblikni hosil qilish, yaqqollik bo‘lishi zarur. Kontrastni kompozitsiyada meyori bilan ishlatilsa asarni muvaffaqiyatli chiqishini kafolatlaydi.

Kontrastdan to‘g‘ri foydalanib yaratilgan asar tomoshabin xotirasida uzoq saqlanib qoladi. Asarning ta’sirli chiqishiga kontrast meyori bilan ishlatilgani ma’qul, aks holda maqsadga erishish natijali bo‘lmaydi. Kompozitsiyada kontrast nyuans bilan uzviy bog‘liqdir. Shakllarning kontrastida ularning nisbati, ya’ni bir - biriga munosabati va boshqa shakllar bilan bog‘lanishi nyuans orqali amalga oshiriladi. Nyuans kontrastga nisbatan aksinchadir, ya’ni yumshatish, nisbatlikni meyorida hal qilishga yordam beruvchi hisoblanadi.

Kartina kompozitsiyasining tuzilishida taqqoslash va kontrastlar muhim rol o‘ynaydi. Kartina tuzilishida katta va kichik, turg‘un va harakatli, yorqin va bo‘g‘iq ranglar, oq va qora tus kabi taqqoslash asar kompozitsiyasi ifodaliligini oshiradi.

Rassom ko‘p qomatli kompozitsiya ustida ishlab asar yaratar ekan, uning ko‘z oldida voqelik holati namoyon bo‘ladi. U voqelikning ma’lum bir ko‘rinishini aks ettirishga harakat qiladi. Bu rassomning imkoniyati chegaralangan, degani emas. Rassom bir voqelikni tasvirlar ekan boshqa voqelikka turtki beradi, undaydi. Rangtasvirchi rassom o‘z kompozitsiyasi haqida o‘ylar ekan, qaysi voqelikni aks

ettirish va qaysi tomonini rivojlantirish haqida aniq tasavvurga ega bo'lishi kerak. Masalan, V.Surikovning «Boyar ayol Morozova» kartinasidagi kulminatsiyasi poytaxtni tark etayotgan boyar ayoli, uning tarafdorlarining kuzatib qolishi bilan bog'liq sahna orqali tasvirlangan. Uning hayoti bilan bog'liq ravishda dinning tarixiy bo'linishi tasvirlangan. Qator turgan kishilarning yuzida aks etgan holatlar, haqiqatan tarixiy bir voqea ekanligini ko'ramiz.

Dramatik harakatning, voqelikning asosi – bu qarama – qarshilik holatidir. Tasviriy san'at kompozitsiyasi asosida qarama - qarshilik, ya'ni kontrastlar yotishi kerak. Rus rassomi Gening mashhur «Pyotr I Petrgofda Alekseyi so'roq qilmoqda» asarida xarakterlar qarama - qarshiligi ko'rsatilgan. A.Ivanovning asarlarida kambag'al va boy kishilarning xarakterlari kontrast qilib ko'rsatilgan. Ular nima haqida gaplashayotganini bilmasakda, qiyofalaridan keskin tortishuv, bahslar bo'layotganini anglash mumkin. Bu qarama - qarshilik bilan butun tarixiy davrning tuganmas kelishmovchiligini ochib bergan. (21 – *rasmga qarang*).

Bunday kontrastlar kartinada rang, shakllar orqali aks ettiriladi. Masalan, Rembrandning «Adashgan o'g'il», Delakruaning «Barrikadada ozodlik», Rubensning «Persey va Andromeda» kabi asarlari kontrast asosiga qurilgan. Rangtasvirning shakl, ritmlarida va kartina bo'yoqlarida kontrastlar katta ahamiyatga ega bo'lib, asarning hayotiy chiqishiga katta yordam beradi⁶.

Rangtasvir – bu san'at insonning ongiga, qalbiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Rassomlar go'zal asarlar yaratar ekan insonni o'ylashga, ruxlanishga, hayojonlanishga, fikrlashga undaydi.

Tayanch iboralar: kontrast, nyuans, markaz, ritm, san'at, kompozitsiya, tus, Uyg'onish davri, Rubens, A.Ivanov, Rembrand, qonun.

⁶ THE STATE Hermitage. Leningrad. Moscow.

Savollar

- 1. Kontrastlar nima?*
- 2. Rangtasvirda kontrastlar qanday?*
- 3. Kontrastlar qayerda ko'p uchraydi?*
- 4. Kontrastdan qanday foydalaniladi?*
- 5. Nyuans nima?*
- 6. Nyuansni kontrastdan farqi nimada?*

3.6. Yaxlitlik

Tabiiyki kompozitsiyada yaxlitlik katta ahamiyatga ega. Qiyofalar, shakllar va ranglar ma'lum bir maqsadga, obrazga bo'ysundiriladi. Dastgohli rangtasvir kompozitsiyasida bo'linmaslik yaxlitlikni tashkil qiladi. Bu holat tomoshabin kartinani o'qishi va rassom fikrini to'g'ri tushunishga yordam beradi. Mukammal yaxlit kompozitsiyada biron bir shakl yoki odam qiyofasini olib tashlash, yoki qo'shish kompozitsiya ma'nosiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuningdek, kompozitsiya o'lchamini o'rinsiz kattalashtirish yoki kichraytirish ham yaxlitlikning buzilishiga, uning badiiyligiga zarar yetkazadi. Bunda shakllar o'z ma'nosini yo'qotishi, ortiqcha bo'shliqlar paydo bo'lishi yoki bo'shliq kichrayib yomon oqibatlariga olib kelishi mumkin. Kompozitsiya yaxlitligiga kartinaning o'lchami ham katta rol o'ynaydi.

Kompozitsiya yaxlitligini buzmay turib biron bir shaklni o'rnini o'zgartirib yoki boshqasiga almashtirib bo'lmaydi. Shuningdek, olib tashlash ham yaxlitlikni buzishi mumkin. Yaxlit kompozitsiya ana shunday talablarga ega. Daraxt tanasi, shoxlari, barglari, tomirlari yaxlit bir ko'rinishi bo'lsa, shoxlarini yoki barglarini olib tashlasak yaxlitlik yo'qoladi va daraxt tushunchasi ham buziladi. U endi oldingi daraxt emas,

u shoxlarsiz, bargsiz daraxtdir. Yaxlitlik tushunchasi ham ana shunga o'xshash farqlarga ega buzilgan kompozitsiyadir.

3.7. Kompozitsiya vositalari

Kompozitsiya vositalari: chiziqlar, shtrix, dog' (tusli va rangli), chiziqli perspektiva, nursoya, rang, havoiiy va rang perspektivasi hisoblanadi.

Dog' (mazok), (tusli va rangli). Bitta kartina tekisligida ikkita bir xil shakl rangli tekislik mazok (dog') bo'lmasligi kerak. Rangli dog' shaklni aniqlab, shakl fakturasini tasvirlashga yordam beradi.

Nursoya. (svetoten). Shaklda olti qismdan iborat yorug'-soya mavjud: yorug'lik, yarimsoya, soya, refleks, blik, shakllardan tushgan soya. Shaklni haqqoniy real tasvirini hosil qilishga asoslanadi.

Tus. Umumiy va alohida farqlari. Umumiy bir shaklni ikkinchi shakldan rang oqimtir yoki qoramtiriligini aniqlash, mahalliy shaklning qismlarini yoritilish darajasini belgilash uchun xizmat qiladi.

Chiziqli perspektiva, havoiiy va rang perspektivalari. Tekislikda har xil chuqurlik va uch o'lchamlilik tasvirini yaratish Uyg'onish davrida geometrik sistema asosida «perspektiva» (chiziqli perspektiva)ni kashf qilindi.

Kartina tekisligida hayotiy muhitni haqqoniy tasvirlash vositalaridan biri perspektivadir. Realistik mavzuli kompozitsiyada tasvirni perspektivasiz amalga oshirish qiyin. Rassomlar allaqachon kartina tekisligida chuqurlik (kenglik) tasvirini hosil qilish vazifasini bajaradilar. Perspektiva vositasida shakllarni, voqealarni makonda joylab kartina chuqurligini hosil qiladilar. Kartina kompozitsiyasining perspektiva qurilishida ko'rish nuqtasi, gorizont chizig'i muhim ahamiyatga ega. (22-rasmga qarang).

Tekislik yuzida uch o'lchamli har qanday tasvirni bajarish hozirda ***perspektiva*** deb ataydilar. Tekislik bo'shlig'ida perspektiva qurilishi ko'pincha arxitektura loyihalarida ishlatilgan. Perspektiva bir nuqtadan turib qaraganimizda hosil bo'lgan binolar chiziqli perspektivasini tushunsak, bundan tashqari havoiiy perspektiva, rang perspektivasi, kartinada esa muhit perspektivasi ham mavjud.

Badiiy obraz ifodaliligi naturaning ifodaliligi bilan aniqlanadi. Shuning uchun rassom naturaning ma'noligini, harakat holatining xarakterli tomonlarini ilg'ab olishni, uning obrazini topishga harakat qiladi. Har bir buyum yoki shakl qaysidir tomonidan ko'proq xarakterli xususiyatga ega bo'ladi. Gorizont chizig'ini va ko'rish nuqtasini tanlashda chapdan yoki o'ngdan, yaqin yoki uzoqdan qarab naturani ifodali, xarakterli tomonidan tasvirlashga harakat qilinadi. Qarash burchagi va qarash nuqtasi kartina kompozitsiyasi tuzilishida muhim element hisoblanadi. Masalan: manzarada odam tasvirini joylashtirishda uni oldingi planlarda tasvirlash qomatni yo'qolib ketishidan saqlaydi. O'ta oldingi planga chiqarib yuborish ham noto'g'ri. Shuning uchun ko'rish nuqtasini tanlashda kompozitsiyadagi odamlar guruhi va tabiat bo'shlig'i mutanosib bo'lishi kerak.

Har qanday syujet o'z ko'rish nuqtasiga ega bo'lishi zarur. Gorizont chizig'i ko'rish balandligida bo'lsa, kartina xotirjamlik taassurotini qoldiradi. Baland gorizont chizig'i kartinada ko'proq, keng tabiatni ko'rsatib buyuklik, ko'p planlilikni hosil qiladi. (23-rasmga qarang).

Tasviriy san'atda haqqoniy hayotni tasvirlashda rang va havoiiy perspektiva ham muhim ahamiyatga ega. Kuzatuvlardan bilamizki shakllar bizdan uzoqlashgan sari qora rangdagilar oqaradi, oq rangdagilar esa qorayadi. Ba'zi ranglar havo ta'siri ostida ko'kimtir (kulrang) tusga aylanadi va har qanday rang o'z kuchini yo'qota boshlaydi.

Rang. Oq, kulrang, qora ranglar bir - biridan tusi bilan farq qiladi. Biz atrof - muhitni kuzatganimizda rangli va rangsiz narsalarga ajratamiz. Rangli narsalar ya'ni qizil, yashil, sariq, ko'k, binafsha, moviy kabi turlarini xromatik (rangli) deb yuritamiz. Albatta ular bir - biridan rangi, tusi bilan farq qiladi.

Rangsiz narsalar esa faqat tusi bilan farq qiladi. Bular oq, kulrang, qora tusli bo'lib axromatik deb yuritiladi.

Qaysi bir rang bo'yoqni (oq va qoradan boshqa) kulrang bo'yoq bilan aralashtirsak bir necha murakkab rang tuslarini hosil qilishimiz mumkin. Agar rangli bo'yoq tusidagi kulrang bilan aralashtirsak juda ko'p bir xil rangli ko'p tus bo'lakchalarini topamiz. Ochroq tusdagi rangni hosil qilish uchun oq bo'yoq, qoramtir tusdagi rangni hosil qilish uchun esa qora bo'yoq bilan aralashtirishimiz mumkin. (24a,b,v, - rasmlar).

Xromatik ranglar bir - biridan yorqinligi, rang tusi va to'yinganligi bilan farq qiladi. To'yinganlik – bu rang tusi, rangdorlik darajasidir. Rang yorqinligi, tusi va to'yinganligi rangni asosiy xususiyati deyiladi. “To'yinganlik” termini tushunchasi rang yorqinligi bilan bog'liqdir.

Qizil, sariq, zarg'aldoq kabi ranglar to'plamini issiq ranglar deb yuritamiz. Ko'k, kulrang, ko'kimtir, yashil, moviy, binafsha kabi ranglarni sovuq ranglar to'plami deb yuritamiz.

Issiq va sovuq ranglar tushunchasi nisbiydir. Issiq rang undan issiqroq rang oldida sovuqroq bo'lishi va aksincha sovuq rang esa o'ta sovuq rang oldida nisbatan sovuqroq ko'rinishida bo'lishi mumkin. Issiq va sovuq rang rangtasvirda katta ahamiyatga ega.

Etud. Rangtasvir ta'limining dastlabki bosqichlarida yosh rassomlar naturadan mayda - chuyda xususiyatlarigacha nusxa olishga intiladi. Natijada bir - biriga bog'lanmagan tasvir hosil bo'ladi. Xususan, inson boshini qosh, ko'z, burun

tasviridan boshlamaslik kerak, balki umumiylik va butunlikni mutanosiblikda tasvirlash lozim.

Ochiq havoda (plenerda) rangtasvir bajarishga o'tishda kichik etudlar ishlanadi va eng avvalo undagi rang munosabatlari topiladi. Kichik etudlarda qismlarning tarqoqligi yo'qotiladi, negaki rassom naturani aynan ko'chirmaydi. Dastlab etudlar uchun uncha murakkab bo'lmagan ko'rinishlar olinadi, so'ngra tobora murakkablashtirib borilaveradi.

Qisqa muddatli etudlarni bajarishda turli maqsadlar ko'zlanishi mumkin. Birinchi holatda etud uzoq muddatli tasvirlashdan avval bajariladi va naturaning rang munosabatlari o'rganiladi, rang haqidagi dastlabki tasavvur shakllanadi. Boshqasida shaklni qo'shimcha, aniq o'rganish (masalan, inson qo'li etudi) uchun bajariladi. (25a,b,v,g - rasmlarga qarang).

Rang tuzilishi yakdilligi muvofiqligini belgilash uchun ham etud ishlash muhimdir. Bu maqsadlar uchun qandaydir rang ustunlik qilishi kerak. Etudlar uchun ashyolar iliq va sovuq ranglar muvofiqligida bajariladi.

Doimiy mashq qilib borish oxir oqibatda kuzatuvchanlik, rangni ko'rish, tasvir vositalarini mahorat bilan qo'llashga olib keladi. Naturaning har bir obyekti bu yaxlit rangtasvir asar qismidir, uning rang jilosi uning umumiy idroki va tasvirida vujudga keladi.

Qoralamalar ishlash. Har bir yosh rassom ijodida qaysi uslubda ishlamasin xomaki chizma muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun chizmatasvir bo'yicha uzoq muddatli postanovkalarining yetakchi ahamiyatini ta'kidlab, shu paytning o'zida xomaki chizmaga jiddiy e'tibor berish ham zarur. Rassom ijodida xomaki chizmaning qo'llanilishi turli xilda ko'rinadi. O'quv xususiyatidagi xomaki chizmadan tortib yuqori badiiy ahamiyatga ega bo'lgan ijodiy xomaki chizmalargacha bo'lgan tasvirlar nazarda tutiladi. Ba'zan

xomaki nusxa oliy darajadagi chizmatasvir namunasi bo'lib qolishi ham mumkin.

Badiiy ta'lim muassasalarida xomaki chizma bilan shug'ullaniladi, negaki bu yumushni rangtasvirchi, grafikachi, haykaltarosh, arxitektor va bezakchi kabi soha vakillari ham bilishlari lozim. Dastur ko'rsatmasiga binoan xomaki chizma ustida ishlash ustaxonada, ijodxonada va mashg'ulotlardan bo'sh paytda mustaqil ravishda ikki yo'nalishda olib borilishi zarur. Talabada kuchli kuzatuvchanlik xislatini, shaklni plastik xususiyatini, qismlar mutanosibligini va harakatini tez ilg'ab olish jihatini o'stirish xomaki chizma mashqlarining asosiy maqsadi hisoblanadi. Xomaki chizma talabada ko'z-chamaning o'tkirligini, aniqligini, qo'l texnikasini va ko'rish orqali yodda saqlab qolish jihatlarini o'stiradi.

Xomaki chizmalar uchun har xil shakllar, ham libosli, ham libossiz qomatlar xizmat qilishi mumkin. Talabalarda noma'qul ta'b uyg'otuvchi va voqelik haqida noto'g'ri tasavvur beruvchi sun'iy holatlardan asrash kerak.

Xomaki chizmalar uchun postanovkalar muddati berilgan topshiriqning murakkabligiga qarab belgilanadi va o'n besh minutdan ikki soatga qadar muddatda bajarilishi mumkin. Eng muhimi har bir postanovka o'z vazifasiga ko'ra maqsadga yo'naltirilgan va aniq bo'lishi lozim. Xomaki chizmalar katta ijodkorlikni va e'tiborni talab qiluvchi jonli mashg'ulot hisoblanadi. Har bir talabaga alohida yondashuv chizmatasvirni egallashtirishdagi xatolarni o'z vaqtida tuzatish imkonini beradi.

Xomaki chizmani boshlashdan avval bir necha vaqt naturani o'rganish, kuzatish lozim. Ishda nimani tasvirlash zarurligini aniq idrok etib olib borish kerak. Xomaki chizmaning keyingi bosqichi harakat, mutanosiblik va xususiyatni belgilash bilan bog'liq. Andozaning turli hislatlarini birdaniga ilg'ab olish uchun diqqat - e'tiborni, idrok etish tezligini, ko'z chamalash va qo'l harakatini kuchaytirish talab etiladi. Bu

sifatlarni talabada xomaki chizma ustida doimiy ishlash orqaligina vujudga keltirish mumkin. (26-rasmga qarang).

U yoki bu talaba xomaki chizmani boshlash asnosida qalamni darhol bosib, og'ir o'chmas chiziqlar tortayotganligini ko'plab kuzatish mumkin. Unday chizilgan qomat muhitdan qirqib olingandek, qog'oz sirtiga yelimlangan applikatsiyadek tuyuladi.

Xomaki chizma bilinar - bilinmas yengil chiziqlar orqali bajarilishi va faqat harakat hamda shakl talab qilgandagina turli qalinlik va tus berib uni kuchaytirish lozim. Umuman, xomaki chizma birdan boshlanishi lozim, bu bilan u uzoq muddatli chizmatasvirdan farq qiladi. Qo'yilgan maqsad hal etilgandagina xomaki chizma tugallangan hisoblanadi. Vazifaga ko'ra chizmatasvir ashyosi tanlab olinadi.

Pero, tush, qalam aniqlikni talab qiladi va har bir chiziq uchun javobgarlik hissini uyg'otadi. Sangina, ko'mir, sous, akvarel kabi ashyolar rangtasvir sohasidagi xomaki chizmalar chizishga mos hisoblanadi. Bunday har bir ashyoning o'rganilishi lozim bo'lgan o'z imkoniyatlari bor. Talaba qog'oz sifatini aniqlashga o'rganishi va unga tegishli chizgich ashyosini tanlashi zarur bo'ladi. Talabada ashyolarga nisbatan mutaxassislarcha munosabatda bo'lishni o'stiriladi. To'g'ri kelgan qog'oz bo'lagiga xomaki chizma chizmasligi, uning o'lchami va sifati belgilangan topshiriqqa mos kelishi zarur.

Agar ustaxonada bajarilgan xomaki chizmalar orqali tez ishlash mahorati, qobiliyati hosil bo'lsa, uy sharoitida bajarilgan xomaki chizmalar bilan talabaning ashyoga munosabati, shaklni ko'ra olish qobiliyati vujudga keladi, u rassom sifatida shakllanadi. Bu sifatlar lahzalik tasvirlar uchun obyekt tanlashda, uni qalban idrok etishda ko'rinadi.

Darsdan tashqari bajarilgan barcha xomaki chizmalarni doim qo'llash zarur, negaki aynan shu yerda talabaning

kelajakdagi ijodiy ishlari uchun zarur bo‘ladigan hayotiy kuzatishlar zahirasi to‘planadi.

Ijodiy, ilmiy bilim xususiyatiga ega bo‘lgan xomaki chizmalar, inson tanasining anatomik jihatlaridan olingan xomaki chizmalar ana shu qurilmalar jumlasidandir.

Faqat doimiy va uzluksiz mashq qilish bilangina tez xomaki chizma chizish mahoratini o‘stirish mumkin. Xomaki chizma uzoq tanaffus bilan, ba’zi - ba’zida chizib turish kutilgan natijani bermaydi. Rus rassomlari I.Repin, N.Serov kabilar doimiy xomaki chizma ustida ishlaganlar va shuning uchun ham mahoratli rassom bo‘lib yetishganlar.

Tayanch iboralar: yaxlitlik, ritm, kompozitsiya, muhit, nisbat, xomaki chizmatasvir, etud, moybo‘yoq, qalam, ko‘mir, sangina, sous, akvarel, qog‘oz, rang.

Savollar

- 1. Yaxlitlik nima?*
- 2. Perspektiva nima?*
- 3. Xomaki chizmatasvirning ahamiyati nimada?*
- 4. Xomaki chizmatasvir ishlashda nimaga ahamiyat berish kerak ?*
- 5. Xomaki chizmatasvir qanday ashyolarda bajariladi?*
- 6. Xomaki nusxalar orqali tez ishlash mahorati nima beradi?*
- 7. Xomaki nusxa chizish mahoratini qanday o‘stirish mumkin?*
- 8. Rus rassomlaridan kimlar xomaki nusxa ishlaganlar?*

Kompozitsiya usullari

Tekislik va fazo. Kartina bu - har xil rang bo‘yoq dog‘li chegaralangan tekislik bo‘lakchasidir. Rang dog‘lari orqali

tekislik yuzasidagi shakllar, uning plastikasi, bo'shliq, vaqt va harakatdagi kartina tasviri qurilmasidir. Tasvir (kartina) – bu haqiqiy tekislik va u ham boshqa haqiqatning obrazi. Kartina tekisligidagi haqiqat tasviri rassom tomonidan amalga oshirilgan obraz hisoblanadi. Kartina kompozitsiyasi - bu tekislik yuzasidagi rang dog'lari va chiziqlar yordamida hosil qilingan shakllar guruhi, harakat va syujet tasvir qurilmasidir. Kompozitsiya talablaridan biri kartinada makon qurilmasi muhim hisoblanadi. Bu - ruhiy va jismoniy kuchning tekislikdagi kurashuvi, uchrashuvi va tekislikda shakllarga, qiyofalarga tor yoki keng, ung'ay yoki quruq bo'shliqdir. Unda hayotiy obrazni ko'rishimiz mumkin. Shunday qilib kartina tekisligida rassom tomonidan yaratilgan voqea obraz qurilmasini anglashimiz, his qilishimiz, uning ichiga kirib hamdard bo'lishimiz mumkin. Bu holat haqiqiy tekislikdagi voqeaviy haqiqat qurilmasidir. Makon tasviri shakl tasviriga bog'liq. Kartinadagi yangi muhit tasviri (perspektiv) tushunchasini, tabiat manzaralarida plener rangtasvirini, havoiiy perspektivasini o'rganishni talab qiladi. Tasvirda makon va fazoviy muhitni hosil qilishda shakl qurilmasi, uning joylashuv xarakteriga bog'liq.

Rafaelning "Afina maktabi" devoriy rasmda tekislikdagi makon tasvirini uch o'lchamda ko'ramiz. Biz kartinada haqiqiy makonni, fazoni ko'ramiz. Kuchli tasvir mahoratidan va makondagi tasvirdan bahramand bo'lamiz. (6 – *rasmga qarang*).

Fazoviy qurilma tekislik bo'shlig'ida voqea harakatlari va shakllarning obrazli tasviri uchun xizmat qiladi. Unda harakatlar rivojlanib, kartina chuqurligini hosil qiladi. Agar voqea tasviri faqat frontal tekislikda bo'lsa, uning ta'sirchanlik kuchi biroz zaiflashadi.

Kartina chuqurligida fazoviy qurilma bir necha bo'laklarga; 1) qatlam bo'laklariga va 2) plan bo'laklariga

bo‘linadi. Fazo (makon) qatlamlarini planlarga bo‘lish, shakllar va odam qomatlarini pastda va yuqorida joylashuviga qarab belgilanadi. Bu holatda joylashtirish konstruktiv aloqa, g‘oyaviy bog‘liqlikni saqlashi zarur.

Yevropa tasviriy san‘atida Uyg‘onish davridan boshlab kartina bo‘shlig‘ini planlarga bo‘lish hukmronlik qilib kelgan. Plan - bu gorizontal tekislikda, yerda qurilgan tasvir bo‘laklari. U frontal qurilish bilan yakunlanadi. Agar bu frontal guruhi harakat qurilmasini tashkil qiluvchi bo‘lsa, plandagi qurilmalar o‘ziga tegishli ranglarda va tuslarda tasvirlanadi. Chuqurlik qadam(plan)lari orasidagi bog‘lovchi hisoblanib, shakllar orqali amalga oshiriladi. (6, 8 – *rasmga qarang*).

Bir planli harakat qurilmasi aniqlik va siluetlar ta’sirchanligini talab qiladi. A. Ivanovning “Xristosning xalqqa ko‘rinishi” dastgohli rangtasvir kartinasida esa birinchi plan alohida ajratilmagan. Ikkinchi planda bosh harakat personajlari joylashtirilib, Ioannaning qo‘l harakati Xristosga qaratilgan. Bu kartina chuqurligini tashkil qiluvchi diagonal qurilma. Uchinchi planda g‘ira - shira ko‘rinayotgan shahar va tog‘ ko‘rsatilgan. Xristos qomati bosh planga taalluqli bo‘lib, uzoqdagi planlar bilan bog‘lanib harakat aloqasini yakunlaydi⁷.

Planlar haqida gapirganda manzara kompozitsiyasida fazoviy tuzilishi o‘zgacha. Shaklsiz manzaralarda (masalan; dengiz, o‘tloqlar, o‘rmonlar) rang orqali kartina chuqurligi hosil qilinganligini ko‘ramiz. A. Kuindjining “Qayinzor”, Klod Manening “Qizg‘aldoqli dala” kartinalari bunga misoldir. (28-*rasmga qarang*).

Tayanch iboralar: kompozitsiya, nisbat, tekislik, shakl, usul, kartina, fazoviy qurilma, bosh qahramon, portret, markaz, kontrast, plan, rang, qomat.

⁷ THE STATE Hermitage. Leningrad. Moskow.

Savollar

1. *Tekislik nima?*
2. *Kartina tekisligi qanday?*
3. *Fazo deganda nimani tushunasiz?*
4. *Fazoviy qurilma nima?*
5. *Plan nima?*
6. *Djotto asari kompozitsiyasida plan nechta?*
7. *Fazoviy qurilma necha bo‘laklardan iborat?*
8. *Klod Manening “Qizg‘aldoqli dala” kartinasi nega planli?*
9. *“Qayinzor” asarida nechta plan mavjud?*

Kompozitsiyada rang va nursoya. Kartinada kolorit kompozitsiyaning boshqa elementlari kabi g‘oya bilan chambarchas bog‘lanib tomoshabinga mazmunni ravshan idrok qilishga yordam beradi. Zavqli va ravshan koloritni ochiq ranglar bilan tuzib bo‘lmaydi. Tomoshabinda hayot haqiqati, tabiiy ranglar gammasi, tabiat holati koloritini aks ettiruvchi fikr va his-tuyg‘uni boyitadi.

Quyosh chiqishi yoki botishi, kunduzi yoki oydin kecha manzarasi, tuman yoki yomg‘irli kun tomoshabinda har xil kechinmalarni tug‘diradi. Tabiatda har xil kolorit holati quvonchli daqiqalar bilan, yoki sirli notinchlik bilan bog‘liq. Charaqlagan quyoshli kun yashil dalalar va o‘rmonlar tasvirlangan kartina albatta quvonchli ruh bag‘ishlaydi.

Kulrang bulut bilan qoplangan osmonni kuzatishlar orqali kartinada rassom ifodali o‘ychanlik kolorit hosil qilishi mumkin.

Rassomlar asarlarini kuzatar ekanmiz tasvirda tabiatning yoritilish holati g‘oya bilan bog‘lanib, kartina koloritida aks etganini ko‘ramiz. (28-rasmga qarang). I.Levitanning «Yoz oqshomi» manzarasida diqqatga sazovor obyekt bo‘lmasada,

birinchi planda darvoza, dala yo‘lakchasi va uzoqdagi o‘rmon tasvirlanib oqshomning go‘zal koloritini hosil qilgan. Oqshomni haqqoniy manzara holati kartinani go‘zal, shoirona tasviridir. Bu go‘zallik tomoshabinning qalbini to‘lqinlantirib, qachondir ko‘rgan narsalarini yana bir bor qalbidan o‘tkazishga undaydi. Shunga o‘xshash ko‘pgina kartinalarni aytish mumkinki, bunda kolorit asar mazmunini ifodalaydi.

Voqelikni kartinada tabiiy rang koloritida aks ettirilmasa, asar mazmuni to‘la ochib berilmaydi, unda hayotiylik bo‘lmaydi. Kartinada tusni yoki rang kuchini ozgina o‘zgartirilishi kartina ruhini va mazmunini o‘zgartirib yuborishi mumkin. Kartinada rang tuzilishida tabiiy yaxlitlikni oz bo‘lsada o‘zgarishi rangtasvir asarini bo‘shliq planlarini notabiiylikka olib keladi. Chehra va kiyim ranglari xom va hunuk rangda ko‘rinib tomoshabinni befarq qiladi.

Rangtasvir san’atida kolorit - bu rassomning tabiatdagi bor ranglar boyligini bilish, o‘rganish natijasidir. Tabiatda hamma narsalar ranggi umumiy yoritilish natijasida bir - biri bilan refleks va o‘zaro ranglar kontrasti uzviy bog‘langan. Rassom hamma joyda ranglar garmoniyasini va «xunuk» va «qarama - qarshi» ranglar tonini bilishi, ularni bir - biri bilan bog‘lay olishi kerak.

Kartinada rang va nursoya - bu shakl tasviri, materiali, atrof-muhit, yoritilish holatini tasvirlash vositalaridan tashqari kompozitsiya tuzilishi elementi hamdir. Rassom rang va yorug‘lik yordamida tomoshabinni idrok qilishini tashkillashtiradi, uning diqqatini kompozitsiyadagi bosh voqea va mazmunga yo‘naltiradi. (8,12-rasmlarga qarang).

Kompozitsiya markaziga urg‘u berish tus va rangga asoslanadi, fonga nisbatan shakllar kontrasti hosil qilib tomoshabinga yetkazadi. To‘yingan va yorqin rang ko‘zga

kuchli ta'sir qiladi, diqqatni tortadi. Yorqin rangga bo'yalgan buyum birinchi navbatda ko'zga tashlanadi. Bundan kompozitsiyada rang dog'larini to'g'ri joylashtirishda foydalaniladi. Rassom yorug'likdan foydalanib kompozitsiya markazida eng muhim qomat yoki guruh qomatni, harakatni, buyumni yoki syujetni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo'lganlarini ajratib ko'rsatadi. Soya yordamida esa rassom hamma ikkinchi darajali qismlarida, shuningdek tomoshabin nigohini tortmasligida ishlatadi.

Ba'zida rassom kartina yaratar ekan kompozitsiya markazini kontrast va yorqin rangda, proyektor nuri kabi yoritadi. Masalan Rembrant asarlaridan birini olaylik. «Adashgan o'g'ilning qaytishi» asarida bosh qahramon qomatlari ajratilib yoritilgan (o'g'il qomati, otaning yuzi va qo'li). Shu usul orqali rassom tomoshabin fikrini jamlab diqqatni kartina qahramonlariga qaratishga erishgan.

Tayanch iboralar: kompozitsiya, nisbat, Rembrant, tekislik, shakl, usul, kartina, fazoviy qurilma, bosh qahramon, markaz, kontrast, plan, rang, qomat.

Savollar

- 1. Kompozitsiyada rang va nursoya nimadan iborat?*
- 2. Kartinada kolorit nima?*
- 3. Kartinada markaz qanday amalga oshiriladi?*
- 4. «Adashgan o'g'ilning qaytishi» asarida bosh qahramon qanday joylashtirilgan?*
- 5. Tabiatda hamma narsalar umumiy yoritilish natijasida o'zaro qanday bog'langan?*
- 6. Rassom yorug'likdan foydalanib kompozitsiya markazida eng muhim qomatni qanday ko'rsatadi?*

Asosiy qismini ajratish. Kompozitsiyada tasvirlanayotgan shakllar orasida muhimrog‘ini ajratib uni boshqalardan ajratib ko‘rsatish lozim. Kartina tekisligidagi jami shakllar teng ahamiyatga ega emas. Shuning uchun eng asosiysini markazda yoki markazga yaqin joylashtiriladi.

Ajratib ko‘rsatishda rassomlar; tasvir o‘lchamini, yoritilishini, shakllar va ranglar farqi bilan amalga oshiradilar. Agar farqlar keskin ko‘rsatilgan bo‘lsa, biz uni kontrastda ko‘ramiz. Shakllarni ajratib ko‘rsatmoqchi bo‘lsak, boshqa shakllar o‘lchamini kichraytirib, tusini pastroq yoki fon tusiga yaqin qilib tasvirlanadi. Hayotda shakllarni bir - biri bilan sifat va kattaligini chog‘ishtirib aniqlaymiz. Kontrast tusda, rangda, yuzlarning silliqligi va g‘adir - budirligi ko‘rinishida bo‘ladi. Shuningdek chiziqlar xarakterida, siluetda, hajmda, og‘ir va yengilligida namoyondir.

Kontrast - badiiy asarni kuchini, quvvatini, harakatchanligini, hissiyotini oshiradigan vosita. Kuchli kontrastlilik hayotiylikni, aniqlikni ta‘minlaydi, ammo kartinada kam farqli shakllar bo‘lmaydi degani emas. Bosh qahramonni yoki shaklni katta yoki qoramtir rangda ko‘rsatish bilan chegaralanmaydi.

Muhim qiyofani ajratib ko‘rsatishda perspektivadan foydalanish mumkin. Agar bosh qahramonni ajratmoqchi bo‘lsak, uni birinchi planda joylashtiriladi va u yirik bo‘lib ko‘rinadi. (29 - rasmga qarang).

Tayanch iboralar: kompozitsiya, nisbat, Rembrant, tekislik, shakl, usul, kartina, fazoviy qurilma, bosh qahramon, markaz, kontrast, plan, rang, qomat.

Savollar

1. *Kompozitsiyada asosiy qismini ajratishning mohiyati nima?*

2. *Kartinada rassomlar ajratib ko'rsatish orqali qanday amallarni bajaradilar?*
3. *Badiiy asarlarda perspektivaning ahamiyati.*
4. *Kartinada kontrastlilikni muhim jihatlari nima?*

IV BOB. DASTGOHLI RANGTASVIR

4.1. Fazoviy qurilma

Tasviriy san'at asar yaratilishi kompozitsiyadan boshlanadi. Kartinada qo'llanilayotgan sxema tuzilishi va butunligini umumlashtirish rassom tomonidan ishlab chiqiladi. Kompozitsiyada bu sxema, karkas, skelet kabilar tasvirga aniqlik kiritadi, harakatlarni tashkil qilib, tasvirni ta'sirchanligini oshiradi. Kompozitsiya tuzilishi diagonal bo'ylab, uchburchak shaklida, doira yoki yarim doira shaklida rivojlanishi mumkin. Shuningdek, kartina markazida shakllar yig'ilgan yoki tarqoq va markaz atrofida joylashtiriladi. Kompozitsiya sxemasi faqat kartina tekisligida emas, balki bo'shliq perspektivasida quriladi. Kompozitsiya qurilmasi prizma, silindr, kosa, piramida, konus kabi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Kartinaning inson ruhiga nimaga va qanday ta'sir qiladi? Kartina qurilmasi nima vazifani bajaradi? Kompozitsiya qurilmasining o'zi nima? Uni qanday tushunish kerak? Bu borada masalan, o'simlikni olaylik. Uning qurilmasida tana, shoxlari, barglari juda mukammal joylashgan bo'lib, hayratlanarli ko'rinishni tashkil qiladi. Kungaboqarni olaylik, barglari juft holda tanasiga joylashgan. Quyosh nurida tovlangan sariq boshi mayda yaproqchalari bilan jozibali ko'rinishni tashkil qilgan. O'simlik dunyosida chiroyli qomatli, egilib bukilgan, mag'rur, nafis va yengil turlari mavjud. Turlarining chegarasi yo'q. Tabiatdagi mo'jizalar bizni cheksiz taassurotlar olamiga yetaklaydi. Qushlar, baliqlar, to'rtoyoqlilar - hamma joyda ularning tuzilishi, shakli o'ziga xos. Kompozitsiya qurilmasida ham mazmun

shaklni ifodalaydi. Tabiatdagi shakllar qiyofasi, uning chiziqlari, bir - biri bilan bog‘lanishi mukammalligi san’atda ijodning asosiga ta’sir qiladi.

Syujet mavzuli kompozitsiyada harakatni ifodalash katta ahamiyatga ega. Hayotning o‘zi ham harakatdan iborat. Butun tirik jon tarixi harakatga asoslangan. Odam yoki hayvon harakatlanish davrida o‘z qomatini o‘zgartirib, egiladi, buki-ladi, soch va kiyimlari havo oqimida har - xil o‘zgaradi. Bularning barchasini yurganida, chopganida, sakraganida, egilganida o‘zgarishini kuzatamiz. Odam yoki hayvonni harakatdagi holatini tasvirlash uchun odam va hayvon anatomiyasi skelet qurilmasini yaxshi bilish, kuzatish kerak. Kartinada harakat taassurotini hosil qilishda kompozitsiya-ning roli katta. Kompozitsiyada kartina formatiga joylash, chiziqlar yo‘nalishi, kontrastlar, yorug‘lik kabi hamma vositalar dinamik harakat qurilmasini ta’sirchanligini oshirishga jalb qilinadi. Kartinada ichki harakat ham mavjud. Kartinada odam qiyofalari tinch holatda, g‘azablangan, ta’sirlangan ichki harakatda bo‘lishi ham mumkin. Kompozitsiyada bunday notinch holatlarni tasvirlashda; chiziqlar silliq yoki aksincha to‘lqinsimon, spiral, biri - ikkinchisiga qarama - qarshi ko‘rinishlarda tasvirlanadi. Buyuk rassomlar asarlarida bular katta ahamiyatga ega bo‘lib, kartina ruhini oshiradi.

Djotto asarlaridagi bir planli kompozitsiyasida voqealar tomoshabin oldida birinchi planda joylashtirilgan. Qomatlar ritmi, simmetriyasi yengil o‘qiladi. Bir planli harakat qurilmasi aniqlik va siluetlar ta’sirchanligini talab qiladi.

Planlar haqida gapirganda manzara kompozitsiyasi fazoviy tuzilishi o‘zgacha. Shaklsiz manzaralarda (masalan; dengiz, o‘tloqlar, o‘rmonlar) rang orqali kartina chuqurligi hosil qilinganligini ko‘ramiz. A. Kuindjining⁸ “Qayinzor”,

⁸ Куинджи. “Художник РСФСР”. 1990.

Klod Manening “Qizg‘aldoqli dala” kartinalari bunga misol.

Kartina bu - har xil rang bo‘yoq dog‘li chegaralangan tekislik bo‘lakchasidir. Bu rang dog‘lari orqali tekislik yuzasidagi shakllar, uning plastikasi, bo‘shliq va tekislik, vaqt va harakatdagi kartina tasviri qurilmasidir.

Tayanch iboralar: fazoviy qurilma, kompozitsiya, syujet, sxema, karkas, skelet, nisbat, tekislik, plan, shakl, kartina, bosh qahramon, markaz, kontrast, Klod Mane, rang, qomat.

Savollar

- 1. Fazoviy qurilma nima?*
- 2. Asar yaratilishi nimadan boshlanadi?*
- 3. Sxema, karkas, skelet nima?*
- 4. Syujet kompozitsiyada nima katta ahamiyatga ega?*
- 5. Planlarga bo‘lish qachon boshlangan?*
- 6. Bir planli harakat qurilmasi nimani talab qiladi?*
- 7. Djotto asarlarida plan qanday joylashtirilgan?*

4.2. Perspektiva va kartinada obraz qurilmasi

Kartinada tasvir vositalaridan biri perspektivadir. Tekislik yuzida uch o‘lchamli har qanday tasvirni hozirda *perspektiva* deb ataydilar. Tekislik bo‘shlig‘ida perspektiva qurilishi ko‘pincha arxitektura loyihalarida ishlatilgan. Perspektiva bir nuqtadan turib qaraganimizda hosil bo‘lgan binolar chiziqli perspektivasini tushunsak, bundan tashqari havoiiy perspektiva, rang perspektivasi, kartinada esa muhit perspektivasi ham mavjud.

Mavzuli kompozitsiyada tasvirni perspektivasiz amalga oshirish qiyin. Rassomlar allaqachon kartina tekisligida tasvirni perspektiva vositasida shakllarni, voqealarni

makonda joylab kartina chuqurligini hosil qiladilar. Perspektivada kartina kompozitsiya qurilishida ko'rish nuqtasi, gorizont chizig'i muhim ahamiyatga ega.

Kartinada har xil chuqurlik va uch o'lchamlilik Uyg'ornish davrida geometrik sistema asosida «perspektiva» (chiziqli perspektiva)ni kashf qilindi. Biror buyumdan uzoqlashganimiz sari buyum hajmi kichrayib ko'rinadi. Shuning bilan birga buyum ranggi ham o'zgaradi. Havo ta'siri ostida rang xiralashib, buyumning haqiqiy rangidan farq qiladi. (30 - rasmga qarang).

Bir rangli buyumni birini yaqinroq, ikkinchisini uzoqroqda joylashtirsak birinchi buyum ranggi ikkinchisiga nisbatan yorqinroq rangda, ikkinchisi xiraroq rangda bo'lib ko'rinadi. Uzoqda joylashgan yashil o'rmon ko'k - kulrang ko'rinishda bo'ladi.

Buyum ranggi yorug'lik ranggi va yorug'lik kuchiga qarab ham o'zgarib har xil tusga burkanishi mumkin. O'rtacha yorug'likda ranglar yorqinligi kamroq. Kuchli yorug'lik kuchida ranglar ochroq. Kamroq yorug'likda esa ranglar to'qroq va kam to'yingan holda ko'rinadi. Yorug'lik rangining o'zgarishiga qarab (ertalab, kechqurun, quyoshli yoki bulutli kun) ko'katlar, daraxt barglari, yer, uy tomlari rangi har xil tuslanadi. Erta tongda moviy va ko'k rangda, kunduz kuni har xil rang-barang ko'rinishda, kechqurun qizg'ish - zarg'aldoq rangda ko'rinishi mumkin.

Elektr chirog'i yorug'ligida hamma buyumlar sarg'ish - zarg'aldoq rangda bo'lsa, oy yorug'ligida buyumlar yashilsimon va moviy sovuq ranglarda ko'rinadi. Quyosh nuri rangini qishning qorli manzarasida kuzatganimizda, charaqlagan quyoshli kuni oppoq qor qizg'ish (pushti) rangda, soyada esa moviy - ko'k rangda ko'rinadi.

Shuni ham aytish kerakki, buyum va shakllar bir nuqtadan turib qaralgandagi, ya'ni perspektivadagi

o'lchamlari nisbatini saqlagan holda tasvirlashni nazarda tutmoq kerak.

Odatda shakllar o'lchami tasvirlanayotganda asli (natura haqiqiy o'lchami)ning o'lchamidan kichikroq tasvirlanadi. Shuning uchun shakllar guruhining umumiy o'lcham birligini to'plash vazifasi turadi. Ana shunda buyum va shakllarning o'lchamlari nisbati bir - biriga mos kelib, tasvir haqqoniy o'xshashi mumkin. O'lcham nisbati munosabatlari idrok qilish qonuni faqat chizmatasvirda emas, balki rangtasvirda rang va tus nisbat munosabatlari ham muhim ahamiyatga ega.

4.3. Kompozitsiya markazi

Badiiy obraz ifodaliligi naturaning ifodaliligi bilan aniqlanadi. Shuning uchun rassom naturaning ma'noliligini, harakat holatining xarakterli tomonlarini ilg'ab olishni, topishni bilishi kerak. Har bir buyum yoki natura qaysidir tomonidan ko'proq xususiyatga ega bo'ladi. Gorizont chizig'ini tanlashda chapdan va o'ngdan, yaqin yoki uzoqdan qarab naturani ifodali, xarakterli tomonidan tasvirlashga harakat qilish kerak. Qarash burchagi va qarash nuqtasi kartina kompozitsiyasi tuzilishida muhim element hisoblanadi. Masalan: manzarada odam tasvirini joylashtirishda uni oldingi planlarga olib kelish qomatni yo'qolib ketishidan saqlaydi. Shuningdek o'ta oldingi planga chiqarib yuborish ham noto'g'ri bo'ladi. Shuning uchun ko'rish nuqtasini tanlashda kompozitsiyadagi guruh odamlar va tabiat bo'shlig'i mutanosib bo'lishi kerak.

Har qanday syujet o'z ko'rish nuqtasiga ega bo'lishi zarur. Gorizont chizig'i ko'rish balandligida bo'lsa, kartina xotirjamlik taassuroti qoldiradi. Baland gorizont chizig'i kartinada ko'proq, keng tabiatni ko'rsatib buyuklik hosil qiladi. (7, 23, 30-rasmlarga qarang).

Tayanch iboralar: vosita, fazoviy qurilma, syujet, kompozitsiya, nisbat, tekislik, plan, shakl, kartina, bosh qahramon, markaz, rang, qomat.

Savollar

1. *Kartinada tasvir vositalaridan biri nima?*
2. *Kompozitsiyada perspektiva nima?*
3. *Elektr chirog'i yorug'ligida ranglar qanday o'zgaradi?*
4. *Asar yaratilishi nimadan boshlanadi?*
5. *Syujet kompozitsiyada nima katta ahamiyatga ega?*
6. *Kartinada har xil chuqurlik qanday hosil qilinadi?*
7. *Kompozitsiyada ko'rish nuqtasi nima?*
8. *Ko'rish nuqtasining vazifasi nimada?*

4.4. Kompozitsiyada kolorit

Nazarimda koloritni boyitish yo'llari tabiatni kuzatish va haqiqiy xalq san'atlarini o'rganish orqali amalga oshirilishi mumkin. Xalq san'ati o'rganib bo'lingan, yangilik uchun asos bo'la olmaydi deydiganlar bo'lishi mumkin. Ammo ko'pdan ma'lumki, "Butunlay unutilgan eskilik – bu yangilikdir" deydilar xalqimiz. Ko'p eskilikka yangicha qarash va yangicha his qilinishi mumkin. Ma'lumki o'rganishga tabiat, uning boy hayoti va o'zgarishlari asos bo'lib xizmat qiladi.

Dekorativ - bezak san'ati rassomlari allaqachon tabiatdagi gullarni boy koloritiga, kapalak va boshqalarga murojaat qilganlar.

Biz bilamizki tabiatda to'tilar, kapalaklar va boshqalar-ning yorqin ranglarini didsiz, pala partish deb bo'lmaydi, balki aksincha. Ammo ba'zi rassomlar o'z asarlarida kolorit ketidan quvib didsizlikka uchraydilar. Tabiatda tosh, daraxt, ko'kat,

gullardagi ranglar tusi nisbatlari hosil qilgan kolorit bizga saboq bo‘lishi mumkin.

Haqiqiy kolorist – rassom uchun atrof - muhitni, hayotni kuzata bilishi muhim o‘rin kasb etadi. Kuzatilgan hodisalarni va narsalarni eslab qolish zarur.

Rassom har doim, hamma joyda kuzatishni o‘z ongiga singdirishi kerak. Odamlar guruhida ritm va chiziqlar, rang dog‘lari, kiyimlari uyg‘unligi o‘tkir yangi va esdan chiqmaydigan kuchga egadir. Bola ko‘targan ayol, uning kiyimlari uyg‘unligi tuzilishi o‘zgacha go‘zallikka ega bo‘lishi mumkin. Tabiatning badiiy ijodi cheksiz bo‘lib har qanday rassom uchun haqiqiy ilhom berib koloritini boyitadi, rang - baranglikka, doimiy yangilikka ruhlantiradi. (5,12,18, 30 - rasmlarga qarang).

San‘at hayotga taqlid qilibgina qolmay, balki shoirona aks ettiradi, undan zavqlanadi. Bu rassom oldida cheksiz izlanish, yangi vositalar topish kabi buyuk vazifalar turadi, shuningdek, shablonlardan qochishga undaydi. Koloritni o‘rganish, izlash, yangi tomonlarini ochish, ixtiro qilish kartinada mavzuni qalbdan aks ettirish uchun ham katta ahamiyatga ega.

Haqiqiy kolorist - rassom bo‘lish, bu “rangdorlik” uchun ishlash degani emas⁹. Agar rassom talanti katta ma’noli, mavzuni, go‘zallikni ochib beruvchi asar uchun xizmat qilsa rangtasvirchilik, rangdorlik o‘z - o‘zidan yo‘qolmaydi. Ba’zi- da “ranglar chiroyli” deyilganda, bu rassom uchun unchalik maqtoov emas. Balki kartinaning ma’nosi, g‘oyasi e’tiborga loyiq bo‘lmay, rassom o‘z oldiga qo‘ygan ijodiy maqsadga erisha olmagan yoki u butunlay bo‘lmagan. Buyuk rassom o‘z ijodida koloritdan kartina g‘oyasida rangtasvir, mavzu, chizmatasvir, nur, rang, shakl plastik uyg‘unligini ajratmaydi.

⁹ Энциклопедический словарь художника. Москва. «Педагогика» 1983.

Tayanch iboralar: kolorit, rang, vosita, fazoviy qurilma, syujet, kompozitsiya, plan, shakl, kartina, bosh qahramon, markaz, rang, qomat.

Savollar

- 1. Kartinada kolorit nima?*
- 2. Dekorativ - bezak san'ati rassomlari nimani o'r-ganadilar?*
- 3. Kompozitsiyada ranglar uyg'unligi nima?*
- 4. Haqiqiy kolorist nimani bilishi kerak?*
- 5. Tun va kunduzi ranglar qanday o'zgaradi?*
- 6. Haqiqiy kolorist qanday bo'lishi kerak?*
- 7. Syujet kompozitsiyada nima katta ahamiyatga ega?*
- 8. Kartinada har xil chuqurlik nima?*

V BOB. DASTGOHLI RANGTASVIRDA KARTINA KOMPOZITSIYASI

5.1. Rangtasvirda chizmatasvirning roli

Rangtasvir rangshunoslik qonunlariga asoslanib borliqni realistik ifodalaydi, aks ettiradi. Rangtasvir mahorati - bu tekislikda borliqni tabiiy ranglarda to'laqonli aks ettirishdir. Buning uchun rassom havoiiy perspektiva, masshtabni, hajmni chizmatasvir orqali aks ettirishni puxta egallashi kerak. Tus, rang va chizmatasvirni bir - biriga bog'lab, rangtasvir asarida mohirona foydalanishi zarur. Chizmatasvirsiz faqat bo'yoqlar orqali buyumning shaklini, hajmini, borliqdagi o'rnini aks ettirish mumkindir. Agar manzara ishlashda perspektiva qonunlariga amal qilib chizmatasviri ko'rsatib berilmasa, rangni ahamiyati o'rinsizdir. Ba'zan rassomlar «Rangtasvir nima?» degan savolga: «Bu 100% chizmatasvir va 100% rangtasvir o'zaro mujassam bog'liqligidir» deyishadi.

Realistik rangtasvirda chizmatasvirga muhim o'rin beriladi va chizmatasvirni egallash realistik rangtasvir jarayonida asosiy shartdir. Oldin chizmatasvir ishlanib, keyin rang beriladi. So'z chiziqli rangtasvirda emas. Rangtasvirchi oldindan chizmatasvir tayyorlamasligi mumkin. Ammo uning asarida aniq chiroyli chizmatasvir rangtasvir bilan chambarchas bog'lanib, yaqqol tasvir hosil qilganini ko'ramiz.

Rangtasvirchi rassomni o'qitishda agar talaba oldindan chizmatasvir orqali perspektiva, buyumlarni konstruktiv shaklini tusli chizmatasviri va nisbatlar tushunchasiga ega bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Ba'zi talabalar ishlarini tahlil qilganimizda chizmatasvirni to'la egallamasdan

rang(bo‘yoq)da tasvirlashga kirishilgan portretida tasvir-
lanuvchi o‘xshamaganligini, tus(ton), kolorit, havoiiy pers-
pektiva kabi tushunchalar amalga oshmaganligini ko‘ramiz.
Yorug‘lik va soya qonunlarini, tusli chizmatasvirning va-
zifasini bilmagan yosh rassom–portretida shakl tasvirini
rangda ko‘rsata bilishni, fazoda joylanishini tasvirlashda
katta qiyinchilikka uchrashi mumkin. Rassomchilik maktab-
lari tajribasi tarixidan ma‘lumki, o‘qitish - o‘rganishning
birinchi bosqichida chizmatasvirdan puxta, jiddiy tayyor-
lashga katta e‘tibor beriladi. Shundagina keyinchalik rang-
tasvir bilan shug‘ullanish jarayoni yaxshi natijalarga olib
keladi.

Rassom Titsian chizmatasvirning ahamiyati haqida
shunday degan: «Qaddi qomatni rang(bo‘yoq) go‘zal
qilmaydi, balki yaxshi chizmatasvirdir». U keksalik davrida
ham har kuni biron narsani chizishni kanda qilmagan.

Jahonning buyuk rassomlari: Mikelanjelo, Djorj Vazari,
Leonardo da Vinchi, P.Chistyakov, I.Repin, A.Vaspetsov,
K.Bryullov, V.Serov va boshqalar chizmatasvirga katta
ahamiyat berganlar¹⁰.

Rangtasvir san‘atida rangni chizmatasvirdan ajratib bo‘l-
maydi. U har doim chizmatasvir bilan chambarchas bog‘liq-
dir.

Chizmatasvirning ixtisoslik darajasida egallash grafik,
me‘mor, bezakchi, mahobatchi va boshqa barcha rassomlar
uchun zaruriy hisoblanadi. Yaxshi chizmatasvirni egallama-
gan haqiqiy kino yoki teatr rassomini tasavvur qilib
bo‘lmaydi.

Realistik chizmatasvir asoslarini egallamagan rassomlar
kartina chizishni boshlasa, bu dastgohli chala san‘at asarini

¹⁰ THE STATE Hermitage. Leningrad. Moskow.

vujudga keltiradi, yolg'on mahobatlilik va bezakdorlik xususiyatlarini namoyon qiladi, obrazlilikka putur yetkazadi.

Rangtasvir uchun chizilgan buyumning chizmatasviri shartli kontur chiziqlariga e'tibor bermagan holda, uni atrof - muhit bilan bog'lab hajmini rang orqali shakllantira bilish va uning nisbatlari, materialligini aniqlash lozim. Xomaki chizmatasvirdan boshlab, oxirgi mo'yqalam nuqtasigacha rassom har doim chizmatasvirni esdan chiqarmasdan shaklni o'rganib aks ettirmog'i kerak. Rangtasvir - bu chizmatasvirning davomi hisoblanib, bir necha marta shaklning chizmatasviriga qayta - qayta qaytmog'i va aniqlik kiritmog'i lozim. Chizmatasvirdagi mahorat rangtasvirda asar yaratishning muvaffaqiyatli chiqishini ta'minlaydi.

Realistik san'atda badiiy obraz yaratishning eng birinchi asosi chizmatasvirdir. U odam obrazini yaratishda va voqelikni tasvirlashda muhimdir. Asarning muvaffaqiyati va kompozitsiya orqali fikrlash, tasavvurni rivojlantirish chizmatasvirga bog'liq. Rassomlar kompozitsiyada umumiy fikrlashi ham chizmatasvir orqali dunyoga keladi.

Rassom portret yaratar ekan, agar realistik chizmatasvirni to'la egallagan bo'lmasa, hech qachon to'laqonli yetuk obraz yarata olmaydi.

Tayanch iboralar: rangtasvir, kolorit, chizmatasvir, rang, vosita, fazoviy qurilma, syujet, kompozitsiya, shakl, kartina, bosh qahramon, rang.

Savollar

- 1. Rangtasvir mahorati nima?*
- 2. «Rangtasvir» degani nima?*
- 3. Kompozitsiyada ranglar uyg'unligi nima?*
- 4. Realistik rangtasvirda chizmatasvirning o'rni qanday?*

5. *Rassom Titsian chizmatasvirning ahamiyati haqida nima degan?*

6. *Jahonning buyuk rassomlaridan kimlar chizmatasvirga katta ahamiyat berganlar?*

7. *Chizmatasvir kimlar uchun muhim hisoblanadi?*

5.2. Kartina yaratish

Obraz

Tevarak atrofda ko'rgan hayot muhim va qadrli voqealarni tasvirlash bilan tugadi deyish kamlik qiladi. Ko'rganlarni shunday tasvirlash kerakki, uning mazmunini va ahamiyatini sezilarli darajada go'zalligini ko'rsata olish kerak. Tasvirlanayotgan odamni xarakterini, ruhiy holatini o'tkir ta'sirchan qilib tasvirlash kerak. Umuman aytganda uning obrazini, badiiy ta'sirchanligini yaratish zarur.

Rassom - bu ijodga berilgan inson. Kartina rangtasvirchining ko'z oldida tugallangan mehnat natijasi yakunidir. Unda fikr, g'oyasini izhor qiladi, his sezgisini keng yoritadi, o'z muhabbatini izhor qiladi. San'atkor sifatida kartina- odamlar bilan bog'lovchi bosh hayot ma'nosi,

Rangtasvir asari mazmuniga qarab janrlarga bo'linadi; manzara, natyurmort, animalistik (hayvonlar tasviri), tarixiy, maishiy, jangovar, oxirgi uchta janr syujet - mavzuli rangtasvirdir.

Asar kompozitsiyasini yozuvchilar, shoirlar, rassomlar, haykaltaroshlar ijod qilish jarayonida o'z fikrlarini har xil vositalar yordamida: yozuvchilar – jozibali so'z bilan, kompozitorlar – tovushlar garmoniyasi bilan, rassomlar – chiziq, shakl va rang bilan ifoda etadilar.

Ijodkorlar o'z hayotida ko'rgan - bilgan, eshitganlarining eng mazmunli, xarakterlilarini badiiy obraz orqali asarlarida namoyon etadilar. Rassomda kuchli xohish bo'lganda tevarak

atrofni kartina tekisligiga chiziqlar va ranglar yordamida ko'chirish mumkin. Ammo hali bu badiiy asar bo'ldi, degani emas. Haqiqiy rassom bo'lish qiyin. San'at insondan ko'p narsani va butun hayotini bag'ishlashni talab qiladi. Rassomni qalbdan ijodiy ish tinch qo'ymaydi, qayerda bo'lmasin ijodni o'ylaydi. Rassom qayerda bo'lmasin, uydami, transportdami, ko'chadami ishlash (shuningdek rasm chizish)ni esdan chiqarmasligi kerak. Xuddi asal aridek qayerda bo'lmasin tinmay bo'lg'usi asar uchun ashyolar (material) yig'adi.

Ish jarayonida rassom hayotiy kuzatishlaridan, xotiradan va yig'ilgan ashyolardan keraklilarini olib bo'lg'usi asarga zamin yaratadi. Nafis tasviriy san'atda kompozitsiya haqida gapiradigan bo'lsak, kompozitsiya so'zi lotincha bo'lib compositio – bayon qilish, tuzish, joylashtirish demakdir.

-Kompozitsiya tasviriy san'atda eng murakkab tushuncha hisoblanadi. Kompozitsiya – ijodning asosidir. U asarning sifatini tomoshabinga ta'sir qilish darajasini belgilaydi, aniqlaydi. Tasviriy san'atda kompozitsiya bilan g'oya, fikr, kartina syujeti chambarchas bog'liq. Rassom uchun tomoshabinga o'z g'oyasini, fikrini badiiy obrazlarda yetkazib berishda kompozitsiyadan boshqa muhim vosita yo'qdir.

San'at chegarasiz bo'lganidek kompozitsiya masalalari murakkab va ko'p qirralidir.

Rangtasvirda kompozitsiya masalalarini so'z bilan ifodalash qiyin. Kartinani yaxshi yoki yomon ekanligini tomoshabin o'z bilimidan, tushunchasidan kelib chiqib baholaydi.

Kartina kompozitsiyasi yaxshi yoki yomonligini esa, faqat bilimdon usta va ko'p yillik tajribali nafis didli san'atkorlar aytishi mumkin. Ular kompozitsiyada nima yaxshi-yu, nima yomon ekanligini ichdan badiiy sezib, (ko'p yillik mehnat va ijodiy malakasi, umumiy madaniyati, bosib o'tgan maktabi, badiiy did tarbiyasi asosida), xatosiz xulosa

chiqarishi mumkin. Ammo nima uchun kompozitsiya yaxshi yoki yomonligini tushuntirib berishga yetarli soʻz topa olmaydilar. Bu shuning uchun boʻlsa kerakki, sanʼat qalb sezgisi va koʻp rassomlar uchun kompozitsiyani bilish muhim xususiyat boʻlib, muhim qobiliyatdir. Shu sababdan tasviriyl sanʼatga sirtidan oʻrgatish (oʻqitish) juda qiyin, chunki koʻp vazifalarni yechish faqat oʻqituvchining aniq koʻrsatmasi asosida olib boriladi.

Kartina kompozitsiyasi ijod asosida real borliqni aks ettiradi. Rassom ish jarayonida shakllarni umumlashtirib koʻrsatishda real, hayotiy ifodalash va mazmunni esdan chiqarmaydi.

Nafis rangtasvir sanʼati – aniq sanʼat boʻlib, aniq ifodalashdan chetlab oʻtib boʻlmaydi. Aytganimizdek, kompozitsiya murakkab va koʻp mazmunli tushunchadir. Qisqa qilib aytganda bu – kishilar qiyofalarini, manzara, turmush buyumlarini, fazo, boʻshliqni, rang, yorugʻlik va boshqalarni kartina tekisligida joylashtirib tasvirlashdir. Oddiy joylashtirish boʻlmay, balki tartib bilan oʻzaro bogʻlatib, ular orasida ruhiy, plastik, rang yechimini talab qiladi. Shu bilan birga kartinada komponentlar joylashuvida asar gʻoyasini ochib berish zarur. Kartina maʼnoli chiqishi uchun asosiy gʻoya aniq aks ettirilishi kerak. Muhim voqeani ochib berish, kartina yaxlitligi, obrazlar yechimi bu kartina kompozitsiyasidir. Kompozitsiya ishlashdan oldin asarda nimani ifodalash kerakligini oʻylash kerak. Kartina tekisligida tasvirni joylash, uning koʻrinishi qanaqa boʻlishi, qanday format kerakligi (kvadrat, bir yarim kvadrat va boshqalar), qaysi texnikada bajarilishini oʻylab koʻrish zarur. Koʻp holda bajarilish usuli (texnika) mazmuniga bogʻliq. Umuman har safar mazmunga mos tasvirlash vositalarini izlash kerak boʻladi. (31a,b,v,g - rasm).

Kompozitsiyada kontrastlar muhim ahamiyatga ega. Masalan katta va kichik, harakat va turg'unlik, yorqin rang va bo'g'iq rang kabilar. Hammasi taqqoslash natijasida amalga oshiriladi. Muhim qismlarini yorug', yorqin ranglarda ko'rsatish mumkin. Kompozitsiya ustida ishlashda ish boshida yaqqollik, umumiylik zarur. Ortiqcha detallardan, shakllarga ortiqcha ishlov berishdan xoli qilib, mazmuni umumlashtiriladi.

Kompozitsiya mahoratini, badiiy didni yuksaltirish uchun san'at tarixini o'rganish, zamonaviy rassomlar asarlarini o'rganish kerak bo'lsa, nusxa olish katta ahamiyatga ega.

Merosni o'rganish orqali yangi kompozitsiya tuzish, yangilik yaratish mumkin. Ma'lumki, chiziq kompozitsiyada katta rol o'ynaydi. Shuningdek kompozitsiya perspektivada, natura rasmini chizishda badiiylikka e'tibor berib tasvirlanadi.

Kompozitsiyada eng murakkab vazifalardan biri - bu kartinada kompozitsiya rangidir. Shakllarda kontur chizig'i. Siluetdan tashqari, uning maydoni, qiyofasi rang bilan to'ldiriladi. Bu ranglar qanchalik yorqin bo'lsa, u ko'zimizga shunchalik kuchli ta'sir qiladi va kompozitsiya yechimida katta rol o'ynaydi. (8 - rasmga qarang).

Kompozitsiyada rang muammosini har xil rangtasvir maktabi va har xil rassomlar o'zlaricha yechganlar. Umuman kolorit masalasi har bir rassomning didiga, rang sezish xususiyatiga, tarbiyasiga, tarixiy sharoitiga, milliy an'anasiga, ko'zning fizik tuzilishiga bog'liq. Kompozitsiyada shakllar rangi uning garmoniyasiga asoslanib, umumiy rang tusiga moslashtiriladi. Xilma - xillik, rang tuslarining boyligi, kontrastlar bellashuvi, shakllar qurilmasi asarning umumiy tuzilishini aniqlaydi. Rangtasvirda har doim issiq va sovuq ranglar kurashi davom etadi. Har xil tashqi ta'sir sharoitida bir rangning o'zi har xil tusga kirishi, issiq yoki sovuq rang

ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Hamma ranglar bir-biriga bo‘lgan munosabatiga bog‘liq. Shakllar hajmi, qiyofasi och va to‘q bo‘yoqlarda amalga oshiriladi. Och va to‘q rang o‘zgarishi rassom uchun ranglar o‘zgarishidir. Tabiatda ranglar munosabati bir-biri bilan chambarchas bog‘langan. Bir buyumning rangi ikkinchi buyum rangiga ta’sir qiladi va ta’sir qilish rang kuchi sinaladi.

Shuning uchun buyum soyasi va yarimsoyasi och yoki to‘q tusdan tashqari, rangli bo‘lib issiq, sovuq, qizilroq, ko‘kimtir, yashilsimon kabi ranglar ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Bu rang-baranglik umumiy kolorit doirasida bo‘lib, buyumning umumiy shaklini hosil qilishi kerak.

Rangtasvirchi rassom uchun bir xil rang bo‘lmay, u jonli ranglar jilosini ko‘ra biladi. Ko‘ribgina qolmay, umumiy ranglar munosabatlari orasidagi bog‘liqlikni amalga oshiradi. Albatta bu ko‘p yillik mehnat natijasidir, qolaversa tabiat in’om etgan talantdir.

Kompozitsiyada rang – juda nozik narsa. Rangni chuqur o‘rganish, uning nozik tomonlarini bilish buyuk rassomlarni buyuk asarlar yaratishga imkon bergan.

Rangtasvirdan qo‘shimcha ranglardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Buning uchun rangshunoslik qonunlarini bilish, rangni nozik tomonlarini ko‘ra bilish, nozik didga va katta mahoratga ega bo‘lishni talab etadi. Har qanday kompozitsiya eskizdan boshlanadi. Rangtasvirda eskiz – bu bo‘lajak kartinaning loyihasidir.

Eskizda hamma vazifalar aniq o‘ylab topilishi va yechilishi kerak. Eng asosiy amalga oshiriladigan vazifa - bu g‘oya, fikr bo‘lib, oddiy va tushunarli bo‘lishi shart. G‘oya mazmuni muhim hisoblanib, qolganlari unga bo‘ysundiriladi. (36a,b,v - rasmlarga qarang).

Eskiz ishlash shartmi? Albatta, yosh rassom san’atga birinchi qadamidanoq ijodiy eskizdan boshlashi kerak. Eskiz

faqat kartina uchungina emas, balki portret uchun ham, manzara uchun ham, shuningdek akademik chizmatasvir uchun ham kerak.

Yaxshi san'at maktabi o'z o'quvchilarini tarbiyalashda rasm chizishga, tabiatni o'rganishga, eng muhimi talabani chizishga o'rgatishi kerak. Akademik maktab juda muhim, chunki usiz katta mahorat egasi bo'lish qiyin. Eskiz ustida ishlashda aniqlik, badiiy obraz izlash muhim narsa. Bunda guruh qomatlar, buyumlar, manzaralar va boshqalar joylashuvi, shuningdek shakl siluettlari, asosiy chiziqlar, rang bo'lakchalari, eng muhimi – badiiy obraz yaratish asosiy maqsaddir.

Eskiz – bu kompozitsiya demakdir. Ammo kompozitsiya eskiz bilan tugallanmaydi, u ham davom ettiriladi va kartinada oxirgi nuqtagacha mukammalashtiriladi.

Kartinada badiiy obraz yaratish kompozitsiya orqali amalga oshiriladi. Badiiy obraz yaratish muhim bo'lib, bo'lajak kartinaning eskizlarida bosh maqsad hisoblanadi.

Kartina rassomning ijodiy hayoli asosida yaratiladi, ko'rsatiladi. Uning kuchi va muhim tomoni ana shundadir. Kartina fotosurat kabi hujjat emas. U shu zamon kishilarining tuyg'usini va fikrini aks ettiradi.

G'oya – kartinaning asosidir. Kompozitsiyada shakllar va qiyofalar (siluet)ni moslab, uning ruhiy mohiyatini, fikrni ifodalashni esdan chiqarmaslik kerak.

Bir kartina uchun topilgan kompozitsiya boshqa bir kartina syujeti uchun umuman to'g'ri kelmasligi mumkin.

Rassomlarda eng muhimi – bu ijodga qadam qo'ya bilish, chuqur tushunish, hayot hodisalarini sezish, ularni fikrlash va o'zicha ko'rsata bilish, tomoshabinni to'lqinlantira olish, ularni ruhan boyitish demakdir. Rassom boshqalarga nisbatan hayotdagi yangiliklarni, go'zallikni tez ilg'ab, o'z ijodi bilan dunyoni chuqur, keng, ravshan ko'rishga yordam beradi.

Tayanch iboralar: rassom, rangtasvir, kolorit, chizmatasvir, rang, vosita, fazoviy qurilma, syujet, kompozitsiya, shakl, kartina, bosh qahramon, rang.

Savollar

1. *Rassom kim?*
2. *Rangtasvir asari mavzmuniga qarab qanday janrlarga bo'linadi?*
3. *Kompozitsiya nima?*
4. *Kompozitsiya nima bilan bog'liq?*
5. *Kompozitsiyada ranglar uyg'unligi nima?*
6. *Realistik rangtasvirda chizmatasvirning o'rni qanday?*

5.3. Syujetli kompozitsiya

Biz shahar ko'chalarida yurganimizda tevarak atrofni kuzatar ekanmiz "Shahar mavzusiga taalluqli uylar, qurilishlar, odamlar harakatini ko'rganimizda ular mavzuga asos bo'la oladi. Rassom shu voqealardan ta'sirlangan holda o'z qalbidan o'tkazib yorqin hayot, quvonch haqida mavzuli asar yaratishi mumkin. Qishloq hayoti ham o'zgacha bo'lib, mehnat sharoiti, insonlarning tabiatga, yerga bo'lgan munosabati, hayot tarzi, ularning dunyoqarashi haqidagi mavzu asos bo'lishi, shuningdek kitob o'qish orqali xilma-xil mavzular paydo bo'lishi aniq. Hayotning bugungi kunda eng qiziqarli mavzulari haqida asar yaratish, tomoshabinni qiziqтира oladigan holda mukammal kompozitsiya hosil qilishni rassomdan fikrlashni talab qiladi».

Dastgohli rangtasvir san'atning keng tarqalgan va muhim turlaridan biri syujetli nafis tasviriy san'at (maishiy, tarixiy, jang, mifologik) turidir.

Bu janrdagi kartinalar odamlar hayotini, ularning quvonchi va qayg'usini, erishgan yutug'ini hikoya qiladi, oldingi yashab o'tgan kishilar hayotini tushunib yetishiga yordam beradi.

Syujetli nafis tasviriy san'at rassomlari o'z mavzusining ko'p qismini atrofidagi hayotdan oladi. Bunday rassomlar tasviriy san'at maishiy yoki janrli deb ataladi. Sayyor rassomlar maishiy rangtasvirda sezilarli muvaffaqiyatlarga erishgan. (32-rasmga qarang).

Janrli kartina kompozitsiyasi g'oyaviy fikr bilan aniqlanadi. Eng savodli tug'ilgan kartina chuqur fikrga ega bo'lmasa, u hech qachon badiiy asarga aylanmaydi. Kompozitsiya ustida ishlash jarayoni - bu boyitish jarayoni, har tomonlama ishlov berish va g'oyaviy fikrni amalga oshirish.

Eskizni faqat hayolda fikr g'oya tug'ilsagina ishlash mumkin. qiziqarli mavzu topilmaguncha kompozitsiya bilan shug'ullanib bo'lmaydi.

Asar mavzusi, g'oyani, his - tuyg'uni va fikrni rassomning kompozitsiyasi o'z ichiga oladi. Albatta mavzu hayotiy lavhalardan, kechinmalardan tug'iladi. Uni sun'iy tanlab bo'lmaydi. Agar rassomda qalbdan kelib chiqib, yangi, muhim narsalarni xalqqa aytish istagi bo'lmasa va mavzu tanlasa, u badiiy asar yarata olmaydi. Kartinada mavzu bo'lishi mumkin, ammo g'oya bo'lmasligi mumkin. Mavzu topilsa rassom, tarix, hujjat, portret yoki manzara ashyolarini o'rganish ustida qizg'in ish boshlaydi. Bunday ashyolarni chuqur o'rganish natijasida ijodiy tasavvurida kartina syujeti tug'iladi. Syujet topilishi har qanday realistik asarning zaruriy asosidir. Syujet asar qahramonlarining sonini, ularning joylashuvini, qiyofalar o'lchamini, ko'rish nuqtasini tanlashni aniqlaydi.

Bitta mavzu har xil syujetda ifodalanishi mumkin.

Topilgan syujetni chuqur va to'la kartina mavzusida ochib berish uchun ko'p qoralamalar chizish zarur bo'ladi. Syujet aniqlangandan boshlab kompozitsiya eskizi ustida ishlash boshlanadi. Birinchi eskizni uncha katta bo'lmagan hajmda akvarel yoki moybo'yoqda bajarish ma'qul. Kichik formatda asosiy kompozitsiya tuzilishini aniqlash yengil. Ana shundan keyin kattaroq o'lchamli eskizga o'tish mumkin.

Eskiz – bu kartina loyihasi, kartina ustida ishlashning birinchi bosqichi. Eskizda xolst formati, tasvir o'lchamlari, ko'rish nuqtasi, gorizont balandligi aniqlanadi. Eskiz variantlarida ifodali, aniq yechim, buyum va obyektlarni haqqoniy joylashtirish, qiyofalarni guruhlashtirish, g'oyaviy markazni aniqlash amalga oshiriladi. Kompozitsiyada ortiqcha shakl, qiyofa bo'lmasligi kerak. Har bir qiyofa umumiy g'oyada o'z vazifasini belgilashi va hamma holatlar mavzuni ochib berishga yordam berishi kerak. (36 b,v - *rasmga qarang*).

Asarda voqea harakatini tanlashda bir harakatdan boshqa harakatga o'tish davrini tanlash lozim, ya'ni bo'lib o'tgan voqeani anglab, nima bo'lishini topish holati maqsadga muvofiq.

Kartina mazmuni, g'oyasi birinchi ko'rishdayoq o'qilsa, eskiz yaxshi topilgan deyish mumkin.

Kompozitsiya sifatini yaxshilashda qiyofalarni qog'ozdan yasab qirqiladi va eskiz variantiga asosan qo'yilib, har xil o'zgartirishlar bilan natijaga erishish mumkin. Ana shundan keyin yana eskizni davom ettirib, oq va qora tus qismlari aniqlanadi.

Eskizni rangda ishlov berishda kartina tomoshabinga yaxshi ta'sir qilishi uchun mavzu, g'oyaga asosan kolorit yaratishi kerak. Kartina koloriti tasvirlanayotgan holatning tusiga va rangiga, kun vaqtiga, ob - havo sharoitiga mos kelishi kerak. Eskizda rang qurilishi shunday tashkil qilinishi

kerakki, u yoritilish holatini, kompozitsiya markazini aniqlashga xizmat qilib kartinani ta'sir kuchini to'ldirishi kerak.

Eskizda kompozitsiya hal bo'lgandan keyin kartinaga etudlar bajarishga o'tiladi. Buning uchun kartinaga kerakli manzara, buyum shakllari, portret va tipajlar tanlanadi.

Kartina uchun etudlar ishlashda kartina g'oyasiga mos kelishini unutmaslik lozim. Tegishli etudlar va eskizlar tayyor bo'lganidan keyin asar hajmida kartonga chizmatasvir bajarish kompozitsiyaning muhim bosqichi hisoblanadi. Kartonda kompozitsiyani tanlangan hajmda oxirgi eskiz varianti tasvirlari joylashtiriladi, qismlar nisbati aniqlanadi, detallari puxta ishlanadi. Karton ustida ishlash jarayonida qo'shimcha naturadan kartonga tegishli ma'lumotlar yig'iladi. Ayrim qismlardan chizmatasvirlar bajariladi. To'raligicha eskiz va karton bajarib tugatmasdan kartina ishlashni boshlamaslik kerak. Aks holda ko'p marta qayta-qayta to'g'rilash, tuzatish zarur bo'ladi. Janrli kompozitsiyada eng muhimi, odamlar obrazini to'g'ri va chuqur ko'rsatib berish. Asarda jonli odamlar o'rnini qomat va bosh sxemalari ko'rsatilgan bo'lsa, kartina hech qachon ma'noli va ifodali, badiiy bo'lmaydi. Har qanday rang-baranglik ishlov va kompozitsiya usuli yordam bermaydi.

Talabalar kompozitsiya ishining asosiy kamchiligi - bir xillik ishlash usuli, boshqa rassomlarning kompozitsiyasiga taqlid va takrorlashi, xarakterli tipajlar tanlashdagi kamchilik, qomatlarning harakatida va o'tirishida notabiiylikka, aldamchilikka yo'l qo'yishidir.

Buyuk rassomlar asarlari yaratilishini o'rganib qarasak, ularning eskiz ustida tinmay ishlagani, kerakli ashyolarni yig'ishdagi mehnati, joni-dilidan berilib ishlaganlari ma'lum. Kim - ki bunga amal qilar ekan yaratgan asarlari muvaffaqiyat keltiradi.

Biz shahar ko‘chalarida yurganimizda tevarak atrofni kuzatar ekanmiz “Shahar mavzusiga taalluqli uylar, qurilishlar, odamlarni ko‘rib ular mavzuga asos bo‘lishi mumkin. Rassom shu voqealardan ta’sirlangan holda o‘z qalbidan o‘tkazib yorqin hayoti, quvonchi haqida mavzuli asar yaratishi mumkin”.

Qishloq hayoti ham o‘zgacha bo‘lib, mehnat sharoiti, insonlarning tabiatga, yerga bo‘lgan munosabati, ularning dunyoqarashi haqidagi mavzu asos bo‘lishi, shuningdek kitob o‘qish orqali xilma xil mavzular paydo bo‘lishi aniq. Hayotning bugungi kunda eng qiziqarli mavzulari haqida asar yaratish, tomoshabinni qiziqтира oladigan holda mukammal kompozitsiya hosil qilish rassomdan fikrlashni talab qiladi.

Obraz. Tevarak atrofda ko‘rgan hayot muhim va qadrli voqealarni tasvirlash bilan tugadi deyish kamlik qiladi. Ko‘rganlarni shunday tasvirlash kerakki, uning mazmunini va ahamiyatini sezilarli darajada go‘zalligini ko‘rsata olish kerak. Tasvirlanayotgan odamni xarakterini, ruhiy holatini o‘tkir ta’sirchan qilib tasvirlash kerak. Umuman aytganda uning obrazini, badiiy ta’sirchanligini yaratish zarur¹¹.

Tayanch iboralar: rangtasvir, etud, obraz, xarakter, kolorit, chizmatasvir, rang, fazoviy qurilma, syujet, kompozitsiya, shakl, talaba, kartina.

Savollar

1. Syujetli kartina nima?
2. Dastgohli rangtasvir san’atning keng tarqalgan va muhim turlaridan biri nima?
3. Tegishli etudlar va eskizlar tayyor bo‘lganidan keyingi bosqich qanday?

¹¹ Энциклопедический словарь художника. Москва. «Педагогика» 1983.

4. *Talabalar kompozitsiya ishining asosiy kamchiligi nimada?*

5. *Buyuk rassomlar kompozitsiya ustida ishlashlari qanday bo'lgan?*

6. *Mukammal kompozitsiya hosil qilish uchun rassomdan nima talab qilinadi?*

7. *Obraz nima?*

8. *Obraz orqali nimalar tasvirlanadi?*

5.4. Kartina formati (o'lchami)

Format (hajm) bu kartina yashaydigan uy. Yashash uchun katta uy kenglik qiladi, kichik uy torlik qilib, uy anjomlari siqilib qoladi. Tasvirlar o'lchami kartina hajmiga nisbatan asossiz belgilanmaydi. Ba'zi holatda kenglikni talab qilsa, ba'zi holatlarda torlikni his qilishni talab etiladi. (masalan: V. Surikovning "Beryozovkada Menshikov" kartinasi). (33 - rasm).

Kartina tekisligi markazida yoki chekkalardan biriga yaqin joylashuviga ham befarq emas. Eskiz ishlashning oxirlarida hajm aniqlanib, boshdan belgilash, izlash davom etadi. O'lcham kartinaning mazmuniga bog'liq. Kompozitsiyada muvozanatlar muhim ahamiyatga ega. Shakllar joylashuvi asosida amalga oshiriladi. Masalan, bir tarafda odam qomatlari joylashgan bo'lsa, boshqa tomonida shakllar joylashtirilishi mumkin. Klassik san'at asarlarida kompozitsiyada tenglikka katta ahamiyat berganlar. Zamondosh rassomlar esa tenglik holatini buzishga harakat qilib, ta'sirchanlik xususiyatini oshirishga harakat qiladilar.

Kartinada tasvirlanayotgan qomatlar, shakllar, buyumlar kartina tekisligida kompozitsiya mavzusiga mos ravishda joylashtirilishi kerak. Kartinadagi tasvir yaxlit va bo'laklarga bo'linmas darajada bo'lishi maqsadga muvofiq.

Kartina xarakteriga qarab hajm eni va bo'yi nisbatiga ega bo'lishi kerak. Ba'zi kartina tasvir xarakteriga qarab katta yoki kichik o'lchamli nisbatda bo'lishi mumkin. Masalan, Fedotov kartinalari kichik formatni, Surikovning tarixiy janrdagi asarlari katta formatni talab qiladi. Ba'zi kartinalar formati to'g'ri tanlanmagani uchun muvaffaqiyatli chiqmasligi mumkin. Kartina tekisligida bosh voqea markazda yoki chekkalardan biriga yaqin joylashuviga ham befarq emas.

Kartina format o'lchami muhim holatlardan biridir. V.Surikov keng shaklli o'lchamlardan foydalanib, ko'p qomatli kartinalar yaratgan. «Menshikov Beryozovkada» kartinasida format o'lchami kvadrat qilib olingan. Ammo qahramon o'rnidan tura olmaydi, chunki bo'yi go'yo yuqori shipga tegib qolayotganday. Rassom buning bilan tarixiy qahramonni zindonband ekanligini ko'rsatmoqchi bo'lgan.

Uyg'onish davri rassomlari kartina tekisligi o'lchamiga katta e'tibor berib 5:8 nisbatda ishlashni yaxshi ko'rganlar. Kartina kompozitsiyasida uchlik shaklidan ko'p foydalan-ganlar. Zamonaviy rassomlar ham o'z mavzularini to'la ochib berish maqsadida an'anaviy uchlik shaklidan foyda-lanib kelmoqdalar.

Eskiz ishlashning oxirlarida hajm aniqlanib, boshdan belgilash, izlash davom etadi. O'lcham kartinaning mazmuniga bog'liq. Kompozitsiyada muvozanatlar muhim ahamiyatga ega shakllar joylashuvi asosida amalga oshiriladi. Masalan, bir tarafda odam qomatlari joylashgan bo'lsa, boshqa tomonida shakllar joylashtirilishi mumkin. Klassik san'at asarlari kompozitsiyasida tenglikka katta ahamiyat berganlar. Zamondosh rassomlar esa tenglik holatini buzishga harakat qilib, ta'sirchanlik xususiyatini oshirishga intiladilar.

5.5. Kartina ishlash jarayoni

Rassomlarning kartina ustida ishlash jarayoni uzoq davrni, ba'zan ko'p yil davom etib, izlanadilar. Rus rassomi A.Ivanov o'zining taniqli asari "Xristosning xalqqa ko'rinishi" kartinasini yigirma yildan ortiq ishlagan. Ammo shu vaqt davomida faqat kartina oldida turib ishladi degani emas. Shu davrda kartina detallari uchun plenerda etudlar, chizmatasvirlar yuzlab ishlagan. Oraliqda bajargan etudlari orasida tugallangan asar darajasidagilari ham ko'pgina.

Kartinani ishlashda naturadan foydalanish yaxshi, ammo uni kartinaga to'g'ridan - to'g'ri ko'chirish kerak emas. G'oyani amalga oshirishda bitta eskiz bilan chegaralanmay, yangisini bajarish ham yaxshi natija beradi. Buyuk rassomlar tajribasidan ma'lumki, bitta kartina uchun o'nlab eskizlar bajarganlari ma'lum. (masalan: V.Surikovning "Boyar ayol Morozova" kartinasi uchun bajarilgan eskizlar). (8, 36 b - *rasmga qarang*). Rassomning tasviriy san'at asari ustida ishlash usuli ijod davrida bir necha bosqichlarga bo'linishi mumkin. Ya'ni mazmun va shakli yagona umumlashtiriladi. Ijodiy davr yakunida ma'no va mazmun shaklga keltiriladi. Bir qator ijodiy jarayon davrining analizi - san'at nazariyasining muhim vazifasi. Shu maqsadda san'at asarini bir necha qism va elementlarga bo'lishga to'g'ri keladi. Buni esa faqat nazariy amalga oshirilishi mumkin. Ijodiy jarayon davrining muhim tomonlaridan biri - bu eng avvalo fikrning tug'ilishi, fikr yig'ilishi va fikrni olib chiqish. Ana shu ishlar mahsuli kompozitsiya ustida ishlash usuliga bog'liqdir. Ma'lumki, hatto portret yoki manzara naturadan ishlamayotgan davrda ham kompozitsiya to'g'risida o'ylamasdan ishlash maqsadga muvofiq emas. Chunki, ularning ko'rish nuqtasini tanlashda, tasvir elementlarini joylashtirishda, detallarni saralashda ham kompozitsiya muhim ahamiyatga

ega. Kompozitsiya orqali rassomning naturaga bo'lgan munosabati, uni tushunishi va unga bergan estetik bahosi ham mujassamlanadi. Shunday qilib, rassom kompozitsiya orqali qiziqishini va o'zini to'ldirantirgan tomonlarini aks ettiradi. Shuning uchun kompozitsiyani haqiqatan ham ijod jarayonining boshlanishi deb hisoblash mumkin. Bundan shuni tushunishimiz maqsadga muvofiq bo'ladiki, hatto o'quv mashqlari ham agar real ko'rinish(natura)ga bo'lgan munosabati aks etsa badiiylik ko'rinishida bo'ladi. Aks holda real ko'rinish (natura)ni ko'r - ko'rona ko'chirmaslik kerak. Real ko'rinish (natura)ni butun borliqni his qilish muhim ahamiyatga ega bo'lib, rassomning dunyoqarashi aks etgan kompozitsiyaning birinchi manbaidir. Shaxsiy ijodiy usul (dastxat)ga ega bo'lish uchun o'qish, amaliy mashq jarayonidagi kasbiy bilim, umumta'lim bilimlari kamlik qiladi. Bu bilimlar rassom dunyoqarashiga, dunyoni his qilishiga, mustaqil fikrlashga yordam berishi kerak.

Asar mavzusida kartina ishlash davomli bo'lib, bir necha bosqichlardan iborat bo'lishi mumkin, ya'ni ijodiy ish jarayoni uchun mavjud fikrlar majmuiga ega bo'lish, ijodiy ish jarayoni uchun boshlang'ich ma'lumot yig'ish, mavzu tanlash, qoralamalar tayyorlash, foreskiz, eskiz variantlari tayyorlash, keyingi bosqichlarda tayyorlangan eskizlar yordamida asar yaratish. Demak, ashyolar (ma'lumotlar) yig'ish to'la maqsadga yo'naltirilgan bo'lsa, u foydali bo'lib, rassom suhbatlarda, kitob o'qishda, hayotiy ma'lumotlarga ega bo'lib, xotirasini boyitadi. Ana shu ma'lumotlar kompozitsiya uchun muhim ashyo hisoblanadi. Birinchi bosqichda yig'ilgan bilimlar asosida kompozitsiya ustida ishlab mashqlar olib boriladi. Aniq mavzu tanlangan bo'lmasada, muhit bilan buyum real ko'rinish (natura) orasidagi ma'noli bog'liklik xilma - xilligini chuqur o'rganish mumkin. Hayotni har tomonlama o'rganish rassomga chiroyli va haqqoniy

hayotiy kompozitsiya yaratishga yordam beradi. Odamlar va hayvonlardan qoralama (nabroska)lar ishlash, xayoldan kompozitsiya uchun rasmlar chizish, alohida xarakterga ega odamlar chizmatasviri, erkin mavzuda kompozitsiya yaratish, natyurmort tuzish, xonada jonli qomatli rasmlar chizish mashqlari tavsiya etiladi. Ushbu bosqich davri qanchalik qiziq o'tsa, shunchalik fikr va kompozitsiya mavzusi aniqlashib boradi. Fikr va g'oyalar taassurotlar asosida tug'ilishi mumkin. Bunga rassomning ko'p yillik kuzatishi, ashyolar yig'ishi, aql - zakovati, kuch - quvvati, hayotni o'rganishi va uni xotirasida idrok qilishi, aks ettirishi katta ahamiyat kasb etadi. Asta - sekin yoki birdaniga g'oyaning tug'ilishi rassomning individualligiga, ya'ni, shaxsiy ijodiy xususiyatiga, qolaversa talant darajasiga bog'liq. G'oyaning birinchi davrida kompozitsiya elementlari taxminiy holatda bo'lib, mazmun va g'oya, element va detallarini aniqlashga undaydi.

Kompozitsiyani ishlash jarayoni ijodiy va texnik muam-molarni mohirlik bilan, shuningdek, san'at nazariyasi bilim-lari, kompozitsiya qonunlari asosida yechishni o'z ichiga oladi. Eng birinchi shartli ravishdagi qoralama eskizini yara-tish jarayonida kompozitsiyaning umumiylik va ziddiyat (kontrast) qonunini esdan chiqarmaslik kerak. Ushbu qonun-lar asosida birinchi eskizdayoq rassomni hayotiy, mukammal san'at asari yaratishi haqidagi fikrlarga ega bo'lish mumkin.

Yaqqollik qonuni ta'sirida konstruktiv g'oyani aniqlash, bo'lg'usi asarning detallarini umumiy maqsadga birlashtiradi. Har bir rassom kompozitsiya g'oyasini ochib berishda o'ziga xos yo'l, o'zining uslubidan foydalanib maqsadga erishadi. Ba'zilar avval hamma narsani chizadi, keyinchalik yig'ilgan ashyolar asosida konstruktiv g'oyani izlaydi. Boshqalar real ko'rinish (natura)da ko'rgan narsalarini kompozitsiyaga joylashtiradi. Har qanday holatda ham kompozitsiya asosida

konstruktiv g'oya-mazmun rivojlanishi yotadi. Kompozitsiyada konstruktiv g'oya yaxlitligi uchun ziddiyat(kontrast)lar qonunlari asos bo'lib, asarni idrok qilishda qarama-qarshi qo'yilgan qismlar, ranglar katta yordam beradi. Ma'lumki odamning buyum va shakllarni idrok qilishida, uning siluetlarini va atrof - muhitlari ziddiyat (kontrast)ini ko'radi. Tanish buyumlarni uzoq masofadan uning silueti orqali ko'rib taniymiz va uning hajmini yorug'lik va soya ziddiyat (kontrast)i yordamida ko'ramiz. Rangtasviri ham issiq va sovuq ranglar qarama-qarshiligi qurilishida tuziladi. Ranglar kuchi esa qarama - qarshi rangni yonma - yonligi asosida kuchaytiriladi. Ya'ni qizil rang, yashil rang bilan ko'k rang, zarg'aldoq rang bilan oq rang, qora bilan, shuningdek, va boshqalar bir-biriga nisbatan rang kuchini oshiradi. Avvaldan ma'lumki rassomlar yorug' rang ziddiyat (kontrast)ini to'q fonda ishlatib kelganlar. Shuningdek aksincha ham bo'lishi mumkin. Masalan: I.Repinning «Burlaklar Volga bo'yida» asarini olaylik. *(34-rasmga qarang)*. Bir guruh to'q (qoramtir) rangdagi burlaklar yorqin quyoshda qumli qirg'oqdagi ziddiyat (kontrast) asarda yaxlitlik hosil qiladi. Bunday ziddiyatlar kompozitsiyada go'zal yaxlitlikni ifodalaydi. Kompozitsiyada ziddiyatlilik badiiy obraz xarakteri bilan uzviy bog'langan. Kompozitsiya ishlash jarayonida g'oyaviy fikr va badiiylik keng o'rin tutadi. Konstruktiv g'oyada badiiylik asosi va yaxlitlik qonuni, inson qiyofalari (tipajlar) individualligi muhim ahamiyatga ega bo'lib, inson xarakterini ochib berishda katta rol o'ynaydi. Bir qarashda hamma odamlar bir xil ko'rinsa-da, ammo alohida sinchiklab qaralsa, ularning farqini ajratib olish qiyin emas. Bu ziddiyatlilik kompozitsiyada muhim ahamiyatga ega bo'lib asarni boyitadi, ta'sirchanligini oshiradi.

Tayanch iboralar: o'lcham, format, rangtasvir, etud, obraz, xarakter, kolorit, chizmatasvir, rang, fazoviy qurilma, sujet, kompozitsiya, shakl, kartina, A.Ivanov.

Savollar

- 1. Kartina formati nima?*
- 2. Kartina tekisligi nima?*
- 3. Kartina o'lchami nimaga bog'liq?*
- 4. Kartinada tasvirlanayotgan qomatlar, shakllar, buyumlar qanday joylashtiriladi?*
- 5. A.Ivanov o'zining taniqli asarini necha yil ishlagan?*
- 6. Kartina ishlash bohqichlari qanday?*
- 7. Birinchi bosqich nimadan iborat?*
- 8. Kompozitsiya nimani o'z ichiga oladi?*

5.6. Kartinada kompozitsiya qurilmasi

Tasviriy san'at asari yaratilishi kompozitsiyadan boshlanadi. Kartinada qo'llanilayotgan sxema tuzilishi va butunligini umumlashtirish rassom tomonidan ishlab chiqiladi. Kompozitsiyada bu sxema, karkas, skelet kabilar tasvirga aniqlik kiritadi, harakatlarni tashkil qilib, tasvirni ta'sirchanligini oshiradi. Kompozitsiya tuzilishi diagonal bo'ylab, uchburchak shaklida, doira yoki yarim doira shaklida rivojlaniishi mumkin. Shuningdek, kartina markazida shakllar yig'ilgan yoki tarqoq va markaz atrofida joylashtiriladi. Kompozitsiya sxemasi faqat kartina tekisligida emas, balki bo'shliq perspektivasida quriladi. Kompozitsiya qurilmasi prizma, silindr, kosa, piramida, konus kabi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Kartinaning inson ruhiga nimaga va qanday ta'sir qiladi? Kartina qurilmasi nima vazifani bajaradi? Kompozitsiya qurilmasining o'zi nima? Uni qanday tushunish kerak?

Bu borada masalan, o'simlikni olaylik. Uning qurilmasida tana, shoxlari, barglari juda mukammal joylashgan bo'lib, hayratlanarli ko'rinishni tashkil qiladi. Kungaboqarni olaylik, barglari juft holda tanasiga joylashgan. Quyosh nurida tovlangan sariq boshi mayda yaproqchalari bilan jozibali ko'rinishni tashkil qilgan. O'simlik dunyosida chiroyli qomatli, egilib bukilgan, mag'rur, nafis va yengil turlari mavjud. Turlarining chegarasi yo'q. Tabiatdagi mo'jizalar bizni cheksiz taassurotlar olamiga yetaklaydi. Qushlar, baliqlar, to'rtoyoqlilar - hamma joyda ularning tuzilishi, shakli o'zlariga xos. Kompozitsiya qurilmasida ham mazmun shaklni ifodalaydi. Tabiatdagi shakllar qiyofasi, uning chiziqlari, bir - biri bilan bog'lanish mukammalligi san'atda ijodning asosiga ta'sir qiladi. (29,36-rasmlar).

Syujet mavzuli kompozitsiyada harakatni ifodalash katta ahamiyatga ega. Hayotning o'zi ham harakatdan iborat. Butun tirik jon tarixi harakatga asoslangan. Odam yoki hayvon harakatlanish davrida o'z qomatini o'zgartirib, egiladi, bukiladi. soch va kiyimlari havo oqimida har xil o'zgaradi. Bularning barchasini yurganida, yugurganida, sakraganida, egilganida o'zgarishini kuzatamiz. Odam yoki hayvonni harakatdagi holatini tasvirlash uchun odam va hayvon anatomiyasi skelet qurilmasini yaxshi bilish, kuzatish kerak,

Kartinada harakat taassurotini hosil qilishda kompozitsiyaning roli katta. Kompozitsiyada kartina formatiga joylash, chiziqlar yo'nalishi, kontrastlar, yorug'lik kabi hamma vositalar dinamik harakat qurilmasini ta'sirchanligini oshirishga jalb qilinadi. Kartinada ichki harakat ham mavjud. Kartinada odam qiyofalari tinch holatda, g'azablangan, ta'sirlangan ichki harakatda bo'lishi ham mumkin. Kompozitsiyada bunday notinch holatlarni tasvirlashda; chiziqlar silliq yoki aksincha to'liqinsimon, spiral, biri ikkinchisiga qarama-qarshi

ko‘rinishlarda tasvirlanadi. Buyuk rassomlar asarlarida bular katta ahamiyatga ega bo‘lib, kartina ruhini oshiradi.

5.7. Portretda bosh va qomat tasviri

Qoidaga binoan portretda boshni tasvirlashda uning haqiqiy o‘lchamidan katta bo‘lmasligi kerak, balki kichikroq tasvirlanishi zarur. Ayniqsa yelkali portretda yoki faqat boshning o‘zi bo‘lsa kichikroq tasvirlanishi maqsadga muvofiq.

Bu qoidaga hamma dastgohli rangtasvir san’ati, natyurmort va mavzuli kartina turlari amal qiladi. Tarixiy va jang kompozitsiyasida oldingi plandagi qomatlar birmuncha kattaroq bo‘lishi mumkin. Portret janrida boshni joylashtirishda kartina tekisligining geometrik markazida yoki markazga yaqinroq joyda tasvirlanadi. Boshning burilishidan qat’i nazar kompozitsiya markazida joylashtirilishi kerak. Agar portretda bosh profil bo‘lsa, rassom tasvirlanayotgan kishining qaysi tomonga qarashiga qarab, shu tomondan ko‘proq joy qoldiriladi. Ba’zi holda qoldirilmasligi ham mumkin. *(17-rasmga qarang)*.

Masalan, V.Serovning «M.Yermolova portreti» bunga misol bo‘ladi.

Tayanch iboralar: qurilma, o‘lcham, format, rangtasvir, portret, etud, obraz, kolorit, chizmatasvir, rang, syujet, kompozitsiya, shakl, kartina.

Savollar

1. *Kartinada kompozitsiya qurilmasi nima?*
2. *Tasviriy san’at asari yaratilishi nimadan boshlanadi?*
3. *Kompozitsiya tuzilishi nimalardan iborat?*
4. *Kompozitsiya qurilmasi ko‘rinishi qanday?*

5. Odam yoki hayvonni harakatdagi holatini tasvirlash uchun nimani bilish kerak?

6. Kartina tekisligi nima?

7. Kartina o'lchami nimaga bog'liq?

8. Kartinada tasvirlanayotgan qomatlar, shakllar, buyumlar qanday joylashtiriladi?

9. Portretda boshni tasvirlashda nimaga e'tibor berish kerak?

10. Portret janrida boshni joylashtirish qanday?

VI BOB. KOMPOZITSIYA VAZIFALARI VA UNING AHAMIYATI

6.1. Uslubiy ko'rsatma

Ba'zi kishilar rassom yaxshi rasm chiza olsa va naturadan yaxshi yoza olsa, o'z-o'zidan yaxshi nafis san'at asarini yaratib ijodiy faoliyatida muvaffaqiyatga ega bo'ladi deb biladilar. Ammo naturani to'g'ri tasvirlash haqiqiy tasviriy san'at yo'lidagi birinchi pog'onadir. Ijodda eng muhimi o'z fikrini va qalb hissini ifodalash mahoratiga bog'liq.

Naturani chiroyli ranglarda, borliqni haqqoniy tasvirlagan bilan u hali san'at darajasida bo'lmasligi mumkin.

Asar yaxshi ishlangani bilan u naturani bo'sh ko'chirilgan, hayotiy umumlashtirishdan uzoq, muallif fikri va his tuyg'usiz bo'lishi mumkin. Naturadan etud chizish - bu tabiatni o'rganish demakdir. U ham zarur, usiz ijod qilish qiyin. Naturadan etud chizish kamlik qilib ijodkor rassomdan yana boshqa sifatlarni ham talab qiladi. Rassom borliqni tasvirlar ekan, tabiatning o'ziga xos muhim tomonlarini, qiziqarli holatlarini belgilashi unga nisbatan munosabatini bildirishi zarur. Haqiqiy rassom borliqning ayrim qirralarini umumlashtiradi, muhim xarakteriga urg'u beradi. Rassom badiiy obraz mukammalligiga erishish maqsadida kompozitsiya ustida o'ylaydi. Kartina tekisligiga buyumlarni joylashtirishda hamma tasvirlanayotgan qismlarini bir fikrga bog'laydi.

Agar kompozitsiya vositalari asar g'oyasi bilan bog'liq bo'lsa tasvir badiiylik jihatdan puxta bo'ladi. Syujet,

qahramonlarning psixologik xarakteristikasi, kolorit - hammasi o'zaro bog'liq bo'lishi g'oyaviy fikrga xizmat qilishi lozim. G'oyali va mohir kompozitsiya ustasi bo'lmay turib puxta badiiy obraz yaratib bo'lmaydi. Manzarada, natyurmortda va boshqa janrlarda ham g'oyaviy mazmun bo'lishi kerak. Kompozitsiyasiz tasviriy san'at naturalistik illyustratsiya yoki formalistik sxema bo'lib qolish xavfi bor. Asarda haqiqiy g'oyaviylik shundaki, unda murakkab fikr va hayotiy kechinmalar o'z aksini topishi kerak. Rassom fantaziyasi, hayoliy kuchi hayotda ko'rgan - bilgan xom manbalarga yaxlit obraz berish, tashkil qilishni taqozo qiladi. Bularsiz rassom faqat naturani ko'ribgina estetik natijaga erisha olmaydi.

Badiiy fikrlash, tasvirlashga ijodiy yondashish, hayotni va tabiatni sevishni uyg'otish kamlik qilib, bundan tashqari kompozitsiya mashg'ulotida kartina tekisligida kompozitsiya tuzish, ritm qonunini, shakl va rang kontrastini taqqoslash, dog' va og'irlik muvozanatini shakllantirish, ikkinchi darajali qismlarini birinchi darajali qismlarga bog'lash kabilarni ham mashq qilish kerak.

Kartinaning kompozitsiya qurilishi qoida va sxemalar bilan emas, balki asarning mazmuni va g'oyasi bilan aniqlanadi. Eng savodli joylashtirilgan asar fikrsiz, chuqur ma'nosiz bo'lsa kartina badiiy asar bo'la olmaydi. Buni yosh rassomlar hech qachon esdan chiqarmasligi kerak.

Kartina kompozitsiyasini boshlashdan avval fikr - g'oyaga ega bo'lishi kerak. Fikr kompozitsiyasi qurilishini izlash uchun boshlovchi asosdir. U mavzu, syujet tanlashni, kompozitsiya butunligini va rang (kolorit) tuzilishini aniqlaydi. Asar fikri hayotiy tajriba, kechirgan his tuyg'u asosida bunyod bo'ladi. Kompozitsiyani hayotdagi qiziq va muhim voqealarni, tabiat go'zalligini sezishni bilmay turib, o'rganib bo'lmaydi, obraz ustida ishlash insonning fikrlash

qobiliyati bilan bog'liq. Kartina mavzusi va badiiy idrok qilish hayotni chuqur bilish asosida dunyoga keladi.

Fikrga ega bo'lmasdan turib, kartina kompozitsiyasini ishlash, nima haqida gapirishni bilmay turib, nutq so'zlash demakdir. Hayotni chuqur bilmasdan kompozitsiya syujeti va mavzusi ustida ishlashda kartina qahramonlarining psixologik xarakteri ishonarli chiqmaydi.

Kompozitsiyani o'rganish jarayonida yosh rassom hayotdagi qiziq, muhim, go'zallikni sezish qobiliyatini rivojlantirib borishi kerak.

Bundan tashqari chuqur bilimga, falsafa, adabiyot, san'at va boshqa fanlardan ham xabardor bo'lishi kerak. Umuman rassomning ijodiy ishlashi o'z fikri va hayotiy kechinmalarini boshqa odamlar bilan o'rtoqlashish, sherik qilishdan, ijtimoiy hayotda ishtirok etishdan kelib chiqadi. Boshqalar qalbiga kirib borish, o'z hayot kechinmalariga hamdard qilishga harakat qiladi.

Ijodiy ishlash uchun ko'z, xotira qobiliyatini rivojlantirib, katta kuzatuvchanlik zahirasi ega bo'lish zarur. Rassom qayerda bo'lmasin ko'rgan narsalarini eslab qolishga harakat qilishi va qoralama, etudlar bilan xotirani to'ldirib borishi kerak. Naturadan ishlash va kompozitsiya mashqlaridan tashqari xayoldan, xotiradan rasmlar chizish ham rassom uchun muhimdir. Ko'chada, xonada, transportda ko'rgan narsa va holatlarni eslab qolib chizish xotirani mustahkamlaydi.

Kompozitsiya kursidagi mashqlar taassurot qobiliyatini rivojlantiradi. Bunga adabiy, sport, tarixiy jang epizodlari, kosmos kabi mavzular misol qilib olinishi mumkin.

Ishlangan eskiz variantlarini bir-biri bilan taqqoslab farqlarni analiz qilib, yangi eskiz varianti yaratilayotgan davrda oldingisidan farq qiluvchi, yangi tipaj va shakllar bilan boyitib borish muhim ahamiyatga ega. Kompozitsiya ustida

ishlashda jahon tasviriy san'at meroslarini o'rganish, talabada badiiy didni rivojlantiradi. Har doim eskiz ishlashdan oldin muzeylarga borish, me'rosimiz bilan tanishish, yaxshi ishlangan kompozitsiyalarni analiz qilish talabaga katta yordam beradi.

Tayanch iboralar: natura, ijod, rangtasvir, portret, etud, rassom, obraz, rang, syujet, kompozitsiya, kartina.

Savollar

- 1. Ijodda eng muhimi nima?*
- 2. Naturadan etud chizish nima?*
- 3. Rassom borliqni tasvirlar ekan nimani bildirishi kerak?*
- 4. Kompozitsiyasiz san'at asari bo'lishi mumkinmi?*
- 5. Kompozitsiya qurilmasi qanday?*
- 6. Badiiy fikrlash nima?*
- 7. Kartina kompozitsiyasini boshlanishida nima bo'lishi kerak?*
- 8. Kartinada tasvirlanayotgan qomatlar, shakllar, buyumlar qanday joylashtiriladi?*

6.2. Kompozitsiya ustida ishlash metodikasi

Rassomning tasviriy san'at asari ustida ishlash usuli ijod davrida bir necha bosqichlarga bo'linishi mumkin. Ijodiy davr yakunida ma'no va mazmun yagona shaklga keltiriladi. Bir qator ijodiy jarayon davrining analizi san'at nazariyasining muhim vazifasi. Shu maqsadda san'at asarini bir necha qism va elementlarga bo'lishga to'g'ri keladi. Ijodiy jarayon davrining muhim tomonlaridan biri - bu eng avvalo fikrning tug'ilishi, fikr yig'ilishi va fikrni tasvir orqali yuzaga chiqarish. Ma'lumki, hatto portret yoki manzara naturadan

ishlanayotgan davrda ham kompozitsiya to'g'risida o'ylamasdan ishlash maqsadga muvofiq emas. Chunki, ularning ko'rish nuqtasini tanlashda, tasvir elementlarini joylashtirishda, detallarni saralashda ham kompozitsiya muhim ahamiyatga ega. Kompozitsiya orqali rassomning naturaga bo'lgan munosabati, uni his qilishi va unga bergan estetik bahosi ham mujassamlanadi. Shunday qilib, rassom kompozitsiya orqali qiziqishini va o'zini to'ldirantirgan tomonlarini aks ettiradi. Shuning uchun kompozitsiyani haqiqatan ham ijod jarayonining boshlanishi deb hisoblash mumkin. Bundan shuni tushunishimiz maqsadga muvofiq bo'ladiki, hatto o'quv mashqlari ham agar real ko'rinish (natura)ga bo'lgan munosabati aks etsa badiiylik ko'rinishida bo'ladi. Aks holda real ko'rinish(natura)ni ko'r-ko'rona ko'chirish bo'lib, bunday asar maqsadga muvofiq kelmaydi. Real ko'rinish (voqea)ni butun borliqni his qilish muhim ahamiyatga ega bo'lib, rassomning dunyoqarashi aks etgan kompozitsiyaning birinchi manbaidir. Shaxsiy ijodiy usul (dastxat)ga ega bo'lish uchun o'qish jarayonidagi kasbiy bilim, umumta'lim bilimlari rassom dunyoqarashiga, dunyoni his qilishiga, mustaqil fikrlashga yordam berishi kerak.

Asar mavzusida kompozitsiya ishlash davomli bo'lib, bir necha bosqichlardan iborat bo'lishi mumkin, ya'ni ijodiy ish jarayoni uchun mavjud fikrlar majmuiga ega bo'lish, mavzu tanlash, asar mavzusi uchun ma'lumot yig'ish, qoralamalar tayyorlash, eskizlarni bajarish, keyingi bosqichlarda tayyorlangan ishchi eskiz yordamida asar yaratish. Demak, ashyolar (ma'lumotlar) yig'ish to'la maqsadga yo'naltirilgan bo'lsa, u foydali bo'lib, rassom suhbatlarda, kitob o'qishda, hayotiy ma'lumotlarga ega bo'lib, xotirani boyitish kompozitsiya uchun muhim ashyo hisoblanadi.

Yig'ilgan bilimlar asosida kompozitsiya birinchi bosqich ustida ishlab mashqlar olib boriladi. Aniq mavzu tanlangan

bo'lmada, muhit bilan buyum real ko'rinish orasidagi ma'noli bog'liqlik xilma - xilligini chuqur o'rganish mumkin. Hayotni har tomonlama o'rganish rassomga asosli va haqqoniy hayotiy kompozitsiya yaratishga yordam beradi. Odamlar va hayvonlar qoralamasini ishlash, xayoldan kompozitsiya uchun rasmlar chizish, alohida xarakterga ega odamlar chizmatasviri, etudi, natyurmort ishlash, xonada jonli qomatdan rasmlar chizish, erkin mavzuda kompozitsiya yaratish mashqlari tavsiya etiladi. Ushbu bosqich davri qanchalik qiziq o'tsa, shunchalik fikr va kompozitsiya mavzusi aniqlashib boradi. Taassurotlar orqali fikr va g'oyalar tug'ilishi mumkin. Bunga rassomning ko'p yillik kuzatishi, ashyolar yig'ishi, aql - zakovati, kuch - quvvati, hayotni o'rganishi va uni idrok qilib aks ettirishi katta ahamiyat kasb etadi. Asta-sekin yoki birdaniga g'oyaning tug'ilishi rassomning individualligiga, ya'ni, shaxsiy ijodiy xususiyatiga, qolaversa talant darajasiga bog'liq. G'oyaning birinchi davrida kompozitsiya elementlari taxminiy holatda bo'lib, mazmun va g'oya, shakl va detallarini aniqlashga undaydi. (36 a- rasm).

Kompozitsiya ustida ishlash jarayoni ijodiy va texnik muammolarni mohirlik bilan, shuningdek, san'at nazariyasi bilimlari, kompozitsiya qonunlari asosida yechishni o'z ichiga oladi. Eng birinchi shartli ravishdagi qoralama eskizini yaratish jarayonida kompozitsiyaning umumiylik va ziddiyatlilik (kontrast) qonunini esdan chiqarmaslik kerak. Ushbu qonunlar asosida birinchi eskizdayoq rassomni hayotiy, mukammal san'at asari yaratishi haqidagi fikrlarga ega bo'lishi mumkin.

Yaxlitlik qonuni ta'sirida konstruktiv g'oyani aniqlash, bo'lg'usi asarning shakllarini umumiy maqsadga birlashtiradi. Har bir rassom kompozitsiya g'oyasini ochib berishda o'ziga xos yo'l, o'zining uslubidan foydalanib amalga oshiradi.

Ba'zilar avval hamma narsani chizadi, keyinchalik yig'ilgan ashyolar asosida konstruktiv g'oyani izlaydi. Boshqalar real ko'rinishda ko'rgan narsalarini kompozitsiyaga joylashtiradi. Har qanday holatda ham kompozitsiya asosida konstruktiv g'oya - mazmun birligi rivojlanishi yotadi. Kompozitsiyada konstruktiv g'oya yaxlitligi uchun ziddiyatlar qonuni asos bo'lib, asarni idrok qilishda qarama - qarshi qo'yilgan qismlar, ranglar katta yordam beradi. Ma'lumki, buyum va shakllarni idrok qilishda, uning siluetlarini va atrof - muhit ziddiyatini ko'radi. Tanish buyumlarni uzoq masofadan uning silueti orqali ko'rib taniymiz va uning hajmini yorug'lik va nursoya ziddiyati yordamida ko'ramiz. Rangtasvir ham issiq va sovuq ranglar qarama-qarshiligi qurilishida tuziladi. Ranglar kuchi esa qarama-qarshi rangni yonma-yonligi asosida kuchaytiriladi. Ya'ni qizil rang, yashil rang bilan; ko'k rang, zarg'aldoq rang bilan; oq rang, qora bilan; shuningdek, shakllar bir - biriga nisbatan rang kuchini oshiradi. Avvaldan ma'lumki, rassomlar yorug' rang ziddiyatini to'q fonda ishlatib kelganlar. Aksinchasi ham bo'lishi mumkin. Masalan: I.Repinning «Burlaklar Volga bo'yida» asarini olaylik. Bir guruh to'q (qoramtir) rangdagi burlaklar yorqin quyoshda qumli qirg'oq ziddiyati asarda yaxlitlik hosil qiladi. Bunday ziddiyatlar kompozitsiyada go'zal yaxlitlikni ifodalaydi. Kompozitsiyada ziddiyatlilik badiiy obraz xarakteri bilan uzviy bog'langan. Masalan, ba'zi badiiy asarlarda kamba-g'allik va boylik ziddiyati, yaxshilik va yomonlik ziddiyati va boshqalar mavjud bo'lishi mumkin.

Kompozitsiya ishlash jarayonida g'oyaviy fikr va badiiylik keng o'rin tutadi. Konstruktiv g'oyada badiiylik asosi va yaxlitlik qonuni, inson qiyofa(tipaj)lari individualligi muhim ahamiyatga ega bo'lib, inson xarakterini ochib berishda katta rol o'ynaydi. Bir qarashda hamma odamlar bir xil ko'rinsa-da, ammo alohida sinchiklab qaralsa ularning

farqini ajratib olish qiyin emas. Bu ziddiyatlilik kompozitsiyada muhim ahamiyatga ega bo'lib asarni boyitadi, ta'sirchanligini oshiradi.

Tipiklashtirish qonuniga esa kompozitsiya ishlash davrida alohida ahamiyat berish kerak. Chunki, rassom tomonidan yaratilgan badiiy asarda qiyofalar orqali tomoshabinga hayot va turmushni anglashga yordam beradi. Ma'lum bir obraz ustida ishlash jarayonida har xil tasvir etudlari, chizmalari hayotiy taassurotlardan keng foydalaniladi. Rassomlarning real ko'rinishdan foydalanish usuli har xil bo'lsa-da, yosh rassomlarga ulardan to'g'ridan - to'g'ri kartina yaratish yoki yaxshiroq chiqqan etudni kattalashtirish bilan asar yaratib bo'lmasligi tavsiya etiladi. Bu borada shuni ta'kidlash lozimki, realistik badiiy asar yaratadigan rassom har doim real ko'rinishni o'rganib mahoratini oshirib borishi muhim. Tabiiyki bu talab asardagi u yoki bu obrazni ochib berishda jonli tabiatni kuzatish va ularni chizmalarda aks ettirish, shuningdek, ulardan mohirona foydalanish san'at asarining jonli, tabiiy chiqishiga yaqindan yordam beradi. Shular bilan bir qatorda realist rassom uchun hayotni bilishdan tashqari uni to'laqonliligini, xilma - xilligini, murakkabligini shoirona his qilish, tinmasdan mashq qilish, real ko'rinishga ko'zni o'rgatish, mo'yqalamni dadil harakat qildirish mahoratini egallagan rassom nimani ko'rsa shuni tasvirlay oladigan bo'ladi. Bilim dargohini bitirib, o'z ishining ustasi bo'la olgan yosh rassom faqat real ko'rinishdan ishlashni davom ettirib, egallagan mahoratini, qobiliyatini va o'z talantini yanada mukammallashtirib yuqori professional-likka qadam qo'ya oladi.

Asar yaratish jarayoni - ijodiy jarayon bo'lib, ko'p izlanishni, mukammal bilimni, tayyorgarlikni, ma'lum tassavvurga ega bo'lishni taqozo etadi. Tayyorlangan chizgilar, etudlar, yig'ilgan ashyolar asarning birinchi

belgilaridayoq to'g'ri kelmasligi va kamligi, badiiyligi jihatidan ham puxta topilmaganligi yaqqol bo'lib qolishi mumkin. Kompozitsiya ishlash jarayonida tasvirlanayotgan buyum, uning shakli va rangini, nur va soyani etudlarda taqqoslash lozim. Zarur bo'lganda yangisini ishlash ham kerak. Bunday izlanishlar yosh rassomni ko'p xatoliklardan xolis etadi. Real ko'rinishdan qo'shimcha ashyolar yig'ish yangicha qarashga, yangicha obraz topishga, yangi tipik qiyofalar kashf etishga imkon beradi. Kompozitsiyada qahramon obrazini uzoq izlash jarayonida bir yoki bir necha kishilardan etud va chizmatasvirlar ishlash qahramon obrazi xarakterini yanada to'ldirishga yordamlashadi. Shuningdek, yordamchi ma'lumotlar, ashyolar yig'ish usuli manzara, portret, syujetli kartina asar yaratish jarayonida ishlatiladi. Bu usulni qo'llagan holda rassom bir vaqtda kompozitsiyaga aniqlik kiritadi va unga qisman o'zgartirishlar ham kiritadi. Ko'rinishi o'zgartirilgan kompozitsiya jonliroq va oldingisiga nisbatan to'laqonliroq chiqadi.

G'oyaviy fikrni amalga oshirish jarayonida rassom ko'pgina kompozitsiya vositasidan foydalanib ritm, simmetriya, asimmetriya, kompozitsiya markazi kabi bir qator qoida va usullar jalb etiladi. Shuningdek, kompozitsiya harakatchan yoki aksincha turg'unlik holatda ham bo'lishi mumkin. Asarning oxirgi mukammal variantini yaratish jarayonida kompozitsiyada yaxlitlik qonuni muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, asar kompozitsiyasini yaratish jarayonida ritm, simmetriya, asimmetriya, kompozitsiya markazi, shuningdek, yaxlitlik qonuni zarurligini kompozitsiya ishi tugashida ham yana bir bor ko'rib chiqiladi. Chunki ish jarayonida detallar va boshqa qismlariga aniqlik kiritganda o'zgarib ketishi mumkin. Yaxlitlik qonuni kompozitsiyada siluet bezaklariga, yorug' va soya ziddiyati

ishlatilishiga o'z munosabatini bildiradi. Kompozitsiya yaratish jarayonida pala-partish bo'lgan qismlari uning yaxlitligi buzilganligi ko'rinsa, obraz ustida ishlash jarayonida detallarga diqqat qaratiladi. Chunki, detallarga aniqlik kiritish darajasi bir tomondan obrazni tipiklashtirsa, boshqa tomondan obrazni susaytirishi ham mumkin. Taniqli rassomlardan Leonardo da Vinchi, Delakrua, Fedotov, Surikov, o'zbek rassomlaridan B.Jalolov, A.Aliqulov va boshqalar, detallarga katta ahamiyat berganlar.

Kompozitsiya yaxlitligi ko'p holda ravshanlikka, ifodalilikka va ikkinchi darajali detallar soniga bog'liq. Shuning uchun detallarni asosiy g'oyaga bo'ysundirish yaxlitlik qonunining talabidir. Qiyofalar va detallar soni o'zini oqlashi kerak. Aks holda ko'p qomatilik asarni obro'yini oshirmasligi va yetarli natija bermasligi mumkin. Kam qiyofalar bilan keng ma'no berishga intilish lozim. Bu borada B.Ioganson shunday deydi: «Kompozitsiya mukammalligining birinchi belgisi - kartina mazmuni bir qarashda uzoq masofadan o'qilishi kerak. Aksinchasi esa, eng muhimi kompozitsiya bezagi tomoshabinga tushunarli bo'lish asosi topilmaganligidadir».

Asarga bir bor qaraganimizda, uning nimasidir ko'zga tashlanadi. Albatta ko'zimizga ko'ringan narsalar ziddiyatda bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, kompozitsiya yaxlitlik qonuni tasviriy asarni idrok qilishimizda muhim rol o'ynaydi. Kompozitsiyada yangicha yondashish uchun rassomning shaxsiy dunyoqarashi, his qila bilish xususiyati ham katta ahamiyatga ega.

Tayanch iboralar: san'at, realizm, rassom, tasvir, kompozitsiya, ko'rgazma, tasvir, fan.

Savollar

1. *Kompozitsiya asosi nimadan iborat?*
2. *Kompozitsiyada badiiy obraz qanday amalga oshiriladi?*
3. *Kompozitsiyada ishlash bosqichlari nimadan iborat?*
4. *Kompozitsiya ishlashda nimalar yordam beradi?*
5. *Kompozitsiyaning muhim belgisi nima?*
6. *Kompozitsiyada g'oya nima?*
7. *Kompozitsiyada ritm, simmetriya, assimetriya, kompozitsiya markazi nima?*
8. *Rassom B.Ioganson kompozitsiya haqida nima degan?*

6.3. Eskiz ishlash

Eskiz bu bo'lajak kartinaning qoralamasi, uning loyihasi, ba'zi holda rangli bo'yoqda va yetarli darajada aniqlik bilan bajarilgan tasviridir.

Eskizni ishlash rassomni to'liqlantiruvchi, qizg'in va katta umidlar bilan ishlash jarayoni hisoblanadi. Xayolda unga aniq bo'lmagan obrazlar, ularni aks ettirishda paydo bo'lgan varianti. Qomatlar guruhi va ularning har xil harakatlari bir-biridan qiziqarli tomonlari hayoldagi tortishuvi. Bu holatlarda bitta narsa aniqki, kartina g'oyasi, uning tomoshabinga ta'sirchanlik kuchini nazarda tutadi.

Asar mazmuni muallifning tasavvurida mavhum bo'lsa-da, uning unchalik aniq bo'lmagan tomonlaridan kerakligini tanlab olish mahoratisiz g'oya tushunarsiz bo'ladi. Liboslar, turmaklar shakli qomatlarga mos kelishini aniqlaydi. Qatnashayotgan qomatlar va shakllar o'z o'rniga joylashtiriladi. Shakllar holati, harakat maydoni fon aniqlanib yagona bo'lishi mumkin bo'lgan holat variantiga keltiriladi. Jami qatnashuvchi qomatlar va shakllar o'z o'rnini egallab, holat

harakati, ularning bir-biriga munosabatlari aniqlanadi. Oxirida voqealar tusda yoritiladi. Navbatda bosh qahramon, shakl, voqelik ajratilib ko'rsatiladi.

Eskiz odamlar guruhiga, harakatlarni aniqlashga, yorug'likni ifodalashga bag'ishlangan bo'lib, voqealar joyi, manzara yoki xona ichi holati tasvirlanadi. Rangli eskiz kompozitsiya g'oyasini amalga oshirishga tayyorgarlik bosqichi. Uning maqsadi kompozitsiyaning rangli obrazidir. Kompozitsiya mavzusi hayotdan, tarixiy, esda qolgan voqealar, ertak asosida bo'lsa, tegishli shakllar, kiyimlar, tabiat ranglarini eslash, yig'ish katta yordam beradi. Rangda ishlash umumiy rang holatini aniqlab, mayda detallarga ishlov berish shart emas. Chizmatasvirini ko'z oldiga qo'yib, unga asosan ishlash lozim. Rangli eskiz tugaganidan keyin karton orqali xolstda boshlash mumkin.

6.4. Kartina kompozitsiyasini ishlash bosqichlari

Badiiy asar yaratish uchun eng avvalo g'oya tug'ilishi kerak. Kartina uchun mavzu tanlab bo'lajak kompozitsiyaga syujet tanlab eskiz ustida ishlash davomli bo'lib, bir necha bosqichlardan iborat ish jarayoni uchun mavjud fikrlar majmuiga ega bo'lish, mavzuga doir boshlang'ich ma'lumot yig'ish, qoralamalar tayyorlash, eskiz variantlarini bajarishdan iborat bo'ladi. Demak, ashyolar (ma'lumotlar) yig'ish to'la maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, yosh rassom suhbatlarda, kitob o'qishda, hayotiy ma'lumotlarga ega bo'lib xotirasini boyitishi zarur. Ana shu ma'lumotlar kompozitsiya eskizini ishlash uchun muhim ashyo hisoblanadi.

Kompozitsiya ustida ishlash davrini bir necha bosqichlarga bo'lish mumkin. Ya'ni mazmun va shakl yagona g'oyaga, mazmunga yo'naltirilib umumlashtiriladi. Shu maqsadda eskiz ishlashni bir necha qism va elementlarga

bo'lishga to'g'ri keladi. Izlanish davrining muhim tomonlaridan biri - bu eng avvalo fikrning tug'ilishi, fikr yig'ilishi va fikrni tasvirga olib chiqish. Ana shu ishlar mahsuli kompozitsiya ustida ishlash usuliga bog'liqdir. (8a, b – rasmlarga qarang).

Fikr va g'oya taassurotlar asosida tug'ilishi mumkin. Bunga yosh rassomning ko'p yillik kuzatishi, ashyolar yig'ishi, aql - zakovati, kuch-quvvati, hayotni o'rganishi va uni xotirasida saqlab, idrok qilib aks ettirishi katta ahamiyat kasb etadi. G'oyaning tug'ilishi rassomning individualligiga, ya'ni, shaxsiy ijodiy xususiyatiga, qolaversa talant darajasiga bog'liq. G'oyaning birinchi tug'ilish davrida kompozitsiya elementlari taxminiy bo'lsa-da, mazmun va g'oya, shakl va detallarni aniqlashga undaydi.

Ma'lumki, hatto portret yoki manzarani naturadan ishlamayotgan davrda ham kompozitsiya to'g'risida o'ylamasdan maqsadga erishib bo'lmaydi. Chunki, ularning ko'rish nuqtasini tanlashda, tasvir elementlarini joylashtirishda, detallarni saralashda ham kompozitsiya muhim ahamiyatga ega. Kompozitsiya orqali yosh rassomning naturaga bo'lgan munosabati, uni tushunishi va unga bergan estetik bahosi ham mujassamlanadi. Shunday qilib, talaba kompozitsiya orqali qiziqishini va o'zini to'lqinlantirgan tomonlarini aks ettiradi. Shuning uchun kompozitsiyani haqiqatan ham ijod jarayonining boshlanishi deb hisoblash mumkin. Bundan shuni tushunishimiz maqsadga muvofiq bo'ladiki, hatto o'quv mashqlari ham agar real ko'rinish (natura)ga bo'lgan munosabati aks etsa badiiylik ko'rinishda bo'ladi. Aks holda real ko'rinish(natura)ni ko'r - ko'rona ko'chirishdan boshqa narsa emas. Real ko'rinish(natura)ni his qilish muhim ahamiyatga ega bo'lib, rassomning dunyoqarashi aks etgan kompozitsiyaning birinchi natijasidir. Shaxsiy ijodiy usuli(dastxat)ga ega bo'lish uchun o'qish jarayonidagi umumta'lim bilimlari

kamlik qiladi. Bu bilimlar rassom dunyoqarashiga, dunyoni his qilishiga, mustaqil fikrlashiga yordam bersa tasvir kompozitsiyasi yaxshi amalga oshirilishi mumkin.

Birinchi bosqichda yig'ilgan bilimlar asosida kompozitsiya ishlab mashqlar olib boriladi. Aniq mavzu tanlangan bo'lmasa-da, muhitda shakllar real ko'rinishi (natura) orasidagi ma'noli bog'liqlik xilma - xilligini chuqur o'rganish zarur bo'ladi. Hayotiy voqeani har tomonlama o'rganish rassomga chiroyli va haqqoniy kompozitsiya yaratishga yordam beradi. Shuning uchun odamlar va hayvonlardan qoralama (наброска)lar ishlash, xayoldan kompozitsiya uchun rasmlar chizish, alohida xarakterga ega odamlar chizmatasviri, erkin mavzuda kompozitsiya yaratish, natyurmort tuzish, har xil rasmlar chizish mashqlari tavsiya etiladi. Ushbu bosqich davri qanchalik qiziq o'tsa, shunchalik fikr va kompozitsiya mavzusi aniqlashib boradi.

Kompozitsiya ishlash jarayoni ijodiy va texnik muam-molarni mohirlik bilan, shuningdek, san'at nazariyasi bilim-lari, kompozitsiya qonunlari asosida yechishni o'z ichiga oladi. Eng birinchi shartli ravishdagi qoralama eskizini yara-tish jarayonida kompozitsiyaning umumiylik va ziddiyat (kontrast) qonunini esdan chiqarmaslik kerak. Ushbu qo-nunlar asosida birinchi eskizdayoq rassom hayotiy, mukam-mal san'at asari yaratish haqidagi fikrlarga ega bo'lishi mumkin¹².

Har bir rassom kompozitsiya g'oyasini ochib berishda o'ziga xos yo'l, o'zining uslubidan foydalanib maqsadga erishadi. Ba'zilar avval hamma narsani chizadi, keyinchalik yig'ilgan ashyolar asosida konstruktiv g'oyani izlaydi. Boshqalar real ko'rinish(natura)da ko'rgan narsalarini kompozitsiyaga joylashtiradi. Har qanday holatda ham kompozitsiya asosida konstruktiv g'oya-mazmun rivojlanishi

¹² Б.В.Иогансон. Живопись.

yotishi kerak. Kompozitsiyada konstruktiv g'oya yaxlitligi uchun ziddiyat (kontrast) qonunlari asos bo'lib, asarni idrok qilishda qarama - qarshi qo'yilgan qismlar, ranglar katta yordam beradi¹³. Ma'lumki odamning buyum va shakllarni idrok qilishida, uning siluetlarini va atrof - muhitlari ziddiyat (kontrast)ini ko'radi. Tanish buyumlarni uzoq masofadan uning silueti orqali ko'rib taniymiz va uning hajmini yorug'lik va soya ziddiyat(kontrast)i yordamida ko'ramiz. Rangtasviri ham issiq va sovuq ranglar qarama - qarshiligi qurilishida tuziladi. Ranglar kuchi esa qarama - qarshi rangni yonma - yonligi asosida kuchaytiriladi. Ya'ni qizil rang, yashil rang bilan ko'k rang, zarg'aldoq rang bilan, oq rang, qora bilan va boshqalar bir-biriga nisbatan rang kuchini oshiradi. Avvaldan ma'lumki rassomlar yorqin rang ziddiyat (kontrast)ini to'q fonda ishlatib kelganlar. Shuningdek, aksinchasi ham bo'lishi mumkin. Bunday ziddiyatlar kompozitsiyada go'zal yaxlitlikni ifodalaydi. Kompozitsiyada ziddiyatlilik badiiy obraz xarakteri bilan uzviy bog'lanadi. Masalan, badiiy asarlardagi yaxshilik va yomonlik ziddiyati kabilar.

Kompozitsiya ishlash davrida tipiklashtirish qonuniga alohida ahamiyat berish kerak. Chunki, rassom tomonidan yaratilgan kompozitsiyada tipajlar orqali tomoshabinga hayot va turmushni anglashga yordam beradi. Ma'lum bir obraz ustida ishlash jarayonida har xil etudlar, chizmalar, hayotiy taassurotlardan keng foydalaniladi. Rassomlarning real ko'rinish(natura)dan foydalanish usuli har xil bo'lsa-da, yosh rassomlarga ulardan to'g'ridan - to'g'ri kompozitsiya yaratish yoki yaxshiroq chiqqan qoralamani kattalashtirish bilan asar yaratib bo'lmasligi tavsiya etiladi. Bu borada shuni ta'kidlash lozimki, realistik badiiy asar yaratadigan rassom har doim real ko'rinish(natura)ni o'rgangan holda mahoratini oshirib borishi muhimligi qayta-qayta ta'kidlanadi. Shular bilan bir

¹³ N.Normatov. Ranglar yurtiga yo'l. Noshir nashr. T.; 2013.

qatorda realist rassom uchun hayotni bilishdan tashqari uni to'laqonliligini, xilma-xilligini, murakkabligini shoirona his qilish, tinmasdan etudlar ishlab mashq qilish, ko'zni o'rgatish, mo'yqalamni dadil harakat qilish mahoratini egallagan rassom nimani ko'rsa shuni tasvirlay oladigan bo'ladi. Bilim dargohini bitirib, o'z ishining ustasi bo'la olgan yosh rassom faqat real ko'rinish(natura)dan ishlashni davom ettirib, egallagan mahoratini, qobiliyatini va o'z talantini yanada mukammallashtirib professionallikka qadam qo'ya oladi.

Kompozitsiya ishlash jarayonida g'oyaviy fikr va badiiylik keng o'rin tutadi. Konstruktiv g'oyada badiiylik asosi va yaxlitlik qonuni, inson qiyofalari (tipajlar) individualligi muhim ahamiyatga ega bo'lib, inson xarakterini ochib berishda katta rol o'ynaydi. Bir qarashda hamma odamlar bir xil ko'rinsa-da, ammo alohida sinchiklab qaralsa, ularning farqini ajratib olish qiyin emas. Bu ziddiyatlilik kompozitsiyada muhim ahamiyatga ega bo'lib asarni boyitadi.

Kompozitsiyada g'oyaviy fikrni amalga oshirish jarayonida rassom ko'pgina kompozitsiya qonunlaridan foydalanadi. Bunga ritm, simmetriya, asimmetriya, kompozitsiya markazi kabi bir qator qoida va usullar jalb etiladi. Shuningdek kompozitsiya harakatchan (dinamik) yoki aksincha turg'unlik (statik) holatda ham bo'lishi mumkin. Asarning oxirgi variantini yaratish jarayonida kompozitsiya yaxlitlik qonuni muhim ahamiyatga ega bo'lib, ish yakunida qayta ko'rib chiqib yakunlanadi.

Asar eskizi - mavzuli kompozitsiyaning mukammal yakuni. Ba'zi holda zaruriyat tug'ilsa eskiz varianti ham bajarilishi mumkin. Eskizda kompozitsiya talablari to'la bajarilgan bo'lishi kerak. Ya'ni qiyofalar soni, yordamchi buyum-shakllar, manzaralar, portretlar aniq ravshan ifoda etilishi, rang koloriti ham to'la amalga oshirilishi muhimdir.

Tayyor bo'lgan kompozitsiya eskizi asosida uning chizmatasvirini haqiqiy kartina o'lchamida kartoni bajariladi. Bu esa eskizdagi qiyofa va shakllarning kartina o'lchamidagi ko'rinishidir. Kartonda shakllar planlari aniq tasvirlanadi. Agar portret qismi bajarilayotgan bo'lsa o'xshashlik bo'lishi muhimdir. (8, 35a-rasmlarga qarang).

Kartina kartoni - bajarilgan kompozitsiya eskizini bo'lajak kartina o'lchamidagi chizmatasviri hisoblanadi. Kartonda oq-qora tusda jami qiyofalar va shakllar chizmatasviri aniq bajarilishi kerak. Kartondan suvqog'oz (kalka) yordamida nusxa olinadi. Kalka nusxa kartina xolsti (mato)ga tasvirni ko'chirishda zarur bo'ladi. Xolstga ko'chirilgan chizmatasvir asosida rangli bo'yoqda ishlash boshlanib shakllarni tasvirlash davom ettiriladi. Rangtasvir tugallangunga qadar ijodiy jarayon davom etadi. Ba'zi qismlariga o'zgartirish kiritilishi ham mumkin. Chunki eskiz va kartondagi tasvir kartinada ishlash vaqtida talabga to'la javob bermasligi mumkin¹⁴.

Tayyor bo'lgan asarni **baget** ramasi bilan bezash maqsadga muvofiqdir. Baget ramasi asarni jamlab to'la o'qib olishga yordam beradi.

Tayanch iboralar: eskiz, variant, natura, ijod, rangtasvir, karton, portret, etud, rassom, obraz, rang, kontrast, tipiklashtirish, syujet, kompozitsiya, kartina, baget.

Savollar

1. *Eskiz nima?*
2. *Eskiz varianti nima?*
3. *Kalka nusxa olishning vazifasi nimada?*
4. *Kompozitsiyada nimalarga e'tibor berish kerak?*

¹⁴ R.Xudayberganov. Kompozitsiya. Sharq nashr. 2008.

5. *Kompozitsiyada g'oya nimadan iborat?*
6. *Kompozitsiyada badiiy obraz nima?*
7. *Kompozitsiya ishlash bosqichlari nimadan iborat?*
8. *Kompozitsiyada kontrast, kompozitsiya markazi nima?*

XULOSA

Kompozitsiya fani tasviriyl san'atda muhim hisoblanib, dastgohli rangtasvir kompozitsiyasini bajarish qoidalari, bosqichlari, shakl va qiyofalarni joylashtirish talablarini o'z ichiga oladi.

Yurtimizda qadimdan tasviriyl san'at turlaridan devoriyl rasmlar amalga oshirilganligi arxeologik topilmalardan va bizgacha yetib kelgan namunalardan ma'lum. Ularning ba'zilar juda noyob va nodir namunalarga aylanib qolmoqda.

Dastgohli rangtasvir va mahobatli rangtasvir yonma-yon shakllandi, rivojlandi. Masalan, Ch.Axmarovning Navoiyl teatri foyesidagi asarlari, B.Jalolovning Qo'qon drama teatri devoriga ishlangan mahobatli va dastgohli rangtasvirning o'ziga xos xususiyatlari bir-birini to'ldirgan holda rivoj topdi. Dastgohli rangtasvirning rivojida, yangi qirralarining yuzaga kelishi, milliy ruhning kuchayishida rassomlarimiz tomonidan katta izlanishlar olib borilmoqda. Puxta o'zlashtirilgan kompozitsion yechim va kolorit birligi hamda yaxlitlik xususiyatining o'zaro uyg'unligi namoyon bo'ladi. Asarlarda ma'joziyl obrazlilik xususiyatlari zo'raydi. Ijodning asosini tashkil qiluvchi mavzu va mazmun jihatidan xalqimiz hayoti bilan bog'liq bo'lgan asarlarda har biri o'zigagina xos tasviriyl ifodaviyl vositalar bilan hayotning betakror qirralarini tasvirladi. Tomoshabinga ta'sir etishning yangi hayajonli jihatlarini kashf etadi.

Ba'zi rassomlar an'anaviyl rangtasvirdan bo'lakcha yo'nalishda ijod qilayotgan bo'lsalar, boshqalari esa an'anaviyl yo'nalishni davom ettirib, yangi zamonaviyl yo'nalishlarni yaratishga urinmoqdalar.

Dastgohli rangtasvir san'ati jamiyatdagi o'zgarishlarga nisbatan o'z munosabatini bildiradi. Zero, milliy **g'oya** va

mafkuraning shakllanish jarayonida vatanparvarlik va fuqarolik burchlarini namoyon etuvchi san'atdir.

Umumiy xulosa shundan iboratki realizm davri asoslaridan, prinsiplaridan, uslubiy qoidalaridan milliy an'analar, ya'ni miniatyurani tiklash va yangicha yondoshuv, dastgohli rangtasvir san'atida milliy dunyoqarashni ifoda etishda foydalanish yuz bermoqda.

Kompozitsiya fani nazariy bilimlarni nafaqat shu fan mavzulariga binoan bajariladigan amaliy mashg'ulotlarda balki, mazkur fandan olingan bilim badiiy asar yaratishda shakllar uyg'unligini, mutanosibligini topishda kompozitsiya qonunlariga amal qilinadi. Chunki kompozitsiya qonunlari ijodning barcha turida shakllarning o'zaro mutanosib bo'lishi demakdir.

Uyg'unlik - garmoniya demakdir. Asar kompozitsiyasini yaratishda shakllarni fazoviy joylashtirish yoki yaxlitlashtirishni rang orqali muvozanat, mutanosiblik, ritm qoidalariga amal qilishni o'rgatadi.

Kompozitsiyada rang kishi ruhiyatiga ijobiy yoki salbiy ta'sir qiladi, ko'zni quvontiradi va zavq bag'ishlaydi.

Umuman, kompozitsiyaning yosh rassom ongidan keng joy olishi uning amaliy mashg'ulotlarda bajargan mashqlariga asoslanadi.

Kompozitsiya qo'llanmasini qo'lga olgan talaba o'z amaliy mashqlarni tahlil qilishga kirishadi va xatoga yo'l qo'ymaslikka, hamda unga ijodiy yondashishga harakat qiladi. Natijada talaba ongida kompozitsiya qonun-qoidalaridan, vositalaridan to'g'ri va unumli foydalanish ko'nikmasi mustahkam o'rin oladi. Rangtasvir xalqimiz hayotidan chuqur joy olib, jahon madaniyati xazinasini boyitishda munosib o'ringa ega bo'ladi.

GLOSSARIY

TASVIRIY SAN'AT TERMINLARINING LUG'ATI

Avtoportret – (grekcha soʻzdan. Outos - oʻzim) - rassom oʻzini-oʻzi tasvirlagan portret. Bu holda rassom ham, tasvirdagi shaxs ham bir kishining oʻzidir.

Alla prima – (italyan soʻzidan Alla prima - bir yoʻla, bir ishlashda) – nafis tasviriy sanʼatda ishlatiladigan usul. Kartina (asar) oldindan qoʻshimcha tayyorgarliksiz, yaʼni bir seansda tugallangan.

Abstraksionizm – mavhum sanʼat asarlarini oʻz ichiga olgan badiiy yoʻnalish.

Akademizm – akademik uslubga oid badiiy yoʻnalish.

Animal janr – hayvonot dunyosini, jonivorlarni tasvirlovchi tasviriy sanʼat turi.

Blik (nemis soʻzidan Blik – qarash. boqish) - yorugʻ-soya elementi. Yoritilgan buyumning eng yaltiroq joyi, ayniqsa yaltiroq jismda. Yoritilgan qismdagi umumiy tusga nisbatan eng yorugʻ, yaltiroq, yorugʻroq qismidir.

Badiiy – borliqni, insonni, uning hayotidagi voqealarni, kechinmalarini oʻzaro oʻxshatish, shakllantirish va rango-rang tasvirlash.

Badiiy uslub – sanʼatda qoʻllaniladigan usul.

Biyenale – ikki yilda bir marta boʻladigan koʻrgazma.

Galereya – tasviriy va amaliy sanʼat asarlari saqlanadigan va koʻrgazmalar oʻtkaziladigan maxsus bino. Maʼlum asarlar turkumi ham tushuniladi. Masalan, portret galereyasi.

Grunt – zamin, tasvir zaminini (xolst) tayyorlash.

Grafika (grekcha soʻzdan olingan boʻlib, graphikos – chiziqli, chizilgan) – tasviriy sanʼatning bir turi. Rangtasvirga nisbatan kam rang ishlatilib, asosan oq va qora kontrast ranglar, chiziq va shtrixlar xarakterlidir. Grafikaga

chizmatasvir, gravyura, litografiya kabi bosma tasvir turlari kiradi.

Grizayl – (fransuzcha – gris - kulrang) – bir xil rangda mo‘yqalam yordamida bajarilgan tasviriyl asar. Oq va qora rangda tusi bilan farq qiladigan usulda ishlangan turi.

Detallashtirish – (detalizatsiya) – tasviriyl san’atda detal (qism)larini alohida puxta ishlash. Detallashtirish rassom usuliga qarab har xil darajada bo‘lishi mumkin.

Janr – (fransuzcha – genze - tur) – tasviriyl san’atda mavzu o‘xshashligini birlashtiruvchi tushuncha. Rangtasvirda: natyurmort, interyer, peyzaj, portret, syujetli kartina (maishiy, tarixiy) turlaridir.

Jivopis – (rangtasvir) – tasviriyl san’atning yetakchi turidan biri. Nafis tasviriyl san’at xolst, karton, qog‘oz va boshqalar sath tekisligida bo‘yoqlarda bajariladi.

Rangtasvirda: suvli bo‘yoq – akvarel, moybo‘yoq, tempera, enkaustika, pastel – quruq bo‘yoq, guash kabi ashyolar (bo‘yoqlar) ishlatiladi.

Kartina – (rasm, surat) – alohida belgilangan nafis tasviriyl san’at asari. Rasm (kartina) har xil janrda bo‘lishi mumkin. Etudga nisbatan borliqni (naturani) puxta o‘ylangan va puxta ishlangan, tugatilgan, detallari va shakllari mohirlik bilan aks ettirilgan ko‘rinishidir.

Kolorit – (lotincha – color – rang, bo‘yoq) – san’at asarining alohida rang va tus tuzilishidir. Koloritda real borliq (natura)ning tabiiyl ranglarini alohida maqsadli ajratib badiiy obrazli bo‘yoqlarda aks ettirish. Ranglar majmuasi va rang go‘zalligi nisbatlari. Issiq va sovuq, yorqin, qizg‘ish, moviy kabi gammalarda bo‘lishi mumkin. Asar insonda ruhiyl va badiiy obraz hissiyotini uyg‘otishi mumkin.

Kompozitsiya – (lotincha – compositio – tuzish, bog‘lash, bayon qilish) – 1) asar qurilmasida qismlarni ma’no - mazmunga bog‘lash, bo‘ysundirish, shakllantirish.

2) Badiiy obraz yaratish vositasi va izlanish yo‘llari. Rassom fikrini amalga oshirishni izlashi. Tema mazmuni (syujetni) ochib berishda rassom tomonidan izlanish olib borishidir. Kompozitsiya ustida ishlash g‘oya tug‘ilgandan boshlab asar tugallanguncha davom ettiriladi. Bunda rassom tanlagan mavzusi asosida syujet ustida ish olib boradi.

Kompozitsiya tuzish jarayonida tasvirdagi narsalarni, buyumlarni, odam qiyofalarini kartina tekisligi (rangtasvirda xolst, grafikada qog‘oz)da maqsadga muvofiq badiiy joylashtiradi, tasvirlaydi. Bunga shuningdek asar markazi, yechimi, ikkinchi darajali narsalarni joylash nazarda tutiladi. Rang va rang kontrastlari, siluet, yorug‘ va soyalar ham aniqlanadi. Kompozitsiya ishlashda naturaning perspektiva qurilishi, masshtab va nisbatlari (proporsiya), tus va rang yechimi ham muhim.

Kulrang – oq va qora rangdan hosil bo‘lgan rang turi.

Lessirovka – (nemischa – laisiren – suyuq bo‘yoqda xolst tekisligi yuzini yengil bo‘yash) – tiniq, o‘ta ko‘rinadigan bo‘yoq foydalanilgan rangtasvirdagi badiiy usul. Bunda rangtasvirda ishlatilgan bo‘yoq biri ikkinchisi ustiga qo‘yilganda tagidagi rang qatlami ko‘rinib turadi va rangni yanada boyitadi, yoki rang kuchini susaytiradi. Lessirovka suv bo‘yoq (akvarel) da ishlashda ko‘p tarqalgan, moybo‘yoqda esa oldingi kekxa rassomlar ko‘p ishlatgan.

Lokal rang – (fransuz so‘zidan Local - mahalliy) – 1) bir buyumga xos bo‘lgan rang; 2) rangtasvirda qo‘shni rangga nisbatan katta qismini tashkil qilib, rang tusi maydalab ishlanmaganligi.

Mazok – rang bo‘yoqli moybo‘yoq (kist)ning xolstda, kartonda va boshqalarda qoldirgan izi. Rangtasvirda ishlatiladigan bu usul (texnika) har bir rassomning o‘ziga xos ehtirosiga bog‘liq bo‘ladi.

Model – (fransuzcha soʻzdan modele - obyekt, tasvirlanayotgan shakl, naturachi odam) - koʻp holda tirik natura, umuman odam.

Monoxrom – (grekcha soʻzdan monos - bir, chronos - rang) – bir rangli demakdir.

Motiv – (fransuzcha soʻzdan motif - sabab, syujet):

1) natura obyekti, rassom tomonidan tasvirlash uchun moʻljallangan obyekt yoki baʼzi hollarda manzara boʻlishi mumkin;

2) Amaliy – bezak sanʼatda – asosiy element ornament kompozitsiyasi koʻp takrorli boʻlishi mumkin.

Manera – uslub.

Mastixin – rassom quroli, belcha.

Molbert – rassom dastgohi, anjomi.

Moʻyqalam – qilqalam, rassomlar ishlatadigan yozuv va tasvir quroli.

Nabroska – tez ishlangan xomaki chizmatasvir. Nabroskada shakl tasviri umumlashtirilgan boʻlib umumiy tasavvur beradi. Nabroska alohida ahamiyatga ega boʻlib kartina uchun bajarilishi mumkin.

Naturalizm – tasviriy sanʼat yoʻnalishlaridan biri boʻlib, tasvirlovchi, tasvirlanayotgan narsalarning birinchi galda tashqi koʻrinishi, sirtqi suratini tasvirlash lozimligini maqsad qilib qoʻyadi.

Naturshik – oʻquv ishlarida tasviri ishlanadigan odam.

Natyurmort – jonsiz tabiat demakdir. Rangtasvir turlaridan biri boʻlib, buyumlar, meva-cheva, gul va hokazolarni ifodalovchi tasvir.

Obraz (badiiy) – sanʼatda hodisalarning aks ettirilish shakli (formasi).

Pyuans – (fransuzcha soʻzdan nuance - tus, xil) -juda nozik tus yoki yorugʻlikdan soya qismiga yengil tusning oʻtishi.

Palitra – (fransuzcha soʻzdan palette - belcha) - 1) rassomning rang boʻyoq aralashtirish va boʻyoqlarini joylash uchun ishlatiladigan yogʻoch taxtacha; 2) biror kartinaning rang xarakteri majmuasi, jilosi.

Pastoznost – (italyan soʻzidan pastoso - xamirsimon) – boʻyoq quyuq holda relyefli iz bilan surtilgan rangtasvir ishlash usuli.

Perspektiva – (lotincha soʻzdan perspecto – oxirigacha qarash, koʻrish –1) masofadan turib qaralgandagi buyum, shaklning oʻlchami va shakli, shuningdek rang koʻrinishi oʻzgarishi. 2) odam koʻziga shaklning boʻshliqda oʻzgarishini tekislikda tasvirlash qonunini oʻrganadigan fan. Perspektiva qonunlaridan foydalanib, buyumni bizga qanday koʻrinsa shunday tasvirlashga yordam beradi. Chiziqli perspektiva buyum shaklini, oʻlchamini va proporsiyasini (nisbatini) oʻzgarishini, qisqarishini aniqlaydi. Rassomchilik amaliyotida keng qoʻllaniladigan kuzatish perspektivali buyum shaklini oʻzgarishini tasvirlashga yordam beradi.

Perspektivada ishlatiladigan asosiy terminlardan: *gorizont chizigʻi* – havoda shartli joylash, kuzatuvchi koʻz balandligidan oʻtgan toʻgʻri chiziqdir; *kuzatish nuqtasi* – rasm chizayotgan kishining oʻrni, *markaziy uchrashuv nuqtasi* – kuzatuvchining koʻzi roʻparasida gorizont chizigʻida joylashgan nuqta; koʻrish burchagi - shaklni toʻla idrok qilish, koʻrish uchun zarur boʻlgan masofa burchagi. *Havoiiy perspektiva* - buyumning yorugʻlik darajasini, chegara chizigʻini va rang oʻzgarishini aniqlaydi. Buyum kuzatuvchidan uzoqlashgan sari havo qatlamining taʼsirida oʻzgarishidir.

Plastika – (grekcha soʻzdan plastika - vayaniye) – 1) rangtasvirda, chizmatasvirda va haykaltaroshlikda buyumni shakllantirish, tasvirni hosil qilish; 2) ifodali rangtasvir ishlash yoʻli, moʻyqalam bilan ishlashdagi

yengillik, mohirlik; 3) haykaltaroshlikda, grafikada va tasviriyl san'atda shaklning aniqlikka, ifodalilikka erishish.

Plastichnost – har xil san'at asarida alohida go'zallik, yaxlitlik, noziklik va modelirovkaning ravshanligi, buyumning rang yechimi, rang boyligi va tusdan - tusga o'tish, kompozitsiyada chiziqlar, shaklni ifodaliligi va xushbichimli o'zaro aloqalari.

Plener – (fransuzcha so'zdan en plein air - toza havoda) – tabiiy sharoitda, ochiq havoda rasm ishlash. Plener termini odatda peyzajda ishlatiladi. Murakkab rang majmuasi va tus munosabatlarini, shuningdek yorug' havo sharoitini aks ettiruvchi har qanday tasviriyl san'at asariga aytish mumkin.

Podmalevka – ko'p qatlamli moybo'yoqda ishlangan kartinaning eng avvalgi boshlang'ich bosqichi. Boshqa rangtasvir texnikasida ham podmalevka ishlatilishi mumkin.

Podmalevka rangli yoki monoxromli (rangsiz, kulrang), bir tusli, yupqa rangli qatlamda yoki nisbatan quyuq bo'yoqda bajarilishi mumkin.

Poluten – (yarimsoya) – yorug'-soya elementlaridan biri. Poluten naturada, shuningdek san'at asarida – buyum yuzasidagi to'q soya bilan yorug' qismi oralig'idir.

Poluton – (yarim tus) – yoritilgan buyum qismining ikki qo'shni kam kontrast tusi oralig'idagi o'tish tusi. Shaklda tusdan tusga katta yumshoqlik bilan o'tish modelirovkani nozik bo'lishiga yordam beradi.

Portret – (fransuzcha so'zdan portrait - tasvir) – tasviriyl san'at janri, ma'lum bir shaxs (odam) ning yoki bir necha kishining (ikki, guruh va boshqalar)ga bag'ishlangan asar.

Proporsiya – (mutanosiblik) – (lotincha so'zdan – proportio – copазмерност) – qism o'lchovi, o'lchamlarning bir - biriga va butun shaklga bo'lgan nisbati. Rassom proporsiya yordamida buyum va qomat shaklini qurishda, asarning kompozitsiyasini tuzishda katta aniqlik kiritadi.

Bunga tekislik shakli nisbati, fonga tasvir o'lchami nisbati, guruhlar nisbati kabilar kiradi.

Profil – (fransuzcha so'zdan profil – yon tomondan ko'rinishi) - har qanday jonivorning yoki buyumning yon tomonidan ko'rinishi.

Plastik anatomiya – anatomiya fanining bir qismi, bo'limi. Odamning proporsiyasini, ichki tuzilishi va o'zgarishi tananing shakl o'zgarishiga ta'sirini o'rganadi. Plastik anatomiya qomat muskullari va skelet tuzilishi, suyaklar va muskullar bog'lanishiga e'tibor beradi, o'rganadi.

Podramnik – chorcho'p, rasm ishlanadigan matoni tortib turadigan qurilma, rama.

Polotno – bo'z mato (xolst)ga ishlangan rangtasvir asari.

Ritm (vazn) – (grekcha so'z – bir meyordagi, tekis) – asar kompozitsiya qurilmasining muhim tomonlaridan biri. Buyum, shakl, rang yoki naqsh elementlarining bir meyorda takrorlanishi, ayniqsa monumental san'atda. Amaliy - bezak san'atida va arxitektura ko'p uchraydi.

Tasviriy san'atda ritm murakkabroq bo'lib kartinada alohida ruh beradi. Ritm kompozitsiyada qomatlar guruhi harakatlarida, qo'l joylashuvi variantlarida, tus va rang takrorlanishida, shakllar joylashuvida bo'lishi mumkin.

Realizm – tasviriy san'atda narsalar hayotda qanday ko'rinsa, shundayligicha tasvirlanishiga asoslangan oqim.

Renessans – uyg'onish.

Reproduksiya – tasviriy san'at asaridan olingan nusxa.

Restavratsiya – ta'mirlash.

Sangina – qon so'zidan tashkil topgan atama. Jigar rang yoki qizg'ish bo'rsimon qalam.

Surrealizm – o'ta realizm. Bu atama XX asr adabiyoti va san'atida paydo bo'lgan. U Fransiyada vujudga kelgan bo'lib, olim Freyd g'oyasi va nazariyasiga suyangalar. Ya'ni san'atkorlar o'z asarlarida tabiiy tuyg'u, hayol va tushlarni aks

ettirib, narsalar, hodisalarning shakl holatlarini mavhum tarzda ko'rsatishga alohida ahamiyat berishardi.

Svet (yorug'lik, nur) – Tasviriy san'atda yorug'-soya elementi. Naturada ham, san'at asarida ham yuza (sirt)ning yoritilgan qismi uchun ishlatiladigan termin.

Svetoten (yorug'soya) – shaklda soya va yorug'lik nisbati, yorqin va qorong'u qirralar nisbati. Kompozitsiyaning muhim vositasidir. Tasviriy san'atda umumiy tus yechimida yorug'soya buyum shaklini va materialligini ko'rsatishda muhimdir. Yorug'soya qirralari: nur, soya, yarimsoya, refleks, blik.

Siluet – (fransuzcha so'zdan silhouette – shakl ko'rinishi) – naturada buyum yoki qomatning umumiy shakl ko'rinishi. Tasviriy san'atda shakl va buyumni detallarsiz yassi holda (to'q yoki och rang fonida dog' sifat) ko'rinishini nazarda tutiladi. Yorug'lik qarshisiga qo'yilgan buyum siluet bo'lib ko'rinadi. Grafikada qora tasvirlangan shakl profili siluet deb ataladi.

Simmetriya – (grekcha so'zdan summetria – tekis, bab - barobar, teng o'lchamli) – kompozitsiyada yoki shakl tuzilishi markaziy o'q chizig'idan parallel, markazdan teng uzoqlikda qismlari joylashgan ko'rinishi. Masalan: silindr, ko'za, tuxum kabilar.

Simmetriya kompozitsiyasi amaliy - bezak san'atida ko'p uchraydi. Nafis tasviriy san'atda va haykaltaroshlikda simmetriya asarni quruq va zerikarli qiladi. Chunki tasvirning jonli, hayotiylikiga mos tushmaydi. Shakl tuzilishida simmetriya buzilsa, u holda *asimmetriya* deyiladi. Mazmun va shakl – san'atda o'zaro shartli kategoriya. Mazmun san'at asarida nima tasvirlanganini ko'rsatadi. Shakl esa qanday vositalar bilan amalga oshirilganini ko'rsatadi. Tasviriy san'atda mazmun shaklsiz amalga oshirilishi mumkin emas.

Stankoviy – Dastgohli rangtasvir san’ati. Dastgoh (stanok) nomidan olingan, asar nimada yaratilganligiga (haykaltaroshlikda) dastgoh, nafis tasviriy san’atda molbertga bog‘liq. Dastgohli san’at asari mustaqil ahamiyatga ega. Uning g‘oyaviy-badiiy tomonlari u turgan tevarak-atrof muhitga bog‘liq emas. Monumental san’at asarida va amaliy-bezak san’atida esa aksincha.

Stil – (fransuzcha so‘zdan style – manera, dasthat) Stil (dastxat) bir guruh rassomlarga yoki bitta rassomga xos bo‘lishi mumkin. Agar uning ijodi keskin farq qilsa, faqat unga xos tomonlari mavjud bo‘lsa, bunday rassomlar ham alohida dastxat (stil)ga ega bo‘ladilar.

Syujet – (fransuzcha so‘zdan sujet – tema, predmet) - 1) syujetli kartinada: tasviriy san’at asarida aniq voqeani ochib beradi. Bitta tema bir necha syujetda olib borilishi mumkin. Tasviriy san’atda syujet maishiy, tarixiy va jang janrlarida bo‘lishi mumkin; 2) syujet keng ma’nodagi har qanday tirik natura yoki buyumlar olami, tasvirlash uchun shakl tushuniladi. Ba’zi holda syujet deganda asarga asos bo‘lgan motiv, manzara tushunchasi o‘rin oladi.

Ton – (tus, rang) - (fransuzcha – ton – bo‘yoq berish) – naturadagi buyum (predmet) va san’at asaridagi rangga xos yorqinlik, ravshanlik darajasi.

- 1) chizmatasvirda bir rang (monoxrom) tusi;
- 2) rangtasvirda rang kuchi, rang quyuqligi tushuniladi. Rangtasvirda rang va yorug‘ - soya munosabatlari uzviy bog‘liq;
- 3) rang tusi – rangning muhim sifati;
- 4) umumiy rang tusi tushunchasi rang chashmasi terminiga mos.

Tors – (italyancha – torso - gavda) – odam gavdasi.

Fazoviy planlar – (reja) – 1) naturalarga qaraganimizda fazoga joylashgan buyumlar shartli ravishda maydonlarga

bo‘linadi 2) kartina bo‘shlig‘idagi tasvirning har xil darajadagi uzoqlashuvi. Odatda bir necha planlar farqlanadi: birinchi, ikkinchi, uchinchi yoki oldingi, o‘rta, uzoq planlari. Ularning soni har xil bo‘lishi tasvirlanayotgan obyektga, ijodiy g‘oyaga bog‘liq; 3) modelirovkada, fazoda har xil joylashgan shakl qismlarini shakl planlari deb yuritiladi.

Fas – (fransuzcha – yuz, bashara, chehra) – olddan ko‘rinishi.

Fon – (fransuzcha – fond – tag, chuqurlik qismi) – naturada va tasviriy san’atda – shakllar ortida joylashgan muhit, tasvirda orqa plan. Tasviriy san’atda fon tasvirli yoki tasvirsiz bo‘lishi mumkin.

Forma – (lotincha – forma - tashqi ko‘rinish) – 1) tashqi ko‘rinish, qiyofa; 2) tasviriy san’atda forma deganda shaklning tashqi xususiyatiga aytiladi. Tasviriy san’atda badiiy forma – bu kompozitsiya tuzilishi, vositalar birligi, hamjihatlilik, usuli, badiiy ashyoda amalga oshirilganligi va badiiy g‘oya mujassamligidir.

Format – (fransuzcha)–tasvir bajarilayotgan tekislik shakli (to‘g‘rito‘rtburchak, oval, doira va boshqalar).

Format balandligining eniga nisbati umumiy doira chegarasiga bog‘liq. Format tanlash san’at asarining mazmuniga va ruhiyatiga bog‘liq. Kartina formati tasvir kompozitsiyasiga to‘g‘ri kelishi lozim.

Fragment – (lotincha – fragmentum - bo‘lakcha) – asarning bir qismi, bo‘lakchasi.

Xromatik rang – (grekcha – chromos - rang) – har xil tusdagi ranglar. Quyosh spektri ranglari (qizil, sariq va boshqalar). Rang doirasidagi issiq va sovuq ranglar guruhi. Axromat rangga – oq, qora, kulrang kiradi. Ular rangsiz bo‘lib, faqat tusi bilan farq qiladi.

Eskiz – (fransuzcha – exguisse – (qoralama)) – ijodiy g‘oyaning asar uchun bajarilgan qoramalari.

Eskiz har xil usul (texnika)da bajarilishi mumkin. Eskiz bir necha variantda bajariladi va eng yaxshi deb topilgani asar uchun asos qilib olinadi.

Etud – (fransuzcha – o‘rganish, mashq qilish) – naturadan bajarilgan ish (rasm). Ba’zi hollarda eskiz mustaqil ahamiyatga ega. Rassom etud orqali tabiatni, naturani o‘rganadi, mashq qiladi. Kelajak asari uchun ma’lumot yig‘adi va ranglarini aniqlaydi. Etud san’atning hamma turida mavjud. Tasviriyy san’atda esa, rassom izlanishlari mashqlari, biror narsalarning o‘ziga, asliga qarab, odatda biror katta asar yaratish uchun ashyo bo‘lib xizmat qiladigan dastlabki rasm.

Etudnik – rassomlarning o‘qish-o‘rganish uchun ichiga mo‘yqalam, bo‘yoq, qalam, palitra va qog‘ozlarigacha turadigan quti. U dastgoh vazifasini ham o‘taydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Каримов И.А. Узбекистан: национальная независимость, экономика, политика. Т-1. Т: «Ўзбекистон» 1996.
2. Каримов И.А. Наша цель: свободная и процветающая Родина. Т-2. Т. «Ўзбекистон» 1996
3. O‘zbekiston zamonaviy san’ati. Toshkent. 2004.
4. Kirichenko O. Ranglardagi musiqa. «San’at» 1999. №1.
5. O‘zbekiston san’ati. «Sharq», T., 2004.
6. B.V.Ioganson. JIVOPIS.
7. Ira Goldberg. Nyu York. 2008.
8. Richard Shmidt. Alla prima. 2002.
9. Klaus Reichold, Bernhard Graf. PAINTINGS that Chaged the World
10. O‘zbekiston tasviriy san’ati antologiyasi. «San’at» nashr. 2009.
11. San’at O‘zBA jurnali. №4. 1999. Toshkent.
12. Bahodir Jalolov. Albom. T.; 1999.
13. O‘zbekiston san’ati. “Sharq” nashr.T.; 2001.
- 14.O‘zbekiston tasviriy san’ati antologiyasi. «San’at» jurn. Nashr. T.; 2009.
15. Пространство картины. Москва «Художник» 1989.
16. Энциклопедический словарь художника. Москва. «Педагогика» 1983.
17. Xudayberganov R.A. «Rangshunoslik». Toshkent-2002.
18. Xudayberganov R.A. «Kompozitsiya». Toshkent-2008.

MUNDARIJA

I BOB. KIRISH

1.1. Fan haqida.....	5
1.2. Tasviriy san'at.....	6
1.3. San'atda realizm.....	9
1.4. Tasviriy san'atda mazmun va shakl.....	14
1.5. Kompozitsiya.....	17
1.6. Kompozitsiya fanining maqsad va vazifalari.....	21

II BOB. DASTGOHLI RANGTASVIR JANRLARI

2.1. Tarixiy janr	23
2.2. Jang (batal) janri.....	24
2.3. Maishiy janr.....	25
2.4. Manzara janri.....	25
2. 5. Natyurmort janri.....	26
2.6. Portret janri.....	27

III BOB. KOMPOZITSIYA QOIDALARI, USULLARI VA VOSITALARI

3.1. Kompozitsiyada ritm (vazn)	34
3.2. Syujetli-kompozitsiya markazi.....	37
3.3. Simmetriya.....	38
3.4. Asimmetriya.....	39
3.5. Kontrastlar.....	40
3.6. Yaxlitlik.....	44
3.7. Kompozitsiya vositalari	45
Kompozitsiya usullari.....	51

IV BOB. DASTGOHLI RANGTASVIR

4.1.Fazoviy qurilma.....	59
4.2. Perspektiva va kartinada obraz qurilmasi.....	61
4.3. Kompozitsiya markazi.....	63
4.4. Kompozitsiyada kolorit.....	64

V BOB. DASTGOHLI RANGTASVIRDA KARTINA KOMPOZITSIYASI

5.1. Rangtasvirda chizmatasvirning roli.....	67
5.2. Kartina yaratish	70
5.3. Syujetli kompozitsiya	76
5.4. Kartina formati (o‘lchami).....	81
5.5. Kartina ishlash jarayoni.....	83
5.6. Kartinada kompozitsiya qurilmasi.....	87
5.7. Portretida bosh va qomat tasviri.....	89

VI BOB. KOMPLEKS VAZIFALAR VA UNING AHAMIYATI

6.1. Uslubiy ko‘rsatma.....	91
6.2. Kompozitsiya ustida ishlash metodikasi.....	94
6.3. Eskiz ishlash.....	101
6.4. Kartina kompozitsiyasini ishlash bosqichlari.....	102
Xulosa	109
Glossariy. Tasviriy san’at terminlarining lug‘ati...	111
Foydalanilgan adabiyotlar.....	122

[illegible]

[illegible]

ERKIN JABBOROV

KOMPOZITSIYA

Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2019

Muharrir:	F.Ismoilova
Tex. muharrir:	A.Moydinov
Musavvir:	F.Tishabayev
Musahhiha:	Sh.Mirqosimova
Kompyuterda sahifalovchi:	N.Raxmatullayeva

**E-mail: tipografiyacent@mail.ru Tel: 71-245-57-63, 71-245-61-61.
Nashr.lits. AIN^o149, 14.08.09. Bosishga ruxsat etildi 07.05.2019.
Bichimi 60x84 ¹/₁₆. «Times Uz» garniturası. Ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 9,75. Nashr bosma tabog‘i 10,0.
Tiraji 300. Buyurtma № 82.**

**«Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi» da chop etildi.
100066, Toshkent shahri, Olmazor ko‘chasi, 171-uy.**